

XALQ TA'LIMI

ISSN 2181-7839

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

Muassis:

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi

PUBLIC EDUCATION

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL
MINISTRY OF PUBLIC EDUCATION OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN

2016

4-son

(iyul-avgust)

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqa boshlagan
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT



TAHRIRIYAT

- 4 Davlat ta'lim standartlari – barkamol avlodni voyaga yetkazishning muhim omili



TA'LIM SIFATI: MAZMUN VA MOHIYAT

- D. Mamatov, O'. Tohirov 6 Mehnat ta'limi fanini mazmunan modernizatsiyalash hamda ta'lim sifati va samaradorligini oshirish muammolari



TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI

- J. Usarov 11 O'quvchilarning mantiqiy tafakkurini o'stirish omillari
M. Raxmanova 15 Talabalarining ijtimoiy faolligini oshirishda pedagogik qadriyatlarning ahamiyati



TA'LIM VA TARBIYA METODIKASI

- S. Ashirboyev 21 O'zbek dialektologiyasi ta'limi: Yangilanish tamoyillari
G'. Tajibayev 25 Boshlang'ich sinflarda chet tili fanidan leksik materiallarni o'qitishning ahamiyati
M. Isroilova 30 Darsdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida talabalarni intellektual-madaniy rivojlantirish shakllari
M. Isabayeva 35 Biologiya fanini o'qitishda sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini tarkib toptirish yo'llari
Q. Movlyanov 40 Tabiiy geografik qonuniyatlarni o'rganishning va o'qitishning metodologik asoslari



ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI

- M. Usmonboyeva, D. Xudoyqulova 44 Pedagogik turkum fanlarni o'qitishda "Keys-stadi" texnologiyasini qo'llash



TA'LIMDA MENEJMENT

- U. Inoyatov, Q. Inoqov 52 Hamkorlik pedagogikasi asosida ta'lim-tarbiya sifatini boshqarishni takomillashtirish masalalari
D. Hakimova 59 Zamonaviy yondashuv asosida o'quvchilarda refleksiv ko'nikmalarni shakllantirish jarayonlari



KASB-HUNARGA YO'NALTIRISH

- A. Turg'unov 63 Yuqori sinf o'quvchilarini kasb-hunarni mustaqil tanlashga tayyorlashning tashkiliy-pedagogik asoslari



MALAKA OSHIRISH VA QAYTA TAYYORLASH

- A. Ibragimov 68 Malaka oshirish tizimida modulli o'qitish istiqbollari



MUSIQA VA SAN'AT TA'LIMI

- N. Rejаметова 73 Maktabgacha yoshdagi bolalarda musiqiy ijodkorlikni takomillashtirish texnologiyalari



TA'LIMDA INNOVATSIYALAR

- Sh. Turdiyev 79 Ta'lim muassasalarida innovatsion muhandislik faoliyatini shakllantirish



TA'LIMDA AXBOROT RESURSLARI

- Sh. Ergashev, A. Kolantarov 84 Umumta'lim maktablarida axborot-kommunikatsion muhitni shakllantirish va rivojlantirishda elektron axborot-ta'lim resurslarining o'rni va ahamiyati
- K. Mamadaliyev, M. Xoshimxodjayeva 93 Yangi o'quv adabiyotlarini yaratishda o'quv jarayoni loyihalarini tuzish



PSIXOLOGIYA

- N. Marupova 101 O'smirlarda kuzatiladigan suitsidning psixologik sabablari



TAJRIBA MAKTABI

- F. Abdurahimova 105 Qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashning ba'zi xususiyatlari



AXBOROT XAVFSIZLIGI

- Sh. Taylaqova 111 Globallashtgan axborot sharoitida ommaviy axborot vositalarining o'quvchi-yoshlar ma'naviyatiga ijtimoiy ta'siri



ТЕОРИЯ ОБРАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ

- Г. Наркабилова 116 О подготовке высококвалифицированных специалистов к активной социально-коммуникативной деятельности



МЕТОДИКА ОБРАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ

- А. Жуманов, М. Олимова 119 Реализация межпредметных связей как одно из направлений в подготовке будущего учителя биологии



ПРАВО И ПРАВОВОЕ ВОСПИТАНИЕ

- З. Ким 123 Некоторые особенности работы с кадрами в образовательном учреждении
- Г. Хайдарова 129 Проблемы правосознания в борьбе с коррупцией



МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ И ИНТЕГРАЦИЯ ОБРАЗОВАНИЯ

- С. Коваленко 133 Современная модель управления образованием взрослых в Англии
- М. Бойченко 139 Одарённость как психолого-педагогический феномен в украинских и зарубежных реалиях

DAVLAT TA'LIM STANDARTLARI – BARKAMOL AVLODNI VOYAGA YETKAZISHNING MUHIM OMILI

Chorak asr – tarix sahnida ko'z ochib yumgunchalik qisqa fursat. Lekin o'tgan davr mobaynida mamlakatimizda Prezidentimiz Islom Karimov rahmanoligida asrlarga tatigulik ulkan islohotlar, bemisl bunyodkorlik ishlari amalga oshirildi. Eng muhimi, yoshlarning jahon standartlari asosida ta'lim olishlari uchun barcha shart-sharoit yaratildi. Natijada ularning ertangi kunga ishonchi oshdi, Vatan taqdiriga daxldorlik hissi bilan yashashi kuchaydi.

Joriy yil barcha yurtdoshlarimiz jonajon Vatanimizning qutlug' 25 yillik to'yini katta tantana qiladi. Ayni kunlarda yurtimizning barcha hududlarida eng ulug', eng aziz ayyom – Mustaqillik bayrami keng nishonlanmoqda.

O'tgan davr mobaynida jahon hamjamiyati O'zbekiston davlatini kashf etdi, uning "o'zbek modeli" deb nom olgan rivojlanish yo'lidan boxabar bo'ldi, tan oldi. Ana shu tarixiy jarayonda ta'lim sohasidagi islohotlar, ularning amaliy natijalari katta o'rin tutdi.

Buni davlatimiz rahbari 2012-yil 17-fevral kuni Toshkent shahri mezbonlik qilgan "Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti" mavzusidagi xalqaro konferensiyaning ochilish marosimidagi nutqida ham alohida ta'kidlab, shunday degan edi: "Mamlakatimizda 9+3 sxemasi bo'yicha 12 yillik umumiy majburiy bepul ta'lim tizimi joriy etildi. Yurtimizda amalga oshirilayotgan modelning prinsipial xususiyati avvalo shundaki, umumta'lim maktabidagi 9 yillik o'qishdan so'ng o'quvchilar keyingi 3 yil davomida ixtisoslashtirilgan kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarda tahsil olib, ularning har biri umumta'lim fanlari bilan birga mehnat bozorida talab qilinadigan 2-3 ta mutaxassislik bo'yicha kasb-hunarlarni ham egallaydi.

Ta'kidlash joizki, O'zbekistonda 12 yillik ta'lim barcha uchun majburiy va bepul ekani qonunlarimizda belgilab qo'yilgan. Bu o'sib kelayotgan yangi avlodimiz 12 yillik majburiy ta'lim olish bilan birga aniq mutaxassislik va kasb-hunarga ega bo'lishini taqozo etadi".

Darhaqiqat, hayotimizga olamshumul o'zgarishlar olib kirgan Kadrlar tayyorlash milliy dasturi har qanday rivojlanishning asosi yoshlarga ta'lim-tarbiya berish, fuqarolarni ma'rifat orqali zamon bilan hamnafas hayotga tayyorlash ekanligini amalda isbotladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Ta'lim to'g'risida"gi qonun, Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi yosh avlodni jismonan sog'lom, ma'nan barkamol qilib voyaga yetkazishning muhim huquqiy asoslaridir.

Umumiy o'rta ta'limning takomillashtirilgan Davlat ta'lim standartlari va modernizatsiya qilingan o'quv dasturlaridagi o'zgarishlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2004-yil 21-maydagi 3134-sonli Farmoniga muvofiq qabul qilingan "2004-2009-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi"da davlat

ta'lim standartlari, o'quv dasturlarini qayta ko'rib chiqish vazifasi qo'yilgan.

"2004-2009-yillarda Maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi" ijrosini ta'minlash maqsadida umumta'lim fanlari bo'yicha mavjud DTSlar yangidan tahrir etilib, o'quv dasturlari modernizatsiya qilindi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida boshlang'ich ta'limda o'quvchi ta'limiy faoliyatning asosiy ko'nikma va malakalarini egallashi, erkin o'qishi, husnixati, tez sanash, matematik masalalarni yechishi, amaliy fikrlashi, o'z o'quv faoliyatini, nutq madaniyatini va xulqini nazorat qila bilishi, shaxsiy gigiyena va sog'lom turmush tarzi asoslarini o'zlashtirishiga alohida e'tibor qaratilgan.

Davr talabi hisobga olingan holda umumiy o'rta va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limining Davlat ta'lim standartlari, o'quv dasturlari va darsliklari uzviylik, uzluksizlik hamda o'quvchilarning yoshi va psixofiziologik xususiyatlariga mosligi jihatidan tahlil qilinib, 1260 soat hajmdagi mavzular optimallashtirildi.

Bugun esa umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalarida o'qitiladigan 18 ta umumta'lim fanlari bo'yicha yangi – kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan Davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlari loyihalari ishlab chiqilib, 76 ta umumiy o'rta ta'lim muassasalari, 52 ta kasb-hunar kolleji va 18 ta akademik litseylarida tajriba-sinovdan o'tkazildi.

Xalq ta'limi tizimida ilm-fan, texnika va texnologiyaning rivojlanishi, jamiyat ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlari davriylik asosida har 5 yilda takomillashtirib borilmoqda.

Vazirlar Mahkamasining 390-sonli qarorida belgilab berilgan davriylik asosida umumiy o'rta ta'lim maktablarining 1-sinf o'quvchilari uchun har yili, 2-4-sinf o'quvchilari uchun har 2 yilda bir marta va 5-9-sinf o'quvchilari uchun har 4 yilda bir marotaba qayta nashr qilinayotgan darslik va o'quv-metodik adabiyotlarda mazkur takomillashtirishlar o'z aksini topmoqda.

Xalq ta'limi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirliklari, O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazining 2015-yil 11-avgustdagi "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining umumta'lim fanlari bo'yicha o'quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlari loyihalari tajriba-tadqiqotini tashkil etish to'g'risida"gi qo'shma buyrug'i qabul qilindi.

Unga asosan umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalarida uzviy o'qitiladigan 18 ta umumta'lim fanlari bo'yicha amaliyotchi o'qituvchilar, metodistlar hamda yetakchi olimlardan iborat ishchi guruhlar tuzildi.

Ishchi guruhlar rivojlangan davlatlarning hamda mamlakatimizda yaratilgan chet tillardan uzluksiz ta'lim tizimi standartlari va o'quv dasturlarini ishlab chiqish tajribasidan kelib chiqib, umumta'lim fanlari bo'yicha kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan Davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlari loyihalarini tayyorladi.

Muxtasar aytganda, yuqorida keltirilgan raqamlar oddiy raqamlar yoki shunchaki ma'lumot uchun keltirilgan raqamlar emas. Bu raqamlarni o'qigan, ko'rgan kishining xayoliga **"Kecha kim edigu bugun kim bo'ldik?!"**, degan haqli savol keladi. Darhaqiqat, istiqlol tufayli qo'lga kiritilayotgan yutuqlardan har bir yurtdoshimiz haqli ravishda faxrlanishi va farzandlarini ham shunga munosib ravishda kamol topishiga intilishi lozim.

Dilmurod MAMATOV,
O'ktamjon TOHIROV,
Nizomiy nomidagi TDPU katta o'qituvchilari

MEHNAT TA'LIMI FANINI MAZMUNAN MODERNIZATSIYALASH HAMDA TA'LIM SIFATI VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH MUAMMOLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada mehnat ta'limi fanini mazmunan modernizatsiyalash, ta'lim sifati va samaradorligini oshirish muammolari va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar berilgan. Shuningdek, mehnat ta'limi darslarini tashkil etishda zamonaviy ta'lim texnologiyalari va vositalaridan maqsadga muvofiq foydalanish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish natijasida o'quvchilarda mehnat va mehnat faniga bo'lgan qiziqishlari ortishiga sabab bo'lishi ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar. Mehnat ta'limi, modernizatsiya, ta'lim sifati, samaradorlik, davlat ta'lim standarti.

В статье рассмотрены вопросы модернизации содержания профессионального образования, проблемы повышения качества и эффективности образования, пути их решения. Показано комплексное цельное применение современных образовательных технологий и средств при организации трудового обучения, определены возможности развития интереса учеников к труду и трудовому обучению.

Ключевые слова. Трудовое обучение, модернизация, качество образования, эффективность, государственный образовательный стандарт.

In article are reviewed the issues of modernization of content of vocational education and science, education quality and efficiency problems and their solutions. Showing whole application of modern educational technologies and the using of innovative technologies for the organization of labor training, increasing the interest of pupils to work and labor training.

Key words. Labor training, modernization, quality of education, efficiency, state education standards.

Respublikamizda umumiy o'rta ta'lim muassasalari oldiga o'quvchilarni xalq xo'jaligining turli sohalarida samarali mehnat qilishga, kasb-hunarlarni ongli ravishda tanlashga tayyorlash bo'yicha qo'ygan ijtimoiy buyurtmasini bajarishda mehnat ta'limi jarayonining samaradorligini oshirish muhim ahamiyatga ega.

Ushbu vazifani bajarish uchun mehnat ta'limi jarayonini mazmunan modernizatsiyalash hamda uning sifati va samaradorligini oshirish maqsadida mehnat ta'limi o'qituvchisidan o'z kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini, kasbiy mahoratini tako-

millashtirishni, shuningdek, tobora rivojlanib borayotgan pedagogik jarayon talablari darajasida pedagogika, psixologiya, metodika fanlari yutuqlari, zamonaviy texnika va ilg'or texnologiyalar, ishlab chiqarish va bozor iqtisodiyoti munosabatlari bo'yicha mukammal bilimlar, ko'nikmalarni egallashni taqozo etadi. Mehnat ta'limi o'qituvchisining bilim, ko'nikma va malakalari ko'lam va sifati, uning ta'lim-tarbiya jarayonini umumiy o'rta ta'lim Davlat ta'lim standarti (DTS) talablari asosida tashkil etish va o'tkazish bo'yicha erishgan yutuqlari va yo'l qo'ygan kamchiliklari, kasbiy mahorati kabi murakkab va ko'p qirrali faoliyatini takomillashtirish jarayonining didaktik shart-sharoitlarini aniqlash, muvofiq ravishda uning shakl, tur, usul va vositalarini optimal tanlash asosida nazorat o'tkazish metodikasini ishlab chiqish, uning mazmunini boyitish, bu sohada mamlakatimiz miqyosida amalga oshirilayotgan tashkiliy ishlarni tahlili amalga oshirilayotgan barcha tadbirlarni ilmiy-uslubiy asnosida tashkil etilishini talab qilmoqda.

Ma'lumki, "Mehnat ta'limi" fanining maqsadi – o'quvchilarni aqliy va jismoniy mehnat turlari, jarayonlari hamda kasblar bilan tanishtirish, ularda dastlabki mehnat ko'nikmalarini, malakalarini, mehnatga qiziqish hamda mehnatsevarlikni shakllantirish, mehnat va kasblarni qadrlashga, ularning ahamiyatini tushunishga o'rgatish hamda jamiyat va shaxs farovonligi yo'lida mehnat faoliyatiga qo'shilishlariga imkon beruvchi shaxsiy sifat va tafakkurlarini rivojlantirish, qiziqishi va qobiliyatiga xos kasb-hunar tanlashiga zamin yaratish hisoblanadi.

Hozirgi kunda yoshlarning kollejlarda o'zlari qiziqqan kasb-hunarlarni egallashlari jarayonida turli nomutanosibliklar vujudga kelmoqda. Jumladan, o'quvchilarning kasb tanlashlaridagi nomutanosibliklar hamda texnikaga, ya'ni mashinasozlik, elektronika, elektrotexnika, sanoat kabi sohalarga yoshlarning qiziqishlari kuchli emasligi natijasida mazkur sohalarga ixtisoslashtirilgan kollejlarga nisbatan kam o'quvchilar borayotganligi, ushbu kollejlarning nufuzi boshqa kollejlarga nisbatan pastroq ekanligi ko'rinmoqda. Buning sababi sifatida yoshlarning umumiy o'rta ta'lim maktablaridan texnikaga oid boshlang'ich ko'nikmalarini shakllantirishga e'tibor berilmayotganligini ko'rsatishimiz mumkin. Ushbu ko'nikmalar asosan mehnat ta'limi darslarida shakllantirilishini hisobga olsak, "Mehnat ta'limi" faniga e'tiborni kuchaytirish davr talabi ekanligi yaqqol namoyon bo'ladi.

"Mehnat ta'limi" fanida o'quvchilarning ham intellektual, ham jismoniy bilim, ko'nikma va malakalari uyg'unlashgan holda shakllanishi hamda texnikaga oid mehnat qilishning sensor ko'nikmalarining rivojlanishi, shuningdek, kasblar olami, kasb tanlashdagi qiyinchiliklar va nomutanosibliklar, kasb tanlashda e'tiborga olinadigan omillar haqidagi ma'lumotlar fanning asosiy maqsadi sifatida beriladi.

Demak, mazkur fanga e'tibor berilishi natijasida nafaqat texnika yo'nalishiga ixtisoslashtirilgan kasb-hunar kollejlariga, balki yoshlarning o'z kasblarini ongli, barcha jihatlarini hisobga olgan holda tanlashlariga erishiladi. To'g'ri, kasb tanlagan o'quvchilarning qiziqishini oshirish, ya'ni ta'lim sifati va samaradorligini yuksaltirish natijasida yetuk, jahon talablariga javob beradigan mutaxassislar tayyorlashga zamin yaratgan bo'lamiz. Ushbu mutaxassislar bevosita ishlab chiqarish jarayonlarini rivojlantirgan holda mamlakat rivojiga o'z hissalarini qo'shadilar.

Mehnat ta'limi darslarini tashkil etishda zamonaviy ta'lim texnologiyalari va vositalaridan maqsadga muvofiq foydalanish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni jo-

riy etish natijasida o'quvchilarda mehnat va mehnat faniga bo'lgan qiziqishlari ortishi, amaliy mashg'ulotlarda mehnat obyektlarini bajarish bo'yicha aniq tasavvurlarga ega bo'lishi, mehnat tajribalarini bajarish bo'yicha chuqur bilim, ko'nikma va malakalarni hosil qilishida keng imkoniyatlar ochadi.

Yuqoridagi fikrlardan ko'rinib turibdiki, “Mehnat ta'limi” fanini rivojlantirishdagi muammolarni bartaraf etish maqsadga erishishning muhim omillaridan hisoblanadi. Mehnat ta'limi jarayonini samarali tashkil etishda quyidagi muammolar borligi aniqlandi:

1. “Mehnat ta'limi” fanining nufuzi pastligi, mazmunan eskirganligi, ya'ni mehnat ta'limi fani dasturida ko'rsatilgan mavzular zamon talabi darajasida emasligi;
2. Metodik ta'minot. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida darsliklarning va o'qituvchilar uchun metodik qo'llanmalarning yetarli darajada emasligi;
3. Moddiy-texnik bazaning talabga javob bermasligi;
4. Mehnat ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligining yetarli darajada shakllanmaganligi kabilar.

Hozirgi kunda umumiy o'rta ta'lim maktablarida “Mehnat ta'limi” faniga past nazar bilan qarash tushunchasi shakllanib qolgan. Ushbu fanda mehnat qilish bilan shug'ullanish kerak, degan fikr bilan mehnat ta'limi o'qituvchisi va o'quvchilar maktabning jamoat ishlariga va tozalash ishlariga jalb qilinmoqda. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun mehnat ta'limi jarayonini zamon talablariga javob beradigan, jahon standartlari asosida, mavjud imkoniyatlar hamda sharoitlarni hisobga olgan holda ham mazmunan, ham tuzilmaviy jihatdan modernizatsiya qilish kerak bo'ladi. Bu o'rinda o'qituvchilarning kasb va ish malakasini mamlakatimizda amalga oshirila-yotgan tizimli demokratik islohotlarga va mamlakatni modernizatsiyalashga muvofiq-ligini ta'minlash muhim hisoblanadi.

Hozirgi kunda dunyo bo'yicha rivojlangan davlatlar agrar ishlab chiqarishdan sanoat ishlab chiqarishga, ya'ni yangi texnika va texnologiyalarga asoslangan avtomatik-mexanizatsiyalashgan sanoat ishlab chiqarish davriga o'tib bormoqda. Ishlab chiqarishni rivojlantirishda mutaxassislarning texnikaviy salohiyati muhim o'rin tutadi. Ishlab chiqarish sohasida faoliyat yuritadigan mutaxassislarning boshlang'ich ko'nikmalari aynan umumiy o'rta ta'lim maktablarida “Mehnat ta'limi” darslarida tarkib topadi va shakllanadi.

“Mehnat ta'limi” fanining mazmunini amaldagi DTS va o'quv dasturlarida berilgan asosiy mehnat ko'nikmalari mazmunini saqlagan holda, zamon talablari va bozor munosabatlaridan kelib chiqqan holda elektrotexnika, elektronika va avtomatlashtirish sohalari bo'yicha mavzularni kengaytirib, mazmunan modernizatsiyalash talab etiladi.

Mehnat ta'limi darslarini elektrotexnika, avtomatika, robotatexnika, elektronika bo'yicha boshlang'ich ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan mavzular bilan boyitish maqsadga muvofiqdir.

Shu bilan birga hozirgi kunda turmushda va ishlab chiqarishda plastmassa buyumlarning ko'p ishlatilayotganligini inobatga olgan holda “Plastmassaga ishlov berish” bo'limini kiritish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Mehnat ta'limi darslaridan metodik adabiyotlar yaratilmaganligi, mavjudlarining esa ma'nan eskirganligini ko'rishimiz mumkin. Amalda mavjud darsliklar yaratilgan

bo'lsa-da, respublikadagi barcha maktablarga yetib bormaganligi va o'quvchilar soniga nisbatan yetarlicha ta'minlanmaganligi muammo bo'lib qolmoqda.

Ushbu holatni ijobiy ko'rinishga olib kelish maqsadida quyidagi takliflarni berishni maqsad qildik:

- yaratilgan darsliklarni sifat va mazmun jihatdan qayta tahlil qilgan holda respublikadagi barcha umumiy o'rta ta'lim maktablariga yetkazish;

- o'qituvchilar uchun mehnat ta'limi darslari sifatini yaxshilashga qaratilgan zamonaviy pedagogik texnologiyalarga asoslangan metodik qo'llanmalarni ishlab chiqish;

- davriy nashrlar hamda ilmiy-metodik jurnallarda mehnat ta'limi bo'yicha namunalari dars ishlanmalari va ilmiy-metodik maqolalar berilishiga e'tibor qaratish;

- mehnat ta'limi bo'yicha ilg'or ish tajribasiga ega bo'lgan o'qituvchilar tomonidan innovatsion texnologiyalar asosida tayyorlangan dars ishlanmalarini ommalashtirish;

- hududlarda tashkil qilingan "Mahorat maktabi" mahsuli sifatida yetakchi ta'lim muassasalari, olimlar, tadqiqotchilar, o'qituvchilar va metodistlar hammuallifligida mehnat ta'limi fani bo'yicha o'quv uslubi majmualarni yaratish va amaliyotga tatbiq etish;

- mehnat ta'limi bo'yicha zamonaviy plakatlar hamda elektron ko'rinishdagi dasturlar animatsiyalarini yaratish va ta'lim jarayoniga tatbiq etish zarur hisoblanadi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining moddiy-texnik bazasini tahlil qilish natijasi-da aksariyat ta'lim muassasalarida o'quv ustaxonalari yetarli darajada talabga javob bermasligi aniqlandi.

Ushbu muammoni yechish uchun quyidagi takliflar o'rinalidir:

- umumiy o'rta ta'lim muassasalarining "Mehnat ta'limi" fani bo'yicha mavjud moddiy-texnik bazasini inventarizatsiyadan o'tkazish;

- respublikadagi barcha maktablarning tumanlar va viloyatlar bo'yicha mehnat ta'limidan moddiy-texnik bazasini yaxshilashga qaratilgan takliflarni o'rganish;

- mehnat ta'limi bo'yicha o'quv ustaxonalarini talab darajasida ta'minlash uchun yetishmayotgan asbob-uskuna va jihozlar smetasini shakllantirish;

- mehnat ta'limi fani nufuzini ko'tarish hamda mazmunan o'zgartirishda nisbatan qimmat baholanadigan asbob-uskuna va jihozlar o'rniga o'quvchilarning zamonaviy texnik va elektronikaga oid ko'nikmalarini amaliy faoliyatlari bo'yicha rivojlantirishga yo'naltirilgan moddiy-texnik baza bilan boyitilishiga e'tibor berish lozim.

Respublikada mehnat ta'limi bo'yicha o'qituvchilarning faoliyati tahlil qilinganda son jihatdan yetarli darajada ta'minlanmaganligi va toifalar bo'yicha ancha past ko'rsatkichlarga ega ekanliklarining guvohi bo'lamiz. Hozirgi jadal rivojlanayotgan zamonada o'qituvchilar yangi ta'lim texnologiyalari, axborot kommunikatsiya texnologiyalardan boxabar bo'lish, mashg'ulotlarni qiziqarli tarzda maqsadga hamda yuqori natijaga erishgan holda tashkil etishlari lozim. Buning uchun albatta kasbiy jihatdan yuqori kompetentlik talab etiladi. Mazkur muammoning yechimi uchun quyidagi takliflarni bermoqchimiz:

- mehnat ta'limi yo'nalishi bo'yicha o'qituvchilar tayyorlash kvotalarini ko'paytirish va tayyorlanayotgan bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligi rivojlanishi sifatiga e'tiborni kuchaytirish;

– mehnat ta'limi yo'nalishi bo'yicha bakalvr va magistrlar tayyorlash jarayoniga zamonaviy talablar asosida o'zgartirishlar kiritish;

– mehnat ta'limi o'qituvchilarining malaka oshirish jarayonida ularning kasbiy kompetentliklarini shakllantirishga qaratilgan dasturlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish;

– mehnat ta'limi o'qituvchilarining kasbiy va metodik kompetentligi shakllanganligini aniqlash indikatorlarini yaratish va doimiy nazorat qilib borish lozim.

Hozirgi kunda Rossiya, Germaniya, Singapur, Janubiy Koreya, Yaponiya, Hindiston va boshqa qator rivojlangan davlatlarning ta'lim tizimi tahlil qilinganda mehnat ta'limi jarayoniga jiddiy e'tibor berilayotganligini ko'rishimiz mumkin. Mamlakatning rivoji ishlab chiqarish sohasiga bog'liq ekanligi, ishlab chiqarish sohasining rivoji mutaxassislar malakasiga bog'liqligi isbotlanmoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, xulosa o'rinda ta'kidlash mumkinki, "Mehnat ta'limi" faniga berilayotgan e'tibor kelajakda o'quvchilarning ham aqliy, ham jismoniy jihatdan kamol topishlariga, ularning kasb va ish malakalari mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tizimli demokratik islohotlarga va mamlakatni modernizatsiyalashga muvofiq holda shakllanishi asosida zamonaviy mutaxassislar sifatida tayyorlanishiga zamin yaratadi, deb o'ylaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. *Mehnat ta'limidan umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun davlat ta'lim standartlari. "Ta'lim taraqqiyoti", IV maxsus son. 1999.*

2. *Muslimov N.A., Sharipov Sh.S., Qo'ysinov O.A. Mehnat ta'limi o'qitish metodikasi, kasb tanlashga yo'llash. –T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2014. 456-b.*

3. *Tolipov O'., Razzoqov D., Bobojonova Q. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida mehnat ta'limidan Davlat ta'lim standartini amaliyotga joriy etish. Metodik qo'llanma. O'ZPFITI ofset laboratoriyasi. –T.: 2000.*

4. *Sharipov SH.S., Tolipov O'. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida uzluksiz mehnat ta'limi konsepsiyasi. 2005. 23-b.*

Jabbor USAROV,

Nizomiy nomidagi TDPU katta ilmiy xodim-izlanuvchisi

O'QUVCHILARNING MANTIQUIY TAFAKKURINI O'STIRISH OMILLARI

Annotatsiya

Maqolada matematika darsligi haqida mulohazalar hamda o'quvchilarning mantiqiy fikr-lashlarini shakllantirishda boshlang'ich sinf o'quv materilallarining ahamiyati yoritilgan. Shu-ningdek, muallif o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini o'stirish omillari hamda ularning fanlarni qanday o'zlashtirishi haqida fikr yuritgan.

Kalit so'zlar. O'qitish uslubi, ta'lim konsepsiyasi, ta'lim jarayoni, mantiqiy bilish, matema-tik tafakkur, boshlang'ich ta'lim, metodika, kompetensiya, o'qituvchi, o'quvchi.

В статье рассматриваются роль и значение учебного материала в формировании логического мышления у учеников начальных классов, как фактор повышения способ-ностей учащихся к освоению учебных предметов.

Ключевые слова. Метод обучения, концепция образования, процесс обучения, ло-гические знания, математическое мышление, начальное образование, методика, компе-тенция.

The article discusses the role and importance of educational material in the formation of logical thinking in primary school pupils about the factors increasing the ability and mastering subjects.

Key words. Training method, concept of education, learning, logical knowledge, mathematical thinking, primary education, methodology, competence.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni hamda Kadrlar tayyorlash milliy dasturi qabul qilingandan so'ng mamlakatimiz ta'lim tizi-mida, xususan, boshlang'ich ta'limda ham keng qamrovli ijobiy o'zgarish-lar amalga oshirildi.

Bugungi kunda o'quv-tarbiya jarayonini zamonaviy o'qitish usullaridan, pedagogika fanining ilg'or yutuqlaridan foydalanib, shaxsga yo'naltirilgan hamda kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan boshlang'ich ta'lim nazariyasini yaratish kabi vazifalar dolzarb bo'lib qolmoqda. Boshlang'ich ta'limning asosiy vazifalaridan biri – ijodiy va mantiqiy tafakkur qila olish salohiyatini, aqliy rivojlanishini, dunyoqarashini, kommunikativ savod-xonligini va o'z-o'zini anglash salohiyatini shakllantirishdan iborat. Belgilangan vazifalar-dan kelib chiqqan holda, boshlang'ich sinf o'quvchilarining mantiqiy tafakkurini shakllan-tirishning ahamiyati xususida fikr yuritmoqchimiz.

Boshlang'ich ta'lim – umumiy ta'lim tizimining dastlabki bosqichi hisoblanadi. O'z-bekistonda boshlang'ich, umumta'lim va o'rta maxsus ta'lim tizimlari majburiydir. Bu dav-rdagi o'quv faoliyati davomida o'quvchilarning bilishga bo'lgan qiziqish va o'rganishga bo'lgan xohishlari shakllanib boradi. Ma'lumki, boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun

umumta'lim fan sifatida: ona tili, rus tili, chet tili, matematika, informatika, atrof olam, tasviriy san'at, musiqa, jismoniy tarbiya kabi fan predmetlari o'qitiladi. Biroq o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini o'stirishga qaratilgan maxsus fan masalan, **mantiq** fani o'quv fani sifatida kiritilmagan. Bizning fikrimizcha, o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyati umumta'lim fanlaridan berilayotgan bilim va ko'nikmalarni shakllantirish hamda keyingi bilimlarni o'zlashtirishda boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun ustuvor hisoblanadi.

Boshlang'ich maktablarining o'ziga xos jihatlari shundan iboratki, bolalar maktabga ta'lim olish uchun tayyorgarlik darajasiga ega bo'lib, har xil ijtimoiy tajribaga hamda turlicha psixologik va fiziologik holatda kirib kelishadi. Bunday rivojlanishdagi shaxslarga ta'lim-tarbiya berish, barkamol avlod sifatida tarbiyalashda bolalarda mantiqiy bilishni shakllantirish, ya'ni mantiqiy fikrlashlarni o'stirish samarali usul hisoblanadi. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, mantiqiy fikrlash tug'ma iste'dod emas, shu ma'noda uni shakllantirish hamda o'stirish mumkin va zarur. Muttasil tarzda mantiq fanini o'rganish, unga murojaat qilish, o'quvchilarning abstrakt mantiqiy fikrini o'stirishning sinalgan usullaridan hisoblanadi.

Bu fikrimizni ko'pchilik qo'llab-quvvatlaydi va bu haqda ko'plab adabiyotlarda to'xtalib o'tilgan. Ammo buni qanday amalga oshirish kerakligini barcha o'qituvchilar biladi deb bo'lmaydi. Taniqli pedagoglar oldindan kichik yoshdagi o'quvchilarning ta'lim olishida mantiqiy masalalarning o'rni beqiyos ekanligiga alohida e'tibor berishgan. Xususan, mashhur pedagog V.Suxomlinskiy o'zining pedagogikaga oid ishlarida bolalarga berilayotgan masalaning mohiyatini anglash, o'rganish va tahlil qilishga qaratilgan mantiqiy masalalar orqali ularning fikrlash qobiliyatini o'stirishning o'ziga xosligiga va muhimligiga alohida e'tibor qaratgan. Shu masalalardan birini yodga olaylik: *"Qirg'oqning bir tomonidan ikkinchi tomoniga bo'ri, echki va karamni olib o'tishi kerak. Lekin bo'ri bilan echkini, echki bilan karamni birgalikda qirg'oqda qoldirib ham qayiqda birga olib o'tib ham bo'lmaydi. Faqatgina birgalikda bo'ri bilan karamni yoki ularning har birini alohida o'tkazish mumkin. Qirg'oqlarga borib kelish chegaralanmagan. Ularni qanday qilib sog'omon o'tkazish mumkin?"* Bu masalani har birimiz bir necha bor yechgan yoki yechimini rasmlar orqali bolalarga tushuntirganmiz. Bo'ridan echkini, echkidan karamni asrash lozim bo'lgan hazilomuz ushbu misolda jiddiy matematik tahlilning dastlabki ko'rinishi shakllanadi. Bunga o'xshash misollarni bugungi darsliklarda ham ko'plab topish mumkin.

Bugungi kunda amalda foydalanilayotgan umumiy o'rta ta'lim maktablarining 3-sinf o'quvchilari uchun S. Burxonov, O'. Xudoyorov, Q. Norqulovalar muallifligidagi matematika darsligida shunga o'xshash misollarni yetarlicha ko'rish mumkin.

Mazkur darslikda o'quvchining mantiqiy tafakkurini o'stirishga qaratilgan masalalar bilan bir qatorda ularni mantiqiy fikrlay oladigan shaxs sifatida yondashilgan masalalarni ham uchratish mumkin. Masalan, 62-betdagi 334-sonli masala. 5 ta 1 raqami yordamida 21 sonini qanday hosil qilish mumkin. O'quvchilar mazkur masalani yechishi uchun rim va arab raqami yozuvlari haqida ma'lumotga ega bo'lishlari lozim. Yoki 308, 342, 414, 421, 451, 694, 726, 528, 842-sonli misollarni ko'rib chiqib, anchagina mantiqiy jihatdan o'ylashga to'g'ri keladi. Bu bir tomondan o'quvchilarning fikrlash va berilayotgan materiallar hajmini o'zlashtirish darajasida tanlangan bo'lsa, nur ustiga a'lo nur. Lekin boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'zlashtirishi va ularning imkoniyatlari to'g'risida tegishli mutaxassislarning, xususan, psixologlarning chuqur ilmiy tahliliy xulosasi zarur. Bu xulosa boshlang'ich sinf o'qituvchilari bilan bo'lgan suhbatlar asosida kelib chiqqan.

Ikkinchi tomoni berilayotgan materiallar bu yoshdagi o'quvchilar uchun og'irlik qilib, ularning fanga bo'lgan qiziqishini so'ndirib qo'yish ehtimoli ham yo'q emas. Shuningdek, darslikda matnli masalalarga ko'proq e'tibor qaratilgandek nazarimizda, bu esa

o'quvchilarda biroz qiyinchilikga olib kelishi mumkin. Sababi, kichik yoshdagi bolalarda ko'rgazmalilik kuchli hisoblanadi. Shuning uchun boshlang'ich ta'lim tizimida bolaning mantiqiy fikrlashini rivojlantirish fanning ilmiy salohiyati oshishiga keskin ta'sir qiluvchi tarkibiy qismi hisoblanadi.

Masalaning yana bir tomoni, gugurt cho'pi bilan berilayotgan topshiriqlarni faqatgina dars paytida emas, mustaqil holda uyda, ko'chada, boshqa bo'sh vaqtlarda ham foydalanishlari, qo'llashlari mumkin. Bulardan hattoki, kattalar ham ishxonalarda foydalanilayotganligining guvohi bo'lganmiz. Bu bilan biz ushbu darslikni tanqid qilish yoki maqtashdan yiroqdamiz, lekin xulosa o'rnida shuni ta'kidlash mumkinki, mazkur darslikda berilgan misol va masalalar bolalarning tafakkuri, zehni, yosh xususiyatlaridan kelib chiqqan holda tuzilgan bo'lsa, o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirish uchun fanlararo integratsiyani, ya'ni boshqa fanlarda ham o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini o'stirishga qaratilgan misollarga alohida e'tibor qaratish lozim bo'ladi. Zero, aqlni charxlash doimiy mashqlar yordamida amalga oshadi. Har bir fan bo'yicha nostandart mantiqiy masalalar berish nafaqat zaruriy, balki majburiydir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mantiqiy masalalar haqida keng qamrovli tushunchaga ega bo'lishlari uchun ular darajasidagi bir qancha tipik masalalarni keltiramiz.

I tip. Masala sharti u yoki bu holatda ham aniq yechimga ega bo'lmaydi. (Sinxona oynasi qancha to'g'ri burchakdan iborat)

II tip. Masala sharti uni yechish usullariga noto'g'ri yo'naltiradi. (Uchta ot 15 kmga yugirishdi. Har bir ot necha kilometr yugurgan)

Masalaga ko'pincha $15 : 3$ tarzda yondashiladi va javob: 5 km deb topiladi. Aslida esa, bo'lishni amalga oshirish kerak emas, otlarning barchasi bir xil, ya'ni 15 km masofani bosib o'tishgan.

III tip. Masala shartiga ko'ra zarur bo'lmagan, lekin matematik ifodalar tuzishga, o'ylashga majbur qiladigan misollar yordamida beriladi. (1 va 4 raqamlaridan foydalanib, shunday uch xonali son yozingki, uni 3 ga bo'lganda 2 qoldiq qolsin)

Bunday sonni o'ylab topishning iloji yo'q. Sababi, masala shartini qanoatlantiradigan har qanday son 3 ga qoldiqsiz bo'linadi.

IV tip. Masala shartida so'z o'yinlari, sonlar aralashmalari uni yechishda chalg'itadi. (Qog'ozda 606 soni yozilgan. Bu sonni biryarim marta oshirish uchun qanday amal bajarish kerak?)

Bu misolda matematik amal bajarish ko'zda tutilmagan, faqatgina qog'ozni aylantirish kifoya. Agar qog'ozni aylantirsak, 606 sonidan bir yarim marta katta bo'lgan 909 soni hosil bo'ladi.

V tip. Masala shartida sintaksiz, sinonim va h.k. matematik bo'lmagan usullar yordamida chalg'itish ko'zda tutiladi. (Ikki yuz-u ikki ko'z necha kishida bo'ladi?)

Bir qarashda ikki yuzu ikki ko'z, 202 ko'z kabi o'qiladi (eshitiladi), lekin bu yerda insonning ikki yuzi va ikki ko'zi haqida gap ketadi. Ya'ni ikki yuzu ikki ko'z bir odamda bo'ladi.

VI tip. Masala shartini to'g'ri tushinish va jarayonni ko'z oldiga keltira olish, harakatlarni takrorlamaslik ko'zda tutilgan. (To'rtta hamkasb bir-biriga qo'l berib xayrlashmoqda. Jami nechta qo'l berib xayrlashish mumkin)

Birinchi fikr 4, odam sonidan kelib chiqib, ikkinchi to'g'ri ko'ringan javob 3, o'zining boshqalar bilan ko'rishishi ma'nosida, to'g'ri javob esa 6 marta.

Turli tipdagi bunday misollarning berilishi o'quvchilarni chalg'itish uchun emas, matematika o'qitishdagi duch keladigan turli usullar, shakllar va tuzilishiga ham e'tibor berish kerakligini anglatadi.

Mantiqiy masalalar mulohaza yuritish, to'g'ri xulosa chiqarish qobiliyatlarini shakllantirib, o'quvchilarda noodatiy vaziyatlarda oxirigacha fikr yuritish, qiyinchiliklardan qo'rqmaslik hamda o'ziga bo'lgan ishonchni oshirish imkonini beradi.

Matematika fani o'quv maqsadiga ko'ra, pedagoglardan, matematiklardan, mantiqshunos va psixologlardan qo'shimcha hamkorlik talab etuvchi, anchagina murakkab fan hisoblanadi. Masalaning muhim jihati umumiylikdan o'ta muhim bo'lgan, boshlang'ich sinf o'quvchilari "hazm" qila oladigan tushunchalarni ajratib olishdan iborat. Ayni paytda bu tushunchalar o'quv predmetining fundamentini tashkil qiladi. Bolalar tomonidan olingan dastlabki tushunchalar matematikaning umumiy yo'nalishi to'g'ri anglashga va keyinchalik shu sohada olinadigan bilimlarga zamin yaratadi. Shu nuqtayi nazardan, boshlang'ich sinfda ham, yuqori sinflarda ham ko'pgina qiyinchiliklar:

- birinchidan, o'quv dasturda berilayotgan materiallarning o'quvchilar egallagan bilim darajasidagi tushunchalarga mos emasligi;

- ikkinchidan, maktab kurslarida umummatematik tushunchalar ketma-ketligining nomutanosib ekanligida bo'lsa;

- uchunchidan, boshlang'ich sinflardagi barcha o'quv fanlari mazmuniga mantiqiy fikrlashni o'stiruvchi mashqlar kiritish zaruratidir.

Boshlang'ich sinfda nafaqat o'quvchilarning tasavvur va tushunchalari kengayadi, balki ularning tasavvur va tushunchalari to'lib, aniqlashadi. Bola maktabga kelishi bilan uning borlig'ida o'zgarish yuzaga keladi, tub ma'noda ijtimoiy holati rivojlanadi, uning uchun muhim va yetakchi hisoblanadigan o'quv faoliyati shakllanadi. O'quv faoliyati natijasida o'ziga xos asosiy yosh psixologik holatlar rivojlana boshlaydi. Ta'lim olish ularning aqliy qobiliyatini va ongini rivojlantiruvchi harakat yadrosiga aylanadi. Shu tariqa tushunchalar bilimning, bilim esa ko'nikmalarning, ko'nikmalar esa, taraqqiyotning funksiyasiga aylanib boradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari so'zlarni gapirib berish, fikrini aytish, sodir etayotgan hodisaning yuz berish ehtimolligi va uning sabablarini aytib berishga qodir emas. Biror bir hodisa yoki jarayonni muhokama qilish, asoslash va fikrini himoya qilishga, o'ziga bo'lgan ishonch kabi xislatlar esa maxsus o'quv faoliyati mahsuli bo'lib shakllana boradi. Mantiqiy fikrlash, ko'rgazmali qurollarsiz holatlarni tasavvur qila olish, ro'y berayotgan ma'lum qonuniyatlarni anglash – fanlardan o'quv materiallarini o'zlashtirishning asosiy sharti hisoblanadi. Shuning uchun biz o'quvchilarimizni tabiatni o'rganishga adekvat yondashish, moddiylikga, tabiatda ro'y berayotgan barcha jarayonlarga makro va mikro olam qonuniyatlarini chuqurroq anglashga o'rgatishimiz zarur.

Fikrimizni umumlashtirgan holda, boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun alohida predmet sifatida mantiq fani elementlarini kiritish yoki o'tiladigan barcha fanlar uchun tegishli bo'lgan, ularning mazmunini yoritishda dars jarayonlarida bevosita foydalanish mumkin bo'lgan umumiy metodik qo'llanma ishlab chiqish zarurati mavjudligini ta'kidlab o'tishimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. *Boshlang'ich ta'lim konsepsiyasi.* –T.: 2014.
2. *Burxonov S. va b. Matematika. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 3-sinflari uchun darslik.* – T.: Sharq. 2014.
3. *Internet materiallari:* <http://go.mail.ru/search?>

Muqaddas RAXMANOVA,

O'zbekiston Milliy universiteti katta ilmiy xodim-izlanuvchisi

TALABALARNING IJTIMOY FAOLLIGINI OSHIRISHDA PEDAGOGIK QADRIYATLARNING AHAMIYATI

Annotatsiya

Maqolada ta'lim tizimida yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishda pedagogik qadriyatlarining o'zni haqida fikr bildirilgan. Shuningdek, pedagogik qadriyatlarning o'ziga xos xususiyatlari va bunda muhim o'rin tutgan pedagogik omillar aniqlangan.

Kalit so'zlar. Ijtimoiy faol, qadriyat, pedagogik muloqot, pedagogik qadriyatlar, madaniy qadriyat, axloq, texnologiya, innovatsiya, intuitsiya tizimi.

Статья посвящена раскрытию особенностей повышения социальной активности личности в системе образования посредством ценностей образования. Определены факторы и задачи, решение которых способствует повышению социальной активности личности в системе образования.

Ключевые слова. Социальная активность, ценность, педагогическая коммуникация, педагогические ценности, культурные ценности, мораль, технология, инновация, интуитивная система.

This article is devoted to the characteristics of increasing social activity of the individual in the system of education. The factors and tasks that promote great involvement of the active social personality in the system of education educational factors are identified.

Key words. Social active, values, educational communication, and cultural values, behavior, technology innovation system of intuition.

Jamiat va davlatning kelajagi asosan yoshlarning qanday ta'lim va tarbiya olishiga bog'liq bo'ladi. Sababi, yoshlar uzluksiz ta'lim-tarbiya jarayonida jamiatdagi turli ijtimoiy munosabatlarda faollashadi hamda ular ijtimoiy munosabatlarning subyekti sifatidagi harakatlantiruvchi shaxsga aylanadi. Mazkur jarayonda uzluksiz ta'lim tizimining o'zni katta.

Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek: "Shuni unutmasligimiz kerakki, kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi farzandlarimizning bugun qanday ta'lim va tarbiya olishiga bog'liq. Buning uchun har qaysi ota-ona, ustoz va murabbiy har bir bola timsolida avvalo shaxsni ko'rishi zarur. Ana shu oddiy talabdan kelib chiqqan holda farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish – ta'lim-tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo'lishi lozim, deb qabul qilishimiz kerak. Bu esa ta'lim va tarbiya ishini uyg'un holda olib borishni talab etadi"¹.

¹ Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqloq, iqtisod, siyosat, mafkura. – T.: O'zbekiston, 1996. 52-b.

Yoshlarning ijtimoiy faolligi – yoshlarning ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi ishtiroki, mehnat hamda madaniy-ma'rifiy faoliyatining kuchayishi, qonunda belgilab qo'yilgan huquq va burchlarini to'liq amalga oshirishga intilishini anglatadi. Yoshlarning ijtimoiy faolligi shaxsning jamiyatda o'z o'rnini topishi va xulq-atvorini ongli ravishda boshqarishning asosiy sharti ham hisoblanadi.

Ijtimoiylashuv va kasbiy yetuklik mutaxassislar tayyorlashdagi ikkita shartni amalga oshirishni talab etadi:

- 1) talabalarni faol ijtimoiy va kasbiy munosabatlarga jalb etish;
- 2) birgalikdagi samarali ijtimoiy va kasbiy faoliyat jarayonida shaxsning o'z-o'zini to'la namoyon eta olishiga imkoniyat yaratish.

Bo'lajak mutaxassislarni yetuk kasb egalari sifatida shakllantirish davlatimizning ta'lim sohasidagi siyosatining ustuvor yo'nalishi sanalib, mazkur masala dunyo davlatlari tomonidan kadrlar tayyorlashning istiqbolli dasturi sifatida tan olingan Kadrlar tayyorlash milliy dasturida aniq o'z aksini topgan².

Shu o'rinda alohida ta'kidlash joizki, oliy ta'lim muassasadagi o'qish vaqti – kasbiy yetuk bo'lib yetishishdagi mas'uliyatli damlardan biri – bu davrda talabada hayotga, atrof-muhitga, xususan, o'z kasbiga nisbatan qadriyatli munosabatning real sharoitlarda namoyon bo'ladi. Shuning uchun pedagogik ta'limdagi bu davr o'z mazmuniga ko'ra amaliy ravishda insonni, u to'g'risidagi bilimlarni o'rganuvchi, o'ziga xos pedagogik jarayon bo'lishi zarur.

Qadriyatlar va madaniyat me'yorlari, san'at, axloq, ma'naviy sohadagi barcha yutuqlar inson shaxsiga qaratilgan bo'lishi, yaxlit pedagogik jarayonning barcha tuzilmalari bo'ylab singib o'tishi va u bo'lajak mutaxassisning shaxsiy rivojlanishiga qaratilgan bo'lishi lozim. Bundan ayon bo'ladiki, pedagoglarni tayyorlash keng madaniy rivojlanish negizida amalga oshirilishi kerak.

Madaniy-insonparvarlik yondashuv, uning faoliyatli va ijodiy tavsifi, individual yondashuvi talabalarda mavjud vaziyatga va o'z kasbiga nisbatan qadriyatli munosabatni shakllantiradi.

Oliy ta'lim muassasalari talabalarini shaxsiy va kasbiy ijtimoiylashtirishda, pedagoglik kasbiga doir qadriyatlarni yuzaga chiqarishda va pedagogik madaniyatga kirishish jarayoni sifatida talabalar tomonidan mazkur qadriyatlarning interiorizatsiyasida namoyon bo'ladi.

O'qituvchining ongida mustahkamlangan pedagogik qadriyatlar uning shaxslararo muloqotida, ijodiy faoliyatida, bola shaxsining rivojlanishida, kasbiy hamkorligida, ma'naviy qadriyatlar almashinuvidagi kasbiy yo'nalishlari tizimida hosil bo'ladi.

Olimlar tomonidan pedagogik qadriyatlarning ikki jihatiga alohida e'tibor qaratilgan:

– o'qituvchiga, uning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirishiga imkon beruvchi va ijtimoiy ahamiyatli insonparvar maqsadlarga erishishga, uning ijtimoiy va kasbiy faolligida yo'l ko'rsatuvchi belgi bo'lib xizmat qiladigan, o'ziga xos jihatlarga;

² O'zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash milliy dasturi // Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori kitobida. – T.: Sharq, 1997. 49-b.

– pedagogik faoliyatni tartibga soluvchi me'yorlar va ta'lim hamda pedagogik faoliyat sohasidagi vujudga keladigan ijtimoiy dunyoqarash orasidagi vosita va bog'lovchi bo'g'in bo'lib keluvchi bilish faoliyat tizimiga.

Pedagogik faoliyatning aksiologik xarakteri uning insonparvarlik mazmunida aks etadi. O'z navbatida, pedagogik qadriyatlar – bu pedagogik faoliyatning shunday o'ziga xosligiki, ular nafaqat pedagogik ehtiyojlarni qondirishga imkon beradi, balki uning ijtimoiy va kasbiy faolligini oshirishga xizmat qiladi. Pedagogik qadriyatlar hayotda o'z-o'zidan tasdig'ini topmaydi. Ular jamiyatdagi ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy aloqalarga bog'liq. Ana shu jihatni hisobga olib, Z.I.Ravkin pedagogik qadriyatlarni quyidagicha tasnif etadi:

1) ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar: ta'limning hamma uchun ochiqligi va bepulligi, millatidan qat'i nazar barcha fuqarolarning bilim olishdagi teng huquqliligi, o'quvchilarni va ota-onalarning ta'lim muassasasini tanlash erkinligi;

2) intellektual qadriyatlar: bilishga ehtiyoj, bilishga qiziqish va faollik, o'quvchilarning ijodiy faoliyati, fikrning go'zalligi va so'z bilish faoliyati vositasi sifatida;

3) axloqiy qadriyatlar: o'quvchining burch va shaxsiy majburiyatlari, uning pedagogik jarayonning subyekti bo'lish, huquqiy bilimlarni egallashdagi axloqiy rag'batlar va motivlar, vatanparvarlik va fuqarolik, mehnat va boshqa kishilarning mehnatini hurmat qilish;

4) kasbiy-pedagogik faoliyatga doir qadriyatlar: o'qituvchi-tarbiyachini mehnat qilishga chorlash, tanlagan kasbiga mas'uliyat bilan yondashish, pedagogning mahorati, uning izlanishli-tadqiqotchilik, innovatsion faoliyati, kommunikativ qobiliyati, o'quvchilar bilan muloqotdagi ijobiylik, pedagogik mahorat ³.

V.A.Slastenin esa, kasbiy yo'nalganlik tizimiga asoslangan holda pedagogik qadriyatlarni quyidagicha tasnif etadi:

1) maqsadli qadriyatlar: shaxsiy Men va kasbiy Men yig'indisidagi bo'lajak mutaxassisning shaxsiy konsepsiyasi;

2) vositali qadriyatlar: pedagogik muloqot, texnika va texnologiya, monitoring, innovatika, intuitsiya tizimi;

3) muloqotli qadriyatlar: pedagogik jarayon ishtirokchilarining muloqoti, kasbiy-pedagogik faoliyatdagi muloqot;

4) sifat qadriyatlari: shaxsning xulq-atvor, faoliyatga doir xilma-xil sifatlar;

5) bilishga oid qadriyatlar.⁴

O'zbekistonda ta'limiy qadriyatlar sohasida tadqiqot olib borayotgan olim Sh.Q.Mardonov ta'limiy qadriyatlarning o'ziga xosligiga ko'ra, bir nechtaga ajratadi:

1) global konseptual qadriyatlar;

2) aniq ta'limiy qadriyatlar;

3) ta'limning individual-shaxsiy xarakterdagi qadriyatlar;

4) innovatsion pedagogik texnologiyalar – umumbashariy (global) – konseptual ta'limiy qadriyatlar;

5) shaxsni shakllantirish;

³ Kaldibekova A., Xodjayev B. Pedagogik aksiologiya. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009. 49-50-b.

⁴ Бондаревская Е.В., Кульневич СВ. Педагогика: личность в гуманистических теориях и системах воспитания. – Ростов-на-Дону: Феникс, 1999. – С. 50.

6) ta'limning demokratik va gumanitar yo'nalganligi;

7) insonparvarlik, shaxs dunyoqarashini shakllantirish ⁵.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, madaniy-insonparvarlik yondashuv asosida talabalarni shaxsiy va kasbiy ijtimoiylashtirishda ijtimoiy-pedagogik va shaxsiy-pedagogik qadriyatlar muhim o'rin tutadi. Ijtimoiy-pedagogik qadriyatlar turli ijtimoiy tizimlarda ish olib boruvchi va ijtimoiy ongda namoyon bo'luvchi qadriyatlarning tavsifi va mazmunini aks ettiradi. Bu ta'lim sohasidagi jamiyat faoliyatini tartibga soluvchi g'oyalar, tushunchalar, me'yorlar, qoidalar, an'analar majmuidir.

Shaxsiy-pedagogik qadriyatlar ijtimoiy-psixologik ta'lim sifatida yuzaga chiqib, ularda o'qituvchi shaxsining maqsadlari, motivlari, ideallari va boshqa dunyoqarashga oid xususiyatlarini aks ettiradi. Bu xususiyatlar majmui uning qadriyatlar yo'nalishi tizimini tashkil etadi. Qadriyatlar yo'nalishi sifatidagi "Men" tizimi nafaqat kognitiv (bilishga doir) tarkibiy qismlarni, balki insonning ichki yo'nalganligida muhim o'rin tutuvchi hissiy-irodaviy tarkibiy qismlarni ham o'z ichiga oladi. Unda ijtimoiy-pedagogik hamda pedagogik qadriyatlarning individual-shaxsiy tizimiga asos bo'lib xizmat qiluvchi kasbiy-jamoaviy qadriyatlar o'rin olgan.

Yuqorida keltirilgan pedagogik qadriyatlar ijtimoiy va kasbiy tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladigan, predmetli mazmuniga ko'ra farq qiluvchi shaxsiy va vositali ko'rinishlarga ajraladi. Shaxsiy qadriyatlar – bu pedagog mehnatining ijodiy xarakterini, nufuzlilik, ijtimoiy ahamiyatlilik, davlat oldidagi mas'uliyat, o'z-o'zini namoyon qilish imkoniyati, bolalarga mehr va g'amxo'rlikni o'z ichiga oluvchi maqsadli qadriyatlardir. Bu turga xos qadriyatlar o'qituvchi, ta'lim oluvchilarning rivojlanishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Maqsadli qadriyatlar boshqa pedagogik qadriyatlar tizimida hal qiluvchi aksiologik funksiyalar sifatida namoyon bo'ladi, chunki uning maqsadida o'qituvchi faoliyatining asosiy mazmun-mohiyati aks ettirilgan.

Pedagog pedagogik faoliyat maqsadlarini amalga oshirish yo'llarini qidirar ekan, o'zini va o'zgalarni rivojlantirish yo'lidagi o'z kasbiy strategiyasini tanlab oladi. Maqsadli qadriyatlar davlatning ta'lim siyosatini va pedagogika ilmining rivojlanish darajasini aks ettiradi. Bu qadriyatlar subyektlashgan holda pedagogik faoliyatning ahamiyatli omillariga aylanadi va vositali qadriyatlarga ta'sir ko'rsatadi. Ular nazariya, metodologiya, pedagogik texnologiyalarni egallash natijasida shakllanib, pedagogning kasbiy ta'limi asosini tashkil etadi.

Shaxs uchun zaruriy qadriyatlar quyidagi maqsadli ta'limda o'z aksini topadi: o'qituvchi mehnatining ijodiy va serqirralilik tavsifi, uning nufuzi va ahamiyatliligi, jamiyat oldidagi yuksak ma'suliyat, o'zini namoyon qilishdir. Shuningdek, ta'lim oluvchi va ta'lim beruvchi shaxsining, talabalar jamoasi va pedagogik jamoaning rivojlanishi bilan bog'liq pedagogik faoliyatda o'z ifodasini topadi.

Vositali qadriyatlar, pedagogik muloqot, texnika va texnologiya, monitoring, innovatika, intuitsiya tizimi ta'lim maqsadiga erishishda vosita bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, pedagogik faoliyatga doir qadriyatlar pedagog nuqtayi nazarini ham belgilab beradi.

⁵ Mardonov Sh. Pedagogik ta'lim tizimida talimiy qadriyatlardan foydalanish. // Xalq ta'limi. – T., 2005. №6. 24-28-b.

Pedagogik nuqtayi nazar – bu faollikning manbai hisoblangan pedagogik voqelik, pedagogik faoliyat va xususiy holatlarga irodaviy va hissiy-baholovchi munosabatni anglatadi. Bu bir tomondan, jamiyatning unga qo'yadigan va taqdim qiladigan talablari, umidlari, imkoniyatlari bilan aniqlansa, boshqa tomondan esa, uning doirasida ichki, shaxsiy faollik, manbalar, mayllar, kechinmalar, faoliyat motiv va maqsadlari, qadriyatlar tizimi, dunyoqarash, ideallar orqali amalga oshiriladi.

Pedagogning nuqtayi nazari uning shaxsi, ijtimoiy yo'nalishi tavsifi, fuqarolik xulq-atvori va faoliyatida namoyon bo'ladi. Pedagogning ijtimoiy dunyoqarashi umumiy o'rta ta'lim maktabi vaqtidayoq qarashlar, qadriyatlar tizimi tarzida shakllanib, rivojlanib boradi. Ular asosida kasbiy tayyorgarlik, kasbiga, faoliyatning maqsad va vositalariga nisbatan qadriyatli munosabatlar tarkib topadi. Pedagogik faoliyatga nisbatan qadriyatli munosabat keng ma'noda o'qituvchi shaxsining negizini tashkil etuvchi yo'nalganlikni ifodalaydi. Pedagogning ijtimoiy nuqtayi nazari ko'p jihatdan uning kasbiy qarashini ham belgilab beradi. Biroq bu yerda hech qanday to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlik yo'q, chunki tarbiya doimo shaxsga ko'rsatiladigan o'zaro ta'sirlardan hosil bo'ladi. Pedagogning kasbiy nuqtayi nazarini tanlanishida unga ko'plab omillar ta'sir ko'rsatadi. Ammo ular orasida hal qiluvchi rolni kasbga doir me'yorlar, shaxsning individual-tipologik xususiyatlari, temperamenti va xarakteri egallaydi.

Bo'lajak mutaxassislarning shaxsiy va kasbiy ijtimoiylashuvi jarayonlari orasida gi yaqin o'zaro bog'liqlik, o'zida ushbu ikki unurni mujassam qiladigan va ularni zamonaviy bosqichdagi jamiyat talablariga mos ravishda kuchaytira oladigan maxsus tayyorgarlik tizimini ishlab chiqarishga imkon beradi.

Ma'lumki, bo'lajak mutaxassisni tayyorlash masalasi umumiy shaxsning rivojlanishi muammosi singari qarama-qarshiliklar jarayoni va natijasidir. Chunki bo'lajak mutaxassis shaxsini shakllanishi ko'plab ichki, o'zaro ta'sir etuvchi mahsulдор sabablar (omillar)ni taqozo etadi. Pedagogik adabiyotlarda mutaxassisning kasbiy va ijtimoiy moslashuviga ta'sir etuvchi mahsulдор sabablar (omillar) umumlashtirilib, pedagogik madaniyat nomi bilan qayd etiladi. Madaniyat tushunchasi uch ilmiy jihatdan, ya'ni aksiologik, faoliyat va shaxsga yo'naltirilganlik nuqtayi nazaridan talqin etilishi yaqqol ko'zga tashlanadi. Aksiologik yondashuvga ko'ra, pedagogik madaniyat – tarbiya haqidagi fan sifatida pedagogikaga tayanadigan pedagogik qadriyatlar majmuidir. Ushbu qadriyatlar moddiy va ma'naviy shakllarda mavjud bo'ladi. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv nuqtayi nazariga ko'ra, pedagogik madaniyat – bu pedagogik faoliyatdagi tarbiyaviy munosabatlarni amalga oshiruvchi subyekt sifatida kasbiy yetuk pedagog shaxsining muhim sifatidir. Faoliyatli yondashuvga ko'ra, pedagogik madaniyat – bu pedagogik qadriyatlarining tadbiq etilishini ta'minlovchi, mutaxassis kasbiy faoliyatining o'ziga xos usullari majmuidir.⁶

Pedagogik madaniyat – bu inson shaxsining integrativ sifati tariqasida aniqlandigan dinamik tizimli ta'lim bo'lib, bu sifat o'zida ijtimoiy va shaxsiy-kasbiy vazifalar, ijtimoiy mas'uliyat va axloqiy umuminsoniy qadriyatlar darajasida taraqqiy etishni hi-

⁶ Занина Л.В., Меньшикова Н.П. Основы педагогического мастерства.– Ростов-на-Дону: Феникс, 2003.– С. 239.

sobga olgan holda, pedagogik qadriyatlarni ijodiy tarzda amalga oshira olish layoqatini jamlashi zarur.⁷

Qadriyatlar ijtimoiy voqelikni jonlantiruvchi, insonlarga hayot baxsh etuvchi, hayotida faoliyat sifatida ishtirok etuvchi hodisadir. Shuning uchun ham qadriyatlar o'zida insoniyatning katta miqdordagi tarixiy tajribasini mujassamlashtirgan bo'ladi. Shu ma'noda qadriyatlar insonlarning ijtimoiy turmush tarziga singib, ularning o'z amaliy faoliyatlarini boshqarishlarida muhim rol egallaydi. Qadriyatlar shaxsning mustaqil fikrini ifodalash xarakteriga ega. Shaxsning jamiyat hayotiga integratsiyalashuvida pedagogik qadriyatlarning mohiyati beqiyosdir. Chunki qadriyatlar o'zaro uyg'unlashtirilgan tarzda o'zbek xalqi milliy madaniyatida o'z ifodasini topgan. Zero, pedagogik qadriyatlar shaxs ongini boyituvchi, rivojlantiruvchi vositadir. Shu bois talabalarda insonni oliy qadriyat sifatida idrok etish ko'nikmasini hosil qilish ularni madaniyat sari yetaklash, ijtimoiy faolligini oshirish, jamiyat hayotida integratsiyalash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. *O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura* – T.: O'zbekiston, 1996. 52-b.
2. *O'zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash milliy dasturi// Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori kitobida.* – T.: Sharq, 1997. 49-b.
3. Kaldibekova A., Xodjayev B. *Pedagogik aksiologiya.* – T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009. 49-50-b.
4. Mardonov Sh. *Pedagogik ta'lim tizimida talimiy qadriyatlardan foydalanish.* // *Xalq ta'limi.* – T., 2005. №6. 24-28-b.
5. Бондаревская Е.В., Кульневич СВ. *Педагогика: личность в гуманистических теориях и системах воспитания.* – Ростов-на-Дону: Феникс, 1999. – С. 50.
6. Занина Л.В., Меньшикова Н.П. *Основы педагогического мастерства.* – Ростов-на-Дону: Феникс, 2003. – С. 239.
7. Джураева Б.Р. *Формирование педагогической культуры будущих учителей в процессе профессиональной подготовки при изучении дисциплин педагогического цикла: Дис. ... канд. пед. наук.* – Т., 2002. – С. 48.

⁷ Джураева Б.Р. *Формирование педагогической культуры будущих учителей в процессе профессиональной подготовки при изучении дисциплин педагогического цикла: Дис. ... канд. пед. наук.* – Т., 2002. – С. 48.

Samixon ASHIRBOYEV,
filologiya fanlari doktori, professor

O'ZBEK DIALEKTOLOGIYASI TA'LIMI: YANGILANISH TAMOYILLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada muallif tomonidan ishlab chiqilgan yangi o'zbek transkripsiyasi, uning o'zbek dialektologiyasi bo'yicha yozilgan darslikda aks etilishi haqida, shuningdek, an'anaviy transkripsiyadan foydalanish zarurati va yangi transkripsiyaning istiqbollari to'g'risida so'z boradi.

Kalit so'zlar. Dialektologiya, turkologiya, sheva, milliy yozuv, transkripsiya, oppozitsiya.

В статье речь идет о новой узбекской транскрипции, разработанной автором, и внедрении ее в учебнике по узбекской диалектологии, а также о необходимости использования традиционной транскрипции в будущей новой транскрипции.

Ключевые слова. Диалектология, тюркология, диалект, национальная письменность, транскрипция, оппозиция.

In the article, it comes a new Uzbek transcription, developed by the author, and implementing it in the textbook of the Uzbek dialectology, as well as the need to use traditional transcription and the prospect of a new transcription.

Key words. Dialectology, turkology, dialect, national writing, transcription, the opposition.

Ma'lumki, xorijiy tillarning, til tarixi matnlarining talaffuz me'yorlarini belgilashda hamda jonli shevalarni o'rganishda transkripsiya muhim ahamiyatga ega ekanligi fanda e'tirof etib kelinmoqda. Ayniqsa, shevalarni transkripsiyasiz o'rganib bo'lmaydi va ayni zamonda o'qitish jarayonini ham amalga oshirish mumkin emas.

O'zbek milliy yozuvi lotin grafikasiga o'tkazilgach, o'zbek dialektologiyasini o'qitishda transkripsiya bilan bog'liq muammolar kelib chiqdi. Hozirgacha oliy ta'lim muassasalarida kirill yozuvi asosidagi transkripsiya o'rganilmoqdaki, ya'ni ta'lim tizimimiz to'lig'icha lotin grafikasiga o'tilgan hozirgi davrda o'zbek dialektologiyasi fanida kirill alifbosi negizida ishlab chiqilgan transkripsiyada o'qitishni davom ettirish bilan kelishib bo'lmas edi. Shu tufayli ham "O'zbek dialektologiyasi" bo'yicha yangi darslikda o'zbek shevalarini yozib olish va shevaning o'ziga xos xususiyatlarini talabalarga o'qitishda transkripsiya tizimining o'tmishi va kelajagi masalasi hal etildi¹.

Shuni ham aytish lozimki, mustaqillik davrida e'lon qilingan darsliklar kirill yozuvida yaratilgan va shu tufayli ham ularda kirill yozuvi asosida ishlab chiqilgan transkripsiyaga amal qilingan. Yangi darslikka qisman asos bo'lgan 2013-yilda nashr

¹ Ashirboyev S. O'zbek dialektologiyasi. – T.: Navro'z, 2016. 12-18-b.

qilingan metodik qo'llanmamizda hozirgi lotin yozuvida savod chiqargan talabalari-miz uchun osonlik tug'dirish uchun unli tovushlarni ifodalashda kirill yozuvi asosidagi transkripsion belgilarni saqlab qolgan holda, undoshlarni ifodalashda lotin harflarini qo'llagan edik², lekin u kutilgan natijani bermadi, ya'ni bu usul talabalarining ko'p o'rinlarda chalkashib ketishlariga sabab bo'ldi. Bu qiyinchilikdan chiqib ketish uchun dastlab hozirgi o'zbek tilida qo'llanayotgan lotin yozuvi tamoyillari asosidagi transkripsiya tizimini ishlab chiqib, ta'lim jarayoniga tatbiq etish g'oyasi paydo bo'ldi. Bu g'oya aslida amalda qo'llanib kelayotgan rus grafikasi asosidagi transkripsiyaning inkor etgan bo'lar edi, oqibat natijada, talabalarimiz va filologlarimizning hozirgi avlodi to lotin alifbosiga o'tilgunga qadar bo'lgan davrdagi o'zbek shevalari bo'yicha amalga oshirilgan tadqiqotlarni va shevalardan yozib olingan boy merosni o'qish va tahlil qilish imkoniyati qiyinlashib qolishi ma'lum bo'ldi. Aksincha, ayni zamonda o'zbek millati lotin yozuviga to'liq o'tgan davrda kirill yozuvidagi transkripsiyanigina davom ettirish hozirgi taraqqiyot darajamizga ham to'g'ri kelmas edi.

Bu kabi nozik nuqtalarni hisobga olgan holda, darslikda kirill yozuvidagi transkripsiyaning o'rganishni davom ettirish lozimligi e'tirof etildi, shuningdek, ta'lim jarayonini yangicha tashkil etish hamda kelgusidagi dialektologik tadqiqotlarga talabalarni tayyorlashga qaratilgan **yangi o'zbek transkripsiyasini** ishlab chiqish zaruriyati yuzaga keldi va yangi darslikda bu ish amalga oshirildi³. Bunda lotin alifbosi asosida ishlab chiqilgan va turkologiyada amalda bo'lgan transkripsiya tizimiga suyanish ma'qul ko'rildi. Turkologiyada qo'llanayotgan transkripsiyaning asos qilib olinishiga uning ham lotin yozuvi negizida ishlab chiqilganligi hamda bu transkripsiya orqali talabalarimiz va kelgusidagi kadrlarimizning turkiy dunyodagi filologik ilmiy egallash va undan foydalanish imkoniyatlarini shakllantirish e'tiborga olindi⁴ hamda kirill yozuvida va turkologiyada qo'llanadigan transkripsion belgilar (harflar) ekvivalentlash-tirildi.

Bu unlilar sistemasida shunday ko'rinish oldi:

e _ e, a _ a, o _ o, i _ i, u _ u, y _ y, o _ o, e _ e unlilari muvofiqligi o'rnatildi.

Ko'rinish turibdiki, **e _ e, a _ a** juftliklari har ikkala transkripsiya tizimida aynan, lekin Namangan shahar shevasi uchun xarakterli bo'lgan **ε** unlisiga turkologiyada qo'llanayotgan transkripsiya dan jufti topilmadi va u ekskluzivlikni saqlab qoldi. Bu belgidan turkologiyada ham foydalanilgan o'rinlar bor, kompyuter shriftlar bazasida ham bu harf mavjud.

Undoshlarda esa quyidagi muvofiqliklar o'rnatildi: **б _ b, в _ v, г _ g, д _ d, ж _ j, з _ z, й _ y, к _ k, л _ l, м _ m, н _ n, п _ p, о _ o, с _ s, т _ t, ф _ f** (bu harf bilan ifoda qilinadigan tovush mustaqil so'zlarda faqat Forish shevasidagina paxta ~ **фaxma** ~ **faxta** kabi so'zlarda qo'llanadi, lekin undovlarda (*uf, tuf* kabi so'zlarda) aksariyat o'zbek shevalarida bor), **х _ x, ч _ ch, ш _ sh, ц _ c, q _ q, g _ g, h _ h**. Bu oppozitsiyalarda (faqat **q _ h** undoshlari oppozitsiyani tashkil eta olmaydi) lotin alifbosidagi

² Ashirboyev S. O'zbek dialektologiyasi. – T.: TDPU, 2013. 7-12-b.

³ Qarang: Ashirboyev S. O'zbek milliy transkripsiyasini yaratishga doir // O'zbek tilshunosligining dolzarb masalalari. – T.: TDPU, 2013. 18-21-b.

⁴ Aniqrog'i bu transkripsiya "Древнетюркский словарь" asarida qo'llanilgan prinsiplarga asoslanadi. Qarang: Древнетюркский словарь. – Санкт-Петербург: Наука, 1969. – С. 12-14.

hozirgi o'zbek yozuviga muvofiq bo'lmagan o'rinlar ham mavjud. Ular quyidagilarda ko'rinadi: amaldagi **ch** o'rnida **č**, **g** o'rnida **γ**, **y** o'rnida **j**, **j** o'rnida **ž**, **ng** o'rnida **ŋ**, **sh** o'rnida **š** harflari qo'llandi, bu harflar turkologiyada ommalashib ketgan⁵. Qolaversa, transkripsiyaning o'ziga xos tamoyillaridan biri uning har bir nutq tovushi uchun bir harf (belgi) qabul qilinishidir. Demak, taklif qilingan transkripsion belgilar transkripsiya nazariyasiga ko'p jihatdan mos keladi. Ma'ruza jarayonida talabalarga yuqoridagi juftliklarni tushuntirishda ularning oppozitsiyasini ko'rsatuvchi jadvallardan foydalanish ham mumkin.

Yangi o'zbek transkripsiyasiga o'tish va an'anaviy transkripsiyani ham saqlab qolish, so'zsiz, talabalarga ham, ba'zan, o'qituvchilarga ham muayyan qiyinchiliklarni tug'diradi. Bu oldindan ma'lum, lekin bu qiyinchilikdan chiqib ketish uchun fan o'qituvchisi ijodiy izlanishga to'g'ri keladi, ya'ni har ikkala transkripsiyani qiyosiy o'rgatish ko'nikmasini hosil qilish metodikalarini ishlab chiqish hamda uni butun dialektologiya ta'limi jarayonida astoydil diqqat markazida tutish lozim bo'ladi. Bu tamoyil, albatta, til tarixi fanlarida ham saqlanishi maqsadga muvofiqdir.

Shu o'rinda yana bir muammoni tilga olib o'tish muhim, u ham bo'lsa, lotin yozuvida e'lon qilingan o'zbek tili tarixi va tarixiy grammatikasiga oid darslik va qo'llanmalarda turkologik ma'lumotlardan foydalanilgan o'rinlarda asliyatdagi transkripsiya ko'p hollarda buzilmoqda, ya'ni turkiy matnlar, so'zlar ba'zan turkologiyadagi transkripsion belgilar asosida, ayrim o'rinlarda undan chekingan transkripsiyalarda berilmoqdaki, bu holat ham talabalar va ilmiy xodimlarni chalkashtirishga olib kelmogda. Shu munosabat bilan, bizning nazarimizda, barcha o'quv va tadqiqot ishlarida turkologiyaning asliyatidagi transkripsiyasini qo'llash bo'yicha til tarixchilari va dialektologlarning umumiy kelishuvga erishishlari zarur bo'lib turganligini ham ta'kidlash lozim.

Darslikda talabalarni har ikkala transkripsiyani o'rganishlarini ta'minlashda o'ziga xos yo'l tutildi. Shu ma'noda darslikning nazariy qismida barcha misollar 3 variantda yozildi, ya'ni so'z va grammatik ko'rsatkichning adabiy tildagi (lotin yozuvida) yozuvda, kirill asosidagi transkripsiyasida va yangi o'zbek transkripsiyasida berib borildi. Bu shunday ko'rinishda berildi: yurak **ўўрək/джүрək** *jüräk/žüräk*, bu trioda birinchi so'z (yurak) adabiy tilda yozilishini ko'rsatadi, ikkinchisi (**ўўрək/джүрək**) so'zning kirill alifbosidagi transkripsiyasini va uchinchisi (*jüräk/žüräk*) yangi o'zbek transkripsiyasidagi yozilishini bildiradi. Shuningdek, har ikkala transkripsiyaning o'rganilishi va o'qilishi ko'nikmasini hosil qilish uchun ayni bir matn ikkala transkripsiyada yozib ko'rsatildi. Ulardan ba'zi namunalar keltirmiz (Toshkent shevasi):

An'anadagi transkripsiya: ...Пəшшəнъ бу гəпъ ел-йурттъ джə қъйнəп қойъптъ. Пəшшəдəн безəр боптъ хəлэйтъқ. Бър кəммəгəл шэйтър бэрəkəн. У пəшшəнъ элдэгə бəрəптъ. Пəшшə ундəн, хъ гəдэйт, нəгə келдэң, дьп сорəптъ. Кəммəгəл шэйтър эдəмлə тəртъвəткəн қъйтънчълъйлə:нъ, тəммə-тəм олу:(в)нъ котəрп мэзəргə эбръш эзəплəрънъ шъгър қъп, пəшшəгə оқъверьптъ-дэ, сəнгə мунъ нъмэ пэйдəсь вэ, дьптъ.

Yangi o'zbek transkripsiyasi: ...Pəššəni bu gəpi el-jurtti žə qijnəp qojipti. Pəššədən bezār bopti xəlājiq. Bir kəmməyāl šājir bārəkən. U pəššəni āldigā bāripti.

⁵ Uning ayrimlarida o'zbek tili tarixida ham qo'llangan. Qarang: Rahmonov N., Sodiqov Q. O'zbek tili tarixi. – T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2009. 59-b.

Pāššā undān, hi gādāj, nāgā keldiŋ, dip sorāpti. Kāmmāyāl šājir ādāmlā tārtivātkān qijinčilijlā:ni, tāmā-tām olu(v)ni kotārip māzārgā ābāriš āzāplārini šiyir qip, pāššāgā oqiveripti-de, sāngā muni nime pājdāsi vā, dipti.

Bunda quyidagi didaktik maqsadlar amalga oshiriladi:

- soʻzning anʼanadagi transkripsiyasi oʻrganiladi;
- yangi oʻzbek transkripsiyasi oʻzlashtiriladi;
- har ikki transkripsiyani qiyoslash asosida uni xotirada saqlashga sharoit yaratiladi.

Demak, amaldagi transkripsion tizimni oʻrganish talabalarimizga shevalarimiz boʻyicha toʻplangan boy milliy merosimizni oʻrganish uchun xizmat qilsa, yangi oʻzbek transkripsiyasi talabalarimizga shevalarimizni dunyoga tanitish, ayni zamonda turkologiya ilmidagi yangiliklardan bahramand boʻlish va ularni oʻzbek tilshunosligiga olib kirish uchun kalit vazifasini oʻtashi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ashirboyev S. *Oʻzbek dialektologiyasi*. – T.: Navroʻz, 2016. 12-18-b.
2. Ashirboyev S. *Oʻzbek dialektologiyasi*. – T.: TDPU, 2013. 7-12-b.
3. Ashirboyev S. *Oʻzbek milliy transkripsiyasini yaratishga doir // Oʻzbek tilshunosligining dolzarb masalalari*. – T.: TDPU, 2013. 18-21-b.
4. Rahmonov N., Sodiqov Q. *Oʻzbek tili tarixi*. – T.: Oʻzbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2009. 59-b.
5. *Древнетюркский словарь*. – Санкт-Петербург: Наука, 1969. – С. 12-14.

G'ayratjon TAJIBAYEV,

Namangan Davlat universiteti katta ilmiy xodim-izlanuvchisi

BOSHLANG'ICH SINFLARDA CHET TILI FANIDAN LEKSIK MATERIALLARNI O'QITISHNING AHAMIYATI

Annotatsiya

Maqolada lingvistik tadqiqotlar natijalarini boshlang'ich sinf o'quvchilariga ingliz tili o'qitish jarayoniga tatbiq etish va leksik birliklarni tanlash me'zonlarini chet tili o'qitish metodikasining rivojlanishidagi ahamiyatini aniqlash maqsadi ochib berilgan. Shuningdek, maqolada tayyor gaplarni til o'zlashtirishdagi muhim roli yoritilgan.

Kalit so'zlar. Leksik birliklarni tanlash, tayyor gaplar, yarim tayyor gaplar, tanlash me'yorlari, foydalilik, keng tarqalganlik.

Статья посвящена внедрению результатов лингвистических исследований в процесс обучения иностранному языку учащихся начальных классов, а также вопросам отбора лексических единиц в методике обучения иностранному языку. Также раскрывается роль использования образцов различных конструкций лексических выражений в развитии речи учащихся.

Ключевые слова. Отбор лексических единиц, законченные выражения, незаконченные выражения, критерии отбора, полезность, распространенность, частотность.

The article is devoted to the implementation of the results of linguistic research into the educational process of learning of foreign language of pupils of primary schools in the Republic of Uzbekistan, as well as criteria for the selection of lexical units in foreign language teaching methodology. Also disclosed is the use of role models of different designs of lexical expressions in the development of speech of pupils.

Key words. Selection of lexical units, complete expression, incomplete expressions, criteria of selection, usefulness of prevalence, frequency.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish – eng oily saodatdir" kitobida yosh avlodga chet tillarni o'rgatishga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilayotganligi haqida quyidagi fikr bayon qilingan: "Biz farzandlarimizga chet tillarni o'rgatishni takomillashtirish bo'yicha qamrovi va mazmun-mohiyati bo'yicha katta ishlarni boshladik. Jumladan, 2012-yilda shu borada maxsus qaror qabul qildik. Shu qisqa davrda bu ishlarimiz o'zining ijobiy natijalarini bermoqda. Boshlagan ishlarimizni izchil davom ettirsak, nasib etsa, bu borada ham "portlash effekti"ga erishamiz".

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 8-maydagi 124-sonli qarori bilan "Uzluksiz ta'lim tizimining chet tillar bo'yicha Davlat ta'lim standartlari" tasdiqlandi. Mazkur hujjatda boshlang'ich sinf (4-sinf) bitiruvchilari chet tillarni o'rganish-

ning boshlang'ich, ya'ni umumiyevropa xalqaro standarti A1 darajasida bilim, malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishlari lozimligi belgilangan. Chet tillar bo'yicha A1 daraja bitiruvchilari tayyorgarligiga leksik kompetensiya bo'yicha quyidagi talablar ishlab chiqilgan:

- o'zlashtirilgan leksik vositalarni kontekst(matn)da qo'llay oladi;
- mavzuga oid sodda so'zlarni kommunikativ vaziyatlarda qo'llay oladi;
- ba'zi baynalmilal so'zlar va turdosh so'zlarni farqlay oladi hamda ularni qo'llay oladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ushbu darajadagi bilim, malaka va ko'nikmalarni egallashlarini ta'minlashi o'quv dasturida belgilangan miqdordagi (500 ta) leksik birliklarni tanlab olish manbasiga bog'liq. Ya'ni leksik birliklarning ratsional shakllantirilishi ta'lim sifatini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Quyidagi boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun leksik birliklar tarkibini shakllantirish manbalari borasidagi taklif va tavsiyalarni berib o'tgan.


1. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun shakllantiriladigan leksik minimum tarkibida fe'l va ot mustaqil so'z turkumiga mansub so'zlar miqdori teng bo'lishi lozim.

Tadqiqotlardan ma'lumki, boshlang'ich sinf o'quvchilari chet tilni o'zlashtirishda ona tilini o'zlashtirish jarayonini takrorlashadi. Bolaga qaratilgan nutq "olib kel", "derazani yop", "salomlash", "qo'lingni yuv" tarzidagi buyruq gaplardan iborat bo'ladi. Shunday ekan, fe'lni, asosan, buyruq gaplar tarkibidagi fe'lni tildan foydalanish va o'rganishning asosiy lingvistik motivi deb qarash lozim. Ya'ni tildan foydalanish va uni o'rganish (asosan buyruq gaplar tarkibidagi fe'l) atrofida sodir bo'ladi. O'zbek tili gap tuzilishida fe'l bilan ifodalangan kesim odatda gap oxirida, ya'ni ikkinchi darajali gap bo'laklaridan keyin keladi. Lekin ingliz tilida gap tuzilishi tubdan farq qiladi va fe'l ma'no anglatuvchi asosiy leksik birlik sifatida gap boshida keladi va u nutq vaziyatlarida keng tarqalganlik jihatdan otlardan ustunlikka ega (masalan, Open the door / window / book ...). Bundan tashqari jonli muloqot ishtirokchilari tomonidan tuziladigan savol va javob replikalarida fe'llarning ishtiroki ko'proq kuzatiladi. Xulosa qiladigan bo'lsak, jonli muloqotda takrorlanish chastotasi eng yuqori bo'lgan leksik birliklar fe'l mustaqil so'z turkumiga oid bo'lib, ularni ko'proq o'zlashtirilishi o'quvchining kommunikativ layoqatini rivojlantirish uchun foydalidir. Lekin tadqiqotga tortilgan "Kids' English Class one (3)" darsligida bu me'yorga amal qilinmaganligini kuzatish mumkin. Darslikka ot so'z turkumiga mansub 110 ta so'z kiritilgan, biroq fe'l so'z turkumiga mansub so'zlar miqdori juda kam, ya'ni atigi 29 tani tashkil etadi.

2. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun leksikani tanlash manbayi o'rganilayotgan til sohiblari tomonidan jonli muloqotda ko'p ishlatiladigan tayyor (fixed expressions) va yarim tayyor (semi-fixed expressions) gaplar bo'lishi lozim.

Leksikaning metodik tasnifi ilmiy manbalarda bir tekis ta'riflanmagan. Birmuncha chalkash va ziddiyatlarga mo'l metodik tadqiqotlar ham yo'q emas. Binobarin, aniq bir chet tilni o'rgatish uchun tayyorlanadigan til materiali tasnifi, jumladan, leksikaning tasnifi, odatda, darslik mualliflari vakolatiga havola etiladi. Ko'pincha o'qituvchilar ba'zi o'quvchilarning grammatika, leksika va talaffuzga oid yetarli bilimga ega bo'lib ham jonli muloqotda javob bermasliklaridan shikoyat qilishadi. Buning sababi esa, o'quvchilarning jonli muloqotda keng ishlatiladigan va odatda bo'laklarga bo'linmasdan butun gap holicha yodlab olinishi zarur bo'lgan nutqiy ifodalar repertuariga ega emasligida. Yoki ularga taqdim etilgan leksikaga oid til materiali adekvat va autent (jonli muloqot uchun foydali) shakllantirilmagan. Fikrimizni Mark Korpovskining⁶ tadqiqot natijalariga tayanib asoslashimiz mumkin. Muallif "New Headway Upper-Intermediate" (Soars and Soars 1998), "Innovations" (Dellar and Hocking 2000) va "Inside Out Intermediate" (Kay and Jones 2000) o'quv qo'llanmalarida taqdim etilgan leksik birliklar tarkibini tanqidiy tahlil

qilib chiqqan va leksik birliklarni tanlash me'zonlariga to'liq amal qilingan "Inside out" darsligini chet tilni o'zlashtirilishida eng samarali vosita sifatida baholagan. "Inside out" darsligiga kiritilgan leklik minimum tarkibi quyidagicha:



1. *Collocations* – 57 %
2. *Fixed expressions* – 14%
3. *Phrasal verbs* – 13%
4. *Idioms* – 6%
5. *Semi-fixed expressions* – 5%
6. *Compounds* – 5%

Sollocations – *'make money', 'have a shower', 'get into trouble'*

Fixed expressions – *Excuse me. Anybody home? Help yourself.*

Phrasal verbs – *try on, look after, take off*

Idioms – *an apple of one's eyes, bark on the wrong tree*

Semi-fixed expressions – *'Could you pass the please?'*

'Would you mind?'

Compounds – *'bodyguard', 'floppy disk', 'shopping mall', 'phone box'*

"Inside out" darsligiga kiritilgan leksik minimumning 57 foizini "collocations" (so'z birliklari) va 14 foizini "fixed expressions" (turg'un ifodalardan) tashkil topganligi bugungi kunda so'zlarni alohida emas, balki ma'no ifodalovchi jumla, ibora va gap tarkibida o'zlashtirilishiga ko'proq urg'u berilayotganligini anglatadi. Xorijiy adabiyotlarda "formulaic expressions" (Fillmore 1979), "fixed expressions" (Mark Koprowski 2005) "lexical chunks" (Lewis 1993), "prefabricated patterns" (Hakuta 1976), "lexicalized stems" (Pawley & Syder 1983), "speech formulae" (Peters 1983), "lexical phrases" (Nattinger & DeCarrico 1992), "ready made (complex) units" (Cowie 1992), lexical chunks (Wrey 2000) kabi atamalar uchratish mumkin. Umuman olganda yuqoridagi atamalar:

a) funksional vazifalarni bajaruvchi sintaktik qurilma;

b) turli nutq vaziyatlari va kontekstlarda turli ma'noni ifodalovchi (diskurs) bir yoki bir necha so'zlar ketma-ketligi yoki yig'indisi;

d) tilning grammatik qoidalari asosida tahlil etilmaydigan va odatda yaxlit, ya'ni bir butun leksik qurilma sifatida uzoq muddatli xotirada saqlanishi lozim bo'lgan ma'no ifodalovchi birliklarni anglatadi.

O'zbek tili leksikasida ham luqma, replika, klishe, namunaviy nutq birligi, tayyor jumla kabi atamalar mavjud. Ayniqsa, tele va radio jurnalistikada bunday (dejurniy) navbatchi gaplarning boy repertuari suxandonlar nutqini ravonlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Boshlang'ich sinfda og'zaki ilgarilash tamoyili ustunlik qiladi va asosiy e'tibor o'quvchilarning dastlabki muloqot ko'nikmalarini shakllantirishga qaratiladi. Tajribadan ma'lumki, kichik yoshdagi chet til o'rganuvchilar yakka holdagi so'zlardan ko'ra ma'noli tushunchalarni ifodalovchi jumla va gaplarni yaxshiroq eslab qoladilar va xotirada saqlaydilar. Buning sababini psixologlar bolalarning til qonuniyatlarini bilmasligi va gaplarni ijodiy to'ldirish uchun yetarli leksik zaxiraga ega emasliklarida, deb izohlaydilar. Insonning xotira tizimi faoliyati bilan tanishib chiqilganida mutaxassislar uzoq muddatli xotira tizimining sig'imi qisqa muddatli xotira sig'imidan ancha katta ekanligini aniqlashgan. Ma'lumki, leksik birliklar qisqa muddatli xotirada saqlanadi va ularni doimiy takrorlab turishga to'g'ri keladi. Jonli muloqotda ishlatiladigan ma'no ifodalovchi tushunchalar esa

uzoq muddatli xotirada saqlanadi. Tildan foydalanishda uzoq muddatli xotira faoliyatiga tayaniladi va avvaldan tayyor gaplarni xotiradan chiqarib olish spontan nutq hosil qilish imkonini beradi. Shunday qilib o'quvchiga avval g'isht yasab, keyin ulardan uy qurishni emas, balki foydalanishga tayyor g'ishtlarni berib, uy qurishni o'rgatish ta'lim sifati va samaradorligini oshiradi, ayniqsa, chet tilda mahalliy so'zlashuvchilar kabi ravon muloqot qilish layoqati (native-like fluency)ga erishiladi degan xulosaga kelish mumkin. Ma'lumki, jonli muloqotda 8-10 ta so'zdan iborat gap tuzish miyada murakkab amallarni bajarilishini talab etadi. Lekin o'rganilayotgan chet til sohiblari esa bunday mashaqqat yukini his qilishmaydi. Nima uchun? Buning sababi, o'rganilayotgan chet tildan mahalliy foydalanuvchilar har safar yangi gap tuzmaydilar va xotiradagi tayyor gaplardan foydalanishadi. Masalan, Spears va mualliflar jamoasi tomonidan nashrga tayyorlangan "Dictionary of Everyday American English Expressions" lug'atiga ingliz tilida mahalliy so'zlashuvchilar tomonidan keng foydalaniladigan 7000 ta tayyor va yarim tayyor gap namunalari kiritilgan. Tadqiqotimiz obyekti sifatida tanlangan darslikda ham 31 ta tayyor va 12 ta yarim tayyor nutq namunalari taqdim etilgan. Nazarimizda nutq namunalari miqdori jihatidan ko'proq bo'lishi maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Quyida boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun leksik minimumni ushbu manba asosida shakllantirish, ya'ni tanlash me'zonlari haqida to'xtalib o'tamiz.

Tanlash me'zonlari deganda, leksikaning qiymatini aniqlashda qo'llanadigan o'lchov va ko'rsatkichlar tushuniladi. Uch toifa me'zonlar bir-biri bilan bog'langan holda qo'llanadi: hisob-kitob me'zonlari, metodik va tilshunoslik me'zonlari. Hisob-kitob me'zonlari so'zlarning qo'llanishga oid odilona ko'rsatkichlarga erishish vositasi bo'lib, ular tarkibiga ko'p tarqalganlik va keng tarqalganlik me'zonlari kiradi. Xorijiy adabiyotlarda jonli muloqotda takrorlanish chastotasining yuqorilik me'zoni (frequency of occurrence Leech et al. 2001; Nation 2001), ya'ni ko'p tarqalganlik asosiy indikator hisoblanadi. So'nggi tadqiqotlar natijasiga ko'ra yuqori takrorlanish chastotasi me'zoni asosida og'zaki diskursda 6000 – 7000 ta, yozma diskursda 8000 – 9000 ta nutq namunalari tanlab olingan. Ulardan 2000 tasi til o'rganuvchilar uchun eng foydali deb topilgan. "Okay", "zowie", "good-bye", "yes", "no", "well" kabi nutq namunalari ushbu ro'yxatni boshlab berishadi. Leksik minimumni shakllantirishga bunday yondashuv xorijlik mutaxassislar tomonidan "frequency-based approach" yoki "phraseological approach" deb nomlanadi (Nesselhauf - 2005). Ushbu nutq namunalari 1-14 tagacha so'zlardan iborat va boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun ko'pi bilan 4 ta so'zdan iborat bo'lganlarini tanlab olinishi tavsiya etiladi, ayrimlarini qisqartirish ham mumkin. (Masalan, I am sorry = Sorry! I beg your pardon. = Pardon me! Pardon! May I come in? = May I?). Shunday qilib jonli muloqotda takrorlanish chastotasining yuqoriligini asosiy tanlash me'zoni deb hisoblash mumkin. Lekin bu me'zon asosida tanlab olinadigan nutq namunalari o'z navbatida eslab qolish va xotirada saqlash uchun oson bo'lishi kerak. Uzun gaplarni, ya'ni 5 tadan ortiq so'zlardan iborat bo'lgan nutq namunalari eslab qolish va ularni xotirada saqlash boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun qiyinchilik tug'diradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari ohangdor, oson talaffuz qilinadigan va qofiyali nutq namunalari yaxshiroq eslab qolishadi va uzoq muddat xotirada saqlashadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari talaffuzi o'xshash tovushlarni yaxshi farqlay olmasliklarini ham hisobga olish lozim.

Leksikani metodik tayyorlashda keng tarqalganlik me'zoni ham ustuvor ahamiyatga ega. Sababi, ayrim namuna gaplar yuqori takrorlanish chastotasiga ega bo'lmasa ham jonli muloqotda keng foydalanish doirasiga ega. Boshlang'ich sinf o'quvchilari tanlangan "o'quvchi va uni o'rab turgan atrof-muhit" nutq mavzulari doirasida qisqa gaplarni tuza olishi va salomlashish, xayrlashish, tanishish, uzr so'rash, taklif qilish, ma'qullash, ruxsat so'rash, iltimos bilan murojaat qilish, tug'ilgan kunda tabriklash kabi nutq vaziyatlari-

da xushmuomalalik iboralarini qo'llay olishi lozim. Demak, boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun tayyorlanadigan leksika yuqoridagi nutq mavzularida keng doirada qo'llanilishi lozim. Quyidagi boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun taqdim etish mumkin bo'lgan shunday qolip namunalardan misollar keltirildi:

Salomlashish: *Hi! Hello! Hi there. Hi what's up? Hey what's up.*

Hayrlashish: *Bye. Bye-bye. See you. Have a nice day (voyage, travel).*

Uzr so'rash: *Sorry. Pardon.*

Minnatdorchilik bildirish: *Thanks! Thanks a lot! Many thanks!*

Tabriklash: *Congratulations! Happy birthday (New year)!*

Taklif qilish: *Please, you can Do take some. Help yourself!*

Sinf mashg'ulotlarida yuqoridagi misollarning qisqa shakllaridan foydalanib, mikro suhbatlar tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

A: Ready?

B: No.

A: Why?

B: Problems.

A: Problems?

B: Yes.

A: What?

B: My pen.

A: Single?

B: Double.

A: Double?

B: Yes?

A: Cone?

B: Cup.

A: Good?

B: Nice.

A: More?

B: Please.

A: Help yourself.

B: Thanks!

A: Anybody home?

B: Oh, come in.

A: How are you?

B: Nice to see you!

A: Congratulations!

B: Thanks a lot.

A: It is my pleasure.

B: Feel your self home.

Shunday qilib boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun leksikani metodik tayyorlashda jonli muloqotda o'rganilayotgan til sohiblari tomonidan ko'p va keng foydalaniladigan, chegaralangan miqdordagi so'zlardan iborat va talaffuz jihatdan murakkab bo'lmagan qolip namuna (J.Jalolov atamasi)lar manbasidan oqilona foydalanish kerak, degan xulosa qilindi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. *Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish – eng oily saodatdir.* – T.: O'zbekiston, 2015. 253-254-b.
2. *O'zbekiston Respublikasi uzliksiz ta'lim tizimining chet tillar bo'yicha Davlat ta'lim standartlari.* – Xalq ta'limi ilmiy-metodik jurnal. 4-son / 2013. 10-b.
3. Irisqulov A.T., va mualliflar jamoasi. *Kids' English Class 1.* – T.: O'zbekiston, 2013.
4. Jalolov J.J. *Chet til o'qitish metodikasi.* – T.: O'qituvchi, 2012. 246-b.
5. Richards J.C., Rodgers Th.S. *Approaches and Methods in Language Teaching.* - New York.: Cambridge University Press, 2001.
6. Mark Koprowski. *Investigating the usefulness of lexical phrases in contemporary coursebooks.* - ELT Journal Volume 59/4 October 2005; Oxford University Press; 322 – 332
6. LIU Wei, HUO Ying. *On the Role of Formulaic Sequences in Second Language Acquisition.* - China. China Foreign Language, 2011, Vol. 9, No. 11, 708-713
7. Spears. R., B. Birner, and S. Kleinedler. *NTC's Dictionary of Everyday American English Expressions.* – Lincolnwood. IL.: NTC Publishing Group, 1994."
8. Ron Martines and Norbert Schmitt. *A phrasal expression list.* - Applied Linguistics.: Oxford University Press, 2012.
9. Cook. G. *"The uses of reality: a reply to Ronald Carter."* - ELT Journal 52(1), 1998. 57-63.

Maxsuda ISROILOVA,

Toshkent Davlat Stomatologiya instituti katta o'qituvchisi

DARSDAN TASHQARI MASHG'ULOTLAR JARAYONIDA TALABALARNI INTELLEKTUAL- MADANIY RIVOJLANTIRISH SHAKLLARI

Annotatsiya

Maqolada darsdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida tibbiyot oliy ta'lim muassasasi talabalarini intellektual-madaniy rivojlantirishning samarali shakl, metod va vositalar tizimi yoritilgan. Shuningdek, bu jarayonda turli didaktik o'yinlardan foydalanish vositasida talabalarning mustaqil aqliy faoliyatlarini rivojlantirish hamda tashkiliy-pedagogik xususiyatlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar. Intellekt, madaniyat, rivojlanish, intellektual-madaniy, mamlakatshunoslik, lingvistika, shakl, metod, vosita, intellektual o'yinlar.

В статье освещена система эффективных форм, методов и средств интеллектуально-культурного развития студентов высших медицинских учебных заведений в процессе внеаудиторных занятий. В частности, раскрывается содержание и организационно-педагогические особенности организации самостоятельной интеллектуальной деятельности в процессе использования различных дидактических игр.

Ключевые слова. Интеллект, культура, развитие, интеллектуально-культурный, страноведение, лингвистика, метод, средства, интеллектуальные игры.

Article describes the system of effective forms, methods and means of intellectual and cultural development of students in higher medical educational institutions in the extracurricular studies. In particular, there disclosed content and organizational-pedagogical features of the organization of independent intellectual activity in the process of using of various didactic games.

Key words. Intelligence, culture, development, intellectual and cultural, latin, country study, linguistics, methods, tools, intellectual games.

Zamonaviy axborotlashgan jamiyat sharoitida yuksak intellektual-madaniy salohiyatli kadrlarga bo'lgan ehtiyoj yuqori bo'ladi. Chunki axborotlashgan jamiyatda intellekt va yuksak bilimga ega bo'lish milliy boylik sanalsa, hayotiy faoliyat jarayonida esa, jamiyat a'zolaridan yuqori intellektual salohiyatga va ijodiy faollikka ega bo'lishni talab etadi. Prezidentimizning "Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti" mavzusidagi xalqaro konferensiyaning ochilish marosimida so'zlagan nutqida: "Bugungi kunda umumiy e'tirofga ko'ra, XXI asr globallashuv va chegaralarning barham topish davri, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va internet asri, jahon maydonida va dunyo bozorida tobora kuchayib borayotgan raqobat asriga aylanib borayotganini isbotlab berishga hojat yo'q, albatta. Bunday sharoitda inson kapitaliga yo'naltirilayotgan investitsiya va qo'yilmalarning o'sishini, hozirgi zamonda demokratik taraqqiyot, modernizatsiya va yangilash borasida belgilangan maqsadlarga erishishda eng muhim qadriyat va hal

qiluvchi kuch bo'lgan bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash vazifasini doimo o'zining asosiy ustuvor yo'nalishlari qatoriga qo'yadigan davlatgina o'zini namoyon eta olish mumkin" ligi alohida qayd etib o'tilgan.

Madaniyat va uning tarkibiy qismi sifatida ta'limga bo'lgan e'tiborning tobora ortib borishiga jahon miqyosida kuzatilayotgan bir qator omillar sabab bo'lmoqda. Xususan:

- yuqori rivojlanish sur'atiga ega, o'zgaruvchan, ko'p funksiyali, zamonaviy sharoitda ijtimoiy makonda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun ta'lim sohasi mutaxassislarining madaniyati darajasiga qo'yiladigan talablarning o'sishi;

- jamiyat hayotining barcha sohalaridagi taraqqiyot uchun kasbiy va kommunikativ jarayonlarning ma'naviy-madaniy asoslariga doir ahamiyatlilikning kuchayishi;

- madaniy hamda badiiy voqelikning haddan tashqari ko'p va xilma-xil, ayni vaqtda uzluksiz axborot oqimi bilan uzviylikda rivojlanib kelayotgani, yoshlarning madaniy talab-ehtiyojlari oshib borayotgan bir sharoitda qaror topayotgani, ularning o'ziga xosligi va ko'p qirraliligi;

- yoshlarga axloqiy va estetik madaniyatning yuksak namunalarini o'rgatish jarayonining samarador emasligi, jamiyatning yuksak madaniy qadriyatlari, mutaxassis-pedagog va shaxs sifatida mukammallikka intilish haqidagi tasavvurlar, qarashlarning barqaror emasligi;

- bunday sharoitda o'sib kelayotgan yosh avlodning madaniy ta'lim-tarbiyasi jarayonini yo'lga qo'yish, boshqarish, qo'llab-quvvatlash zaruriyati (2, 3–4) mavjudligi kabi omillar ta'lim oluvchilarni intellektual-madaniy rivojlantirish muhim ahamiyatga molikligini anglatadi.

Ijtimoiy soha rivojida esa, tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida tayyorlanayotgan kadrlarning ham alohida o'rni mavjud. Shu sababli tibbiyot oliy ta'lim muassasasi bitiruvchilariga qo'yilayotgan zamonaviy talablardan biri – ularni tibbiyot fani uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan lotin tilini o'rganish, antik, o'rta asr va jahon madaniyati durdonalaridan bahramand bo'lish orqali madaniy-intellektual rivojlantirishdir. Lotin tilining katta madaniy, tarixiy, lingvistik va rivojlantiruvchi salohiyatga egaligi tibbiyot oliy ta'lim muassasasi talabalarini madaniy-intellektual rivojlantirishning samarali vositasi sifatida foydalanish imkoniyatini beradi. Mazkur jihatning dolzarbligini quyidagi omillar bilan izohlash mumkin:

- tibbiyot xodimi kasbining insonparvarlik va etnik mohiyati bo'lajak mutaxassislarda yuksak bilimga ega bo'lish bilan birga, ularni intellektual va madaniy jihatdan rivojlanishlariga yordam berish;

- Internet orqali olinayotgan axborotlarning to'liq, tizimli emasligi bo'lajak mutaxassislarning keng bilim doirasiga ega bo'lishlari, o'tmish va bugungi kundagi global madaniy-tarixiy jarayonlarni tushunish uchun fundamental ahamiyatga ega bo'lgan gnoseologik va madaniy manbalarga alohida e'tibor qaratilishi;

- ta'lim va sog'liqni saqlash sohasida xalqaro aloqalarning faol yo'lga qo'yilishi roman-german guruhga kiruvchi tillarni o'rganishga e'tiborning kuchayishi;

- tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida o'qitilayotgan lotin tilining madaniy-intellektual rivojlantirish salohiyatini ko'rsatib berishga imkon beruvchi amaliy-texnologik jihatlarini ishlab chiqish ehtiyoji.

Tibbiyot oliy ta'lim muassasasi talabalarini intellektual-madaniy rivojlanishida auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar muhim o'rin tutadi. Tadqiqotlar jarayonida auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar jarayonida, ayniqsa, intellektual o'yin, o'quv loyihasi va mustaqil ishlr yuqori samaradorlikka ega ekanligi haqidagi xulosaga kelindi.

I. Intellektual o'yinlar. Tibbiyot oliy ta'lim muassasasi talabalarini madaniy va kognitiv-ijodiy rivojlantirish jarayonida, intellektual o'yinlar katta imkoniyatlarga ega. Ular o'qitish metodlarini tanlashga qo'yiladigan zamonaviy talablarga, jumladan, talabalarining

o'quv-bilish faoliyatini jadallashtirish uchun xizmat qiladi. O'qitish jarayonida ta'lim oluvchilarning fikrlash va amaliy faoliyati o'rganilayotgan materialni o'zlashtirish samaradorligini oshirishning muhim omili hisoblanadi.

Intellectual o'yin – aniq belgilangan vaqt va raqobatlashuv sharoitida samarali fikrlashni tatbiq etishni talab etuvchi topshiriqlarni yakka va jamoaviy tartibda bajarishga yo'naltirilgan o'qitish metodi. Intellectual o'yinlar talabalarda o'rganilayotgan voqelikka doir tushunchalarni tarkib toptirish, asosiy fikrlash operatsiyalari (tasniflash, tahlil etish, umumlashtirish)ni bajarishni talab etgan holda nazariy fikrlashni rivojlantiradi.

Intellectual o'yinlarni o'tkazishda quyidagi tamoyillarga rioya qilish talab etiladi:

- talabaning o'quv-bilish imkoniyati va ma'lum darajadagi murakkablikni moslashtirish – topshiriqlarni bosqichma-bosqich qiyinlashtirib borish;
- o'yin mazmuniga talabalarning analitik faoliyatini rivojlantirishga yo'naltiruvchi qiyoslash, taqqoslash, umumlashtirish operatsiyalarini singdirish;
- egallangan bilimlarni yangi vaziyatlarda qo'llay olish imkoniyatini hosil qilish;
- topshiriqlarni talabalarning qiziqishlari va shaxsiy tajribalari bilan bog'liqligini ta'minlash.

Tadqiqotlar jarayoni talabalarni intellektual-madaniy rivojlantirishda mamlakatshunoslik va o'quv-bilish faoliyatini rivojlantiruvchi intellektual o'yinlardan foydalanish zaruratini yuzaga keltiradi. Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida lotin tilini o'rganishga doir to'garak mashg'ulotlari jarayonida "Gap bo'laklari", "Gapni davom ettiring", "Surat ustida ishlash", "Jumla qayerdan olingan?", "Turli tillarda gaplashamiz" kabi intellektual o'yinlarni tashkil etish lozimligi haqidagi xulosaga kelindi. Masalan, "Lotin tili" fanining "Mamlakatshunoslik" bo'limini o'rganishga doir talabalarning mustaqil ijodiy faoliyatini tashkil etishda "Surat ustida ishlash" o'yinidan quyidagi tarzda foydalaniladi: ishtirokchilar ikki guruhga bo'linishadi va suratda aks etgan voqelik asosida hikoya tuzish topshirig'ini olishadi. Mazkur jarayonda qadimgi dunyo kishilarining turmush tarzi va madaniyati bilan bog'liq rasmlardan foydalanish mumkin. Hikoya tuzush jarayonida bir guruh boshqasiga taklif etgan so'zlardan foydalanish talab etiladi. Bir guruh ot so'z turkumiga kiruvchi, boshqa guruh sifat so'z turkumiga kiruvchi so'zlarni taqdim etishi mumkin. O'yin jarayonida talabalarning mantiqiy fikrlashi va nutqi rivojlantiriladi.

II. O'quv loyihasi. O'quv loyihasi – bu qo'yilgan vazifaga erishish, ta'lim oluvchilar uchun muhim va aniq foydalanuvchiga mo'ljallangan biror-bir yakuniy mahsulot ko'rinishida rasmiylashtirilgan, muammoni yechish uchun ta'lim oluvchilarning belgilangan izchillikdagi harakatlari majmuasi.

O'quv loyihaviy faoliyat uch bosqichda amalga oshiriladi:

1. Tayyorgarlik bosqichi. Mazkur bosqich auditoriyada amalga oshirilib, ikkita fazani o'z ichiga oladi: loyihaga kirishish hamda loyiha faoliyatini tashkil etish va rejalashtirish. Loyihaga kirishish bosqichida talabalar:

- vaziyatga moslashish;
- muammoni o'zlashtirish (muammoni tushunish va amaliy faoliyatning muayyan sohasi uchun uning yechimi dolzarb va muhimligini anglash);
- loyihaning maqsadi, muammoni hal etish masalalarini qabul qilish, aniqlashtirish va muayyanlashtirish;
- loyihaning natijasi (mahsuloti) va uni taqdim etish shakllarini anglash, loyihaning boshqa ishtirokchilari va o'qituvchi bilan muloqotning xarakterini belgilab olishadi. Loyihani bajarishni rejalashtirish bosqichida: guruhlariga birlashishadi;
- loyiha bo'yicha ishlar turlarini ajratib, qatnashchilar orasida taqsimlashadi;
- loyihani bajarish bo'yicha ish rejasini ishlab chiqishadi;

- uni bajarishning optimal usullari va vositalarini tanlashadi;
- natija taqdimotini rasmiylashtirish usullari va shakllarini belgilashadi;
- hisobot va taqdimotni baholash mezonlarini muhokama qilishadi.

2. Loyihani bajarish bosqichi auditoriyadan tashqarida amalga oshirilib, ushbu davrda talabalar o'zlarining vazifalari bilan muvofiq tarzda va ma'lum qilgan holda faol va mustaqil ishlaydilar: turli manbalardan axborot to'plash, tahlil etish va umumlashtirish ishlarini olib boradilar; tadqiqot o'tkazadilar, natijalarni tahlil etishadi; zarurat tug'ilganda maslahatlashadilar; oraliq natijalarni muhokama qiladilar; hammadan olingan natijalarning umumiy to'planishi va muhokamasini o'tkazadilar.

3. Yakunlovchi bosqich ham auditoriyada tashkil etilib, loyiha taqdimoti, talabalar ishi natijalari va loyiha faoliyatining baholanishi, loyiha faoliyati refleksiya kabilarni o'z ichiga oladi: loyihaning jamoaviy taqdimoti vaqtida quyidagilar aks ettiriladi: muammo, maqsad va vazifalarni tushunish; ishni rejalashtirish va amalga oshirishni bilish; yechimlarni izlash jarayonini tahlil qilish; loyihalar va taqdimotni o'zaro baholash; faoliyat va natijaning refleksiya qilishni amalga oshirish: ish davomida va yakunida yuzaga kelgan yutuqlarini anglash, yo'l qo'yilgan xatolarni tahlil qilish, shaxsiy o'zgarishlarini anglashni namoyon etish; loyiha faoliyati haqida hisobot topshirish.

III. "Virtual sayohat" o'quv loyihasi. Tadqiqotlar jarayonida "Virtual sayohat" o'quv loyihasini ishlab chiqish va o'tkazishga e'tibor qaratilib, tili o'rganilayotgan mamlakat, arxeologik manzilgoh va qadimgi Ellada yodgorliklariga ekskursiya tarzida tashkil etildi.

Mazkur o'quv loyihasi quyidagi bosqichlarga asoslangan holda o'tkazildi.

1. Tayyorlov bosqichi: virtual sayohat o'tkaziladigan joy va uning vaqti e'lon qilindi; ishtirok etish istagini bildirgan talabalar ro'yxati tuzildi; sayohat yo'nalishi va mavzular tanlandi; virtual sayohat ishtirokchilarining vazifalari va rollari taqsimlandi; virtual sayohatni o'tkazishga doir manbalar – darslik, tarixiy, ilmiy va badiiy adabiyotlar, Internet saytlari, virtual muzeylar haqida ma'lumot berildi.

2. Tashkiliy bosqich quyidagi jihatlarni o'zida aks ettiradi: tilshunoslik (so'z, so'z birikmalari, hikmatli so'zlar) va tarixiy-madaniy (qahramonlar, yutuqlar, geografik joylashuv) voqelikka doir materiallarni tanlash; virtual sayohat "kartasi"ni tayyorlash; sayohat shakllari (og'zaki ekskursiya, slaydar taqdimoti, she'riyat kechasi, sahna ko'rinishi, viktorina) va vositalari (kema, avtomobil, ot, samolyot, piyoda) tanlandi; qisqacha yo'l ko'rsatmasi ishlab chiqildi.

3. Amaliy bosqichda sayohat tashkil etildi: talabalar tomonidan virtual sayohat materiallari asosida axborotnoma va gazetalar yaratildi; sayohatchilar va tomoshabinlarning fikr-mulohazalari va taassurotlari tahlil etildi; tomoshabin talabalar tomonidan "Taqrizlar kitobi", "Yangi g'oyalar kundaligi" kabilar to'ldirildi.

4. Baholovchi bosqichda amalga oshirilgan virtual sayohat natijalari tahlil etildi, yo'l qo'yilgan xatoliklar va ularni bartaraf etish yo'llari ko'rsatib berildi.

IV. Mustaqil ish. Ta'lim amaliyotida "mustaqil ish" tushunchasi va uning mazmuni to'g'risida yagona fikr mavjud emas. Shaxsiy pedagogik tajriba, ushbu masala bo'yicha pedagogik qarashlar tahlili asosida talabaning ijodiy faoliyati sifatida mustaqil ishning asosida "mustaqillik, mustaqil fikrlashga ehtiyoji va uquvi, yangi vaziyatga yo'naltirish qobiliyati, savol, masalani, vazifani o'zi ko'ra bilishi hamda ularning yechimiga doir yondashuvlarni izlab topish" g'oyasi yotadi, degan xulosaga kelindi. Bunday tarzdagi tushunish, o'z navbatida, mustaqil ishni ijodiy faoliyatga aylantirish imkonini beradi.

Talabalarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishga doir mustaqil aqliy faoliyat kitob bilan ishlash, uy vazifasini bajarish, mustaqil ishni bajarish tartibi algoritmi, mustaqil ish sifati va talabalar faoliyatini tashkil etish shakliga ta'sir etuvchi omillarni alohida tadqiq etishni talab etadi.

1. Kitob bilan ishlash. Oliy ta'lim muassasasida o'qish tajribasiga ega bo'lmagan birinchi kurs talabasida ko'pincha mustaqil ish samaradorligi va sifatini ta'minlovchi aqliy mehnatni tashkil etishning samarali shakllarini topish imkoniyati kamroq bo'ladi. Shuning uchun oliy ta'limda katta hajmli va murakkab o'quv materialni ustida chuqurlashtirilgan ish olib borishga qaratilgan kontekstli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

2. Uy vazifasini bajarish. Buning uchun birinchi kurs talabasiga vaqt resurslaridan to'g'ri va tejamli foydalanishni bilish birlamchi ahamiyat kasb etadi. Talaba har bir fan ustida ishlashning puxta o'ylangan jadvalini tuzishi zarur. Bunda darslarni vaqt bo'yicha taqsimlashga asosan ikkita qat'iy yondashuv mavjud bo'lishi mumkin: birinchi yondashuv – mustaqil ish jadvali ma'ruza va amaliy mashg'ulotlardan kelib chiqqan holda tuziladi, ya'ni mustaqil ish navbatdagi mashg'ulotlarga tayyorgarlik sifatida olib boriladi. Mazkur holatda yuklama ko'pincha notekis taqsimlanishi mumkin. Ikkinchi yondashuv – hafta kunlariga yuklamaning teng taqsimlanishi.

3. Mustaqil ishni bajarish algoritmi sodda, o'rtacha va murakkab qiyinchilik darajasiga ega topshiriqlarni tuzish va bajarishni talab etadi.

4. Intellekual-ijodiy vazifalarni bajarish algoritmi hal etilishi zarur bo'lgan vazifalarni belgilash; izlash, tushunish, aniqlash lozim bo'lgan noma'lum elementni anglash; ma'lumotlarni tahlil etish; ma'lumotlarni qiyoslash; farazni amalga tekshirib ko'rish; xato harakatlardan dalolat beruvchi salbiy natija holatida yangi farazlarni izlash kabilarni o'z ichiga qamrab oladi.

5. Mustaqil ishning sifatiga ta'sir etuvchi omillarga talabalar tomonidan topshiriqlarni bajarishda (ayniqsa, past o'zlashtiruvchi, mustaqil ishlash malakasi yetarli bo'lmagan) o'qituvchining ishtirok etishi, rahbarlik qilishi; o'qituvchi tomonidan murakkabroq masalalarning tushuntirib berilishi; mashg'ulot yakunida mustaqil ish topshirig'ini bajarish tartibini tushuntirib berish – qanday mavzu (masala), qanday hajmda, uni qanday o'rganish kerak?; ishni nazorat qilish; talabalar tomonidan foydalanilgan mustaqil ishlash usullari, natijalarini tuzatish; turli nazorat usullaridan foydalanish: talabalar tomonidan turli murakkablik darajasiga ega topshiriqlar keltirilgan kartochoklarni to'ldirish; yaxshi o'zlashtirilgan talabalarning boshqa ta'lim oluvchilar tomonidan bajarilgan topshiriqlarni tekshirishda ishtirok etishi; talabalar tomonidan biror-bir materialni mustaqil tushuntirib berish kabilarni kiritish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar jarayonini aniq algoritim asosida loyihalash va rejalashtirish talabalarning mustaqil o'quv faoliyati samaradorligini oshirish, o'z-o'zini rivojlantirish, o'zining shaxsiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, yaxlitlikda intellektual-madaniy rivojlanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Egamberdiyeva N.M. *Madaniy-insonparvarlik yondashuv asosida talabalarni shaxsiy hamda kasbiy ijtimoiylashtirish nazariyasi va amaliyoti (Pedagogika oliy ta'lim muassasalari misolida): Pedagogika fanlari doktori. ... diss. – T., 2010.*

2. Mamatov A.E., Umarov X.T. *Lotin tili. – Samarqand, 2000.*

3. Видулина М.А. *Иноязычная компетентность преподавателя медицинского вуза// Международный журнал экспериментального образования. – М., 2011. № 4. – С.59–62.*

4. Лурия А.Р. *Культурное развитие и интеллектуальная деятельность. – М., 1999.*

4. 5. Gottfredson L.S. *Mainstream Science on Intelligence// Wall Street Journal December 13, 1994. P.F18.*

Mashhura ISABAYEVA,
T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zPFITI
katta ilmiy xodim-izlanuvchisi

BIOLOGIYA FANINI O'QITISHDA SOG'LOM TURMUSH TARZI KO'NIKMALARINI TARKIB TOPTIRISH YO'LLARI

Annotatsiya

Maqola umumiy o'rta ta'lim maktablarida biologiya o'quv fanining mazmunidan o'rin olgan sog'lom turmush tarzi ko'nikmalari asosida individual uslubni tarkib toptirishning pedagogik asoslari to'g'risida. Shuningdek, muallif o'quvchilarda o'z mustaqil faoliyatini maqsadga muvofiq tashkil etish va baholash ko'nikmasini shakllantirib borish, mazkur jarayonda "Salomatlik" daftaridan foydalanish yo'llarini yoritib o'tgan.

Kalit so'zlar. Biologiya ta'limi, innovatsion ta'lim, shakl, metod va vositalar, sog'lom turmush tarzi, "Salomatlik" daftari.

В данной статье освещены вопросы формирования здорового образа жизни в процессе обучения биологии в общеобразовательных средних школах, определены педагогические основы индивидуального подхода к учащимся, даны рекомендации по организации самостоятельной деятельности и формированию навыков самооценки. Также указаны пути использования тетради "Здоровье" в данном процессе.

Ключевые слова. Начальное образование, инновационные образовательные технологии, формы, методы и средства, здоровый образ жизни, тетрадь "Здоровье".

The pedagogical bases of individual method by means of healthy lifestyle habits in the content of biology educational subject in general secondary schools, expediently forming of independent activities of pupils and forming the marking habits, using ways from "Health" notebook are described in the article.

Key words. Biology education, innovation educational technologies, form, method and implements (means), healthy lifestyle, notebook of "Health".

Bugun O'zbekistonda yoshlarni jismonan sog'lom va barkamol shaxs etib tarbiyalash zarurligi davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biriga aylangan. Jumladan, yoshlarni barkamol shaxs etib tarbiyalash borasidagi keng ko'lamli chora-tadbirlar kompleksini amalga oshirish "Sog'lom ona va bola yili" Davlat dasturida quyidagi muhim vazifalar misolida o'z aksini topgan:

- "Sog'lom ona va bola yili" Davlat dasturini izchil amalga oshirish asosida sog'lom avlodni voyaga yetkazish borasidagi chora-tadbirlarni kuchaytirish;
- Yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini tarkib toptirish, ularning turli xil salbiy illatlardan himoya qilishga doir chora-tadbirlar ishlab chiqish;
- Barkamol avlodni shakllantirishda milliy va umuminsoniy qadriyatlar hamda Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash.

Mavjud manbalarning mohiyatini o'rganish jamiyatimizda inson turmush tarzini yaxshilash, shu o'rinda muhim ahamiyatga ega bo'lgan omillar ularning inson salomat-

ligini muhofazalashdagi roli, sog'lom turmush tarzini qaror toptiruvchi mezonlarni yaratishga nisbatan ijtimoiy ehtiyoj mavjudligi, shuningdek, ushbu ehtiyojni amalga oshirish yo'lida amaliy harakatlar olib borilganidan dalolat beradi.


Sharq mutafakkirlari, xususan, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Abdulla Avloniy kabi allomalar asarida yosh avlodni sog'lom va ruhan tetik qilib tarbiyalash hamda sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirib borishning pedagogik faoliyat mazmuni va vositalari xususidagi qarashlari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Mazkur vazifalarni amalga oshirish uchun ta'limni isloh qilish va takomillashtirish, ma'naviy va jismoniy sog'lom avlodni shakllantirish, aholining sog'lom turmush tarzini ta'minlash, yoshlarning gigiyenik ko'nikmalarini shakllantirish bilan bog'liq muammolarini hal etishning pedagogik asoslari D.Sharipova, A.Isimova, F.Abduraximova, R.Arziqulov, O.Musurmonova, S.Solixov, Jayevlar tadqiqotida o'z aksini topgan.

Sog'lom turmush tarzi va uning ko'nikmalarini shakllantirish maqsadida qator tadqiqot ishlari olib borilgan bo'lsa-da, biologiya o'quv fanining mazmunida sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini tarkib toptirishning individual uslubini pedagogik tadqiq etilishi, o'quvchilarning o'z faoliyatini to'g'ri tahlil qilish va baholash ko'nikmasini shakllantirib borish hamda bu borada pedagoglarning tayyorgarligini oshirish maqsadida metodik ko'rsatmalar ishlab chiqish dolzarb vazifalardan sanaladi. Shu boisdan, umumiy o'rta ta'lim maktablarida biologiya fanini o'qitishda sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini tarkib toptirishning ijobiy yechimini hal etish yo'llari: mazmun, metod, shakl va vositalarini ishlab chiqishda quyidagi pedagogik yondashuv talab etiladi.

Buning uchun biologiya o'qituvchisi:

- biologiya o'quv dasturini tahlil qilish, biologiya o'quv fanlarini o'qitishda sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini tarkib toptirish imkoniyatlarini aniqlashi;
- biologiya darslarida sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini tarkib toptirish mazmuni, metod, vositalari va shakllari o'quvchining psixologik xususiyatlarini e'tiborga olgan holda tanlashi;
- biologiya ta'lim mazmunida ta'lim-tarbiya uzviyligi asosida gigiyenik, ekologik, estetik, milliy va umuminsoniy qadriyatlar hamda Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash;
- biologiya darslarida sog'lom turmush tarzi yuzasidan o'quvchilarning nazariy va amaliy bilimlarini mustahkamlash hamda ularning bilimlarini o'zlashtirishga bo'lgan motiv, qiziqish va intilishlarini kuchaytirishga oid topshiriqlar va "My test" dasturini ishlab chiqib, sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini tarkib toptirish imkonini beradi.

Sog'lom turmush tarzi keng qamrovli tushuncha bo'lib, biologiya fani mazmunida o'qitishning barcha shakllari – dars, darsdan tashqari ishlar va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda shaxsiy va umumiy gigiyenik madaniyatni shakllantirish, kundalik faoliyatini biologik qonuniyatlar asosida tashkil etish, faol harakat asosida organizmni chiniqtirish hamda muntazam ravishda sport bilan shug'ullanish ko'nikmalarini shakllantirish, jinsiy tarbiya ko'nikmalarini tarkib toptirish, muomala va muloqot madaniyatini shakllantirish, baxtsiz hodisalar va jarohatlanishlarga qarshi ehtiyotkorlik choralari ko'rish malakalarini tarkib toptirish, ekologik madaniyatini shakllantirish shular jumlasidandir. Bundan tashqari ma'naviy va axloqiy tarbiya, bioetika va estetik tarbiya ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, vatanparvarlik, turli xil siyosiy-diniy oqimlardan himoyalash hamda ularning mehnat tarbiyasiga e'tiborni kuchaytirish, salomatlikka salbiy ta'sir etuvchi illatlardan (spirtli ichimliklar iste'mol qilish, giyohvand moddalar va tamaki mahsulotlari chekish) voz kechish ko'nikmasi asosida tarbiyalashning pedagogik tizimini ishlab chiqishni taqozo etadi.(1-ilova)



Ushbu tizimdan ko'zlangan asosiy maqsad o'qituvchining pedagogik faoliyatini tizimga keltirish hamda o'quvchilarning o'quv bilish faoliyati samaradorligini oshirishdan va biologiya fanini o'qitishda sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini tarkib toptirishdan iborat. Buning uchun o'qituvchi dars maqsadini optimal tanlashi, sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini tarkib toptirishning mazmun, shakl, metod va vositalarini ishlab chiqishi talab etiladi.

Umumiy o'rta ta'limda 5-6 sinflarda botanika, 7-sinfda zoologiya, 8-sinfda odam va uning salomatligi, 9-sinfda belgilangan DTS talablari asosida biologiya fanlari o'qitilishi yo'lga qo'yilgan bo'lib, mavjud fanlar mazmunida gigiyenik, ekologik, estetik, bioetika, mehnat tarbiyasi, jinsiy tarbiya, ma'naviy-axloqiy tarbiya hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiya berilishi sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini tarkib toptirish imkonini beradi.

Sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini tarkib toptirishning mazmuni biologiya fanini loyihalash, ta'lim mazmuni asosida bilim, ko'nikma, malaka, tayanch va xususiy kompetensiyalar hamda o'quvchilar bilimini nazorat qilish, baholash jarayonlarini o'z ichiga oladi. O'quvchilarda sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini tarkib toptirish va o'zlashtirgan bilimlarini nazorat qilish va baholash maqsadida didaktik tarqatmalardan maqsadli foydalanish, "My test" dasturi asosida nostandart o'quv topshiriqlari ishlab chiqilishi va ulardan samarali foydalanishni amalga oshirish maqsad qilib olindi.

Ushbu imkoniyat asnosida "Odam va uning salomatligi" fani yuzasidan sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini tarkib toptirishga oid nostandart o'quv topshiriqlari ishlab chiqildi va ulardan quyidagicha foydalanishni tashkil etish mumkin.

1. Quyida berilgan sog'lom turmush tarzini asoslovchi fikrlarni qaysi biri to'g'ri?

- Sport bilan shug'ullanish salomatlik garovidir.
- Spirтли ichimliklar ichish aqliy faoliyatni mustahkamlaydi.
- Ko'knori, nasha o'simliklari tarkibida narkotik moddasi bo'lib, iste'mol qilinsa, organizmga salbiy ta'sir ko'rsatadi.
- Sog'lom turmush tarzi – insonning o'zligini anglashga, kamolot sari yetaklaydigan, umriga mazmun ato etadigan umidbaxsh yo'l.
- Madaniy dam olish uchun uzoq muddat internet, kompyuter o'yinlari bilan band bo'lish.
- Sho'r va achchiq taomlar iste'mol qilish.
- Kun tartibini to'g'ri tashkillash, shaxsiy gigiyena qoidalariga muntazam rioya etib borish.

Javobi:

A	B	D	E	F	G	H

Javobi:

A	B	D	E	F	G	H
ha	yo'q	ha	ha	yo'q	yo'q	ha

2. Quyida berilgan kasalliklarni keltirib chiqaruvchi sabablarni toping va mos raqamlarni jadvalning javob raqamlar qismiga yozing.

Kasallik turlari	Javob raqamlar
Virusli hepatit kasalligi	
Kamqonlik kasalligi	
Raxit kasalligi	
O'pka sili kasalligi	

1) Zararsizlantirilmagan tibbiy asboblardan orqali; 2) Nafas olish yo'llarining shamollashi; 3) Kashandalik, giyohvandlik; 4) Yuvilmagan meva va sabzavotlarni iste'mol qilish; 5) Oziq-ovqat mahsulotlarining tarkibida temir moddasini yetishmovchiligi; 6) Qonda "Ca" yetishmovchiligi; 7) Gigiyenik qoidalarga rioya qilmaslik; 8) Tana vaznining kamayishi; 9) Ovqatlanish ratsioniga amal qilmaslik; 10) Organizmda "D" vitamini yetishmovchiligi.

Javobi:

Kasallik turlari	Javob raqamlar
Virusli hepatit kasalligi	1,4,7
Kamqonlik kasalligi	5,8,9
Raxit kasalligi	6,10
O'pka sili kasalligi	2, 3,8

3. Spirtli ichimliklarning organlar tizimiga salbiy ta'sirini juftlab ko'rsating.

1	Qon. Immunitet	A	Me'daning shilliq pardasini yallig'lanish kasalligi – gastirit, enterit, kolit kasalliklarini keltirib chiqaradi
2	Ovqat hazm qilish tizimi	B	Immunitetni pasaytiradi, OITS va OIV kasalliklarini keltirib chiqaradi
3	Ko'payish va rivojlanish tizimi	D	Yurakning ishemik kasalligi, arteroskleroz, qon bosimini ko'tarilishi – gipertoniya, qon aylanish devorini yallig'lanishi – stenokardiya kasalligini keltirib chiqaradi
4	Yurak va qon aylanish tizimi	E	Majruh, aqlan zaif farzandlar tug'ilishi, bepushtlik, OITS va OIV kasalliklarini keltirib chiqaradi

javob:	1-	2 -	3 -	4 -
--------	----	-----	-----	-----

Javobi:

javob:	1-B	2 -A	3 - E	4 - D
--------	-----	------	-------	-------

4. Qon aylanish tizimining faol ishlashiga ta'sir etuvchi omillarni ajrating.

1. Shaxsiy gigiyenaga rioya qilish. 2. Kun tartibiga doim amal qilish. 3. Jismoniy tarbiya bilan shug'ullanish. 4. Quyoshli vanna qilish. 5. Spirtli ichimliklar ichmaslik va tamaki mahsulotlar chekmaslik. 6. Kiyinish gigiyenasi. 7. Teri gigiyenasi. 8. D va K vitaminiga boy bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlarini iste'mol qilish.

Javobi: 1,2,3,5,6,8

5. To'g'ri javoblarni "+", noto'g'ri javoblarni "-" ishoralar bilan belgilang.

Topshiriqlar mazmuni	Javoblar
Spirtli ichimliklar asab tizimini tinchlantirib, salomatlikni tiklashga imkon beradi	-
Aqliy va jismoniy mehnatni hamda dam olishni bir-biri bilan almashtirib turish normal o'sishni ta'minlaydi	+
Giyohvand moddalar iste'mol qilish organizmning immun tizimini buzilishiga sabab bo'ladi	+
Narkotik moddalar bilan savdo-sotiq qilish jamiyatga foyda keltiradi	-
Sport bilan shug'ullanish irodani mustahkamlashga, o'sish va rivojlanishni normal borishiga yordam beradi	+
Organizm sog'lom bo'lishi uchun bir kecha kunduzgi ovqat tarkibida oqsil, yog', uglevod, mineral tuz, suv va vitaminlar bo'lishi kerak	+
Sog'lom organizmning tana vazni yoshiga nisbatan og'ir bo'lishi kerak	-
Uyali telefonlari va kompyuter o'yinlari madaniy dam olishga imkon beradi	-
O'ta charchash, doimiy uzoq vaqt og'ir mehnat bilan shug'ullanish o'sish va rivojlanishni orqada qolishiga sabab bo'ladi	+

Mazkur nostandart test topshiriqlari nafaqat o'quvchilarning o'zlashtirgan bilimlarini, balki obyekt va uning qismlarini tanish, o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash ko'nikmalarini nazorat qilish va baholash jarayonini haqqoniy va odilona amalga oshirish imkonini beradi. Mazkur jarayonda o'qitish shakllari dars va darsdan tashqari uy ishlari uchun ushbu topshiriq turlarini mustaqil bajarish va nazorat qilish maqsadida "Salomatlik" daftari ishlab chiqildi. Bu daftarni yuritilishi fan yuzasidan olgan bilimlarning qanchalik puxtaligini, hayot davomida sog'lom turmush tarzi ko'nikmalariga doimiy ravishda amal qilishni va o'quvchining o'z turmush tarzini biologik bilimlar asosida to'g'ri tashkil etish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sog'lom ona va bola yili Davlat dasturi. – T., 2016.
2. Tolipova J.O. Biologiyani o'qitishda innovatsion texnologiyalar. Metodik qo'llanma. – T., 2013, 148-b.
3. Isabayeva M.M. Salomatlik daftari. – T.: Tafakkur, 2012. 74-b.
4. Isabayeva M.M. Biologiyani o'qitishda sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi. – T.: Fan va texnologiya. 2012. 71-b.

Qahramon MOVLYANOV,

Respublika Ta'lim markazi bosh metodisti

TABIIY GEOGRAFIK QONUNIYATLARNI O'RGANISHNING VA O'QITISHNING METODOLOGIK ASOSLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada uzluksiz ta'lim tizimida tabiiy geografik qonuniyatlarni o'qitish masalalari, shuningdek, o'lkashunoslik ma'lumotlarining o'ziga xos tabiiy geografik ichki tuzilishlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar. Uzluksiz ta'lim, Yer, tabiat zonalari, geografik qonuniyatlar, metodologiya, kartografiya, landshaft, relef, tabiat komponentlari, o'lkashunoslik, ko'rgazmalilik.

В данной статье раскрываются задачи преподавания законов физической географии в системе непрерывного образования, а также раскрыта внутренняя структура физической географии, со свойственными ей краеведческими особенностями.

Ключевые слова. Непрерывное образование, Земля, природные зоны, географические законы, методология, картография, ландшафт, рельеф, компоненты природы, краеведение, наглядность.

Article reveals the problem of teaching physical geography laws in continuing education, as well as the opening of the inner structure of the physical geography, local history, and with its characteristic features.

Key words. Continuous education, land, natural areas, geographical laws, methodology, mapping, landscape, relief, components of nature, local history, visibility.

Har bir yurtning buguni va kelajagi tom ma'noda mamlakat ta'lim tizimining qay darajada rivoj topgani bilan belgilanadi. Zero, Vatan taraqqiyoti, millat istiqboli shu zaminda voyaga yetayotgan o'g'il-qizlar kamoli bilan chambarchas bog'liq. Shu ma'noda uzluksiz ta'lim chuqur, har tomonlama asosli ta'lim-tarbiya berish, tegishli mutaxassislarni tayyorlash, o'qitishning turli metod va usul hamda yo'nalishlarining uyg'unligidan iboratdir.

Geografiya – eng qadimgi, shu bilan birga eng yosh fan hisoblanadi. Eng qadimligi shundaki, miloddan avvalgi III-II asrlarda yashagan Eratosfen geografiya faniga zamin yaratgan. Davr talabiga mos ravishda yangi ma'lumotlar asosida doimo ham mazmunan, ham mohiyatiga ko'ra boyib borishi geografiyaning yosh fan ekanligini bildiradi.

Geografiya fanini o'rganishda geografik qobiqning ahamiyati yuqori. Uning eng muhim xususiyatlaridan biri – geografik qobiq bilan tashqi muhit o'rtasida muntazam ravishda modda va energiya almashinishi ro'y berib turadi va bir vaqtda uning tarkibiy qismlari orasida o'zaro ta'sirning mavjudligidir. Geografik qobiqni Yer sharining qobiqlaridan biri deb qarash mumkin, faqat unda hayot mavjud.

Geografik qobiqning alohida shakllangan qismlari landshaft sifatida qaraladi. Landshaft – geologik zamini, relefi, iqlimi, tuprog'i, o'simlik turkumi, hayvonot dunyosi, yer osti va yer usti suvlari tizimining bir xilligi bilan ajralib turadigan va tabiiy chegaralarga

ega bo'lgan hududdir. Uning tabiiy komponentlariga relef, tog' jinslari, iqlim, suv, tuproq, o'simlik va hayvonot dunyosining kirishi fanga ma'lum. Bularning barchasi bir-biri bilan uzviy bog'liq holda rivojlanadi va bitta murakkab jarayon sifatida tabiiy geografiyaning alohida qismi – landshaftshunoslik fanini vujudga keltiradi.

Ko'p olimlar har bir obyektning strukturasini tadqiqot qilganda eng avval landshaftning bir komponenti bo'lgan relef strukturasini o'rganishiga katta e'tibor beradi. Sababi, ana shu relef strukturasini obyektning ichki strukturasini belgilab beradi. Boshqacha so'z bilan aytganda, relef strukturasini bilan tabiatning boshqa komponentlari: iqlim, tuproq, o'simliklar dunyosi, yer osti suvining tabiiy harakati, yer usti suv oqimining yo'nalishi to'g'ridan-to'g'ri bog'langan. Shuning uchun ham har bir tabiat zonasining o'ziga xos xususiyatlarini tadqiqot qilganda, avvalombor, relef strukturasini o'rganishga e'tibor berilishi lozim. Tabiat komponentlarining yoki landshaftning tabiat zonalarini bo'yicha qonuniy o'zgarishini tadqiqot qilganda, birinchidan, relef strukturasini o'rgansak, ikkinchi tomondan esa, ana shu relef strukturasini bilan bog'liq bo'lgan barcha tabiat komponentlarini va geografik jarayonlarini o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Yer sharida bir necha tabiiy geografik qonuniyatlar bo'lib, ulardan eng asosiysi tabiat komponentlarining va landshaftlarining gorizontaal va vertikal harakat bo'yicha qonuniy o'zgarishidir. Boshqacha aytganda, tabiat komponentlarining yoki landshaftlarining tekisliklarda gorizontaal o'zgarishi bo'lsa, tog'larda esa ularning vertikal o'zgarishidir. Ammo landshaftning vertikal o'zgarish tushunchasi kengroq bo'lib, unga landshaftning faqat balandliklar bo'yicha o'zgarishi kirmasdan, balki shu bilan bir qatorda uning dunyo okeani tagida o'zgarishi ham kiradi.

Tabiiy geografik qonuniyatlarni har tomonlama o'rganish uchun hozirda bir necha tadqiqot usullari qo'llanib kelinmoqda. Xususan, obyektning har tomonlama o'rganish uchun olib boriladigan tadqiqot usullari ma'lum bir metodologiya negizida amalga oshiriladi. Metodologiya so'zi yunoncha "metogoc" – bilim yoki tadqiq qilish, "logos" – ma'lumot degan so'zlar yig'indisidan iborat. "Filosofiya" lug'atida metodologiya tushunchasiga quyidagicha ta'rif beriladi, ya'ni metodologiya bir tomondan, biron fanda tatbiq etiladigan tadqiqot usullarining majmui ma'nosini bildirsa, ikkinchi ma'nodan, ilmiy bilish va dunyoni o'zgartirishi metodi haqidagi ma'lumotdir, deyiladi.

Tabiiy geografik qonuniyatlarni o'rganishda hozirgi vaqtda bir necha usullar qo'llaniladi. Ammo biz bu muammoni o'rganishda geografiya fanining asosiy usullari bo'lgan solishtirma, majmual, kartografik usullar bilan bir qatorda tizimli usuldan ham keng foydalandik.

Geografiya fanidagi solishtirma usul XIX asrning mashhur nemis geograf olimi A. Gumboldt nomi bilan chambarchas bog'liq. Tabiat komponentlarining yoki landshaftning tabiat zonalarini bo'yicha qonuniy o'zgarishlarini tadqiqot qilishda bir tomondan, tabiat zonalarining o'ziga xos xususiyatlari tadqiqot qilinsa, ikkinchi tomondan, xuddi ana shu tabiat zonalarini boshqa materiklarda joylashgan tabiat zonalarini bilan solishtiriladi. Misol uchun, Yevrosiyo va Shimoliy Amerikadagi tabiat zonalarining joylashganligini va ularning ichki strukturasini tadqiqot qiladigan bo'lsak, ular bir-biridan tubdan farq qiladi. Yevrosiyo materigida tabiat zonalarining joylanishida gorizontaal qonuniyat ustunlik qilsa, Shimoliy Amerikadagi tabiat zonalarining joylanishiga iqlim bilan bir qatorda relef ham katta ta'sir qilgan. Shuning uchun har bir tabiat zonasidagi tabiat komponentlarining yoki landshaftning qonuniy o'zgarishlarini tadqiq qilishda solishtirma usul bilan bir qatorda tizimli usulni (obyektning ichki strukturasini o'rganishi) qo'llash maqsadga muvofiqdir. Geografiyaning asosiy usuli bo'lgan solishtirma usulning tabiiy geografik qonuniyatlarni o'rganishdagi yana bir muhim tomoni shundaki, tabiat komponentlari o'rtasidagi o'zaro bog'lanishlarning o'ziga xosligi o'rganiladi va boshqa obyektlar bilan solishtiriladi.

Tabiiy geografik qonuniyatlarni tadqiqot qilishda majmuali usulning ahamiyati katta. Bu usul bir tomondan, tabiat komponentlari o'rtasidagi bog'lanishlarni tadqiqot qilsa, ikkinchi tomondan, ana shu o'zaro bog'lanishlarga sabab bo'lgan yer usti suv oqimining rolini o'rganishga katta ahamiyat beradi. Tabiat komponentlari o'rtasidagi bog'lanishlar bir tomondan energiya orqali ro'y bersa, ikkinchi tomondan moddalar almashuvi orqali ro'y beradi. Mazkur moddalar orqali bog'lanishda yer usti suv oqimining roli cheksizdir. Boshqacha so'z bilan aytganda, yer usti suv oqimi landshaftlarda ro'y beradigan moddalar almashuvining vujudga kelishiga sabab bo'luvchi birinchi omilga da'vogaridir.

Geografiyaning asosiy tadqiqot usullaridan biri bu kartografik usuldir. Tabiiy geografik qonuniyatlarni o'rganishda kartografik usulning ahamiyati shundan iboratki, agar biz tabiiy geografik qonuniyatlarni majmuali, solishtirma va tizimli usul orqali tadqiqot qilsak, ana shu tadqiqotlarning barcha ilmiy natijalari kartalar asosida ko'rsatiladi va isbotlanadi.

Shu bilan bir qatorda hozirgi vaqtda tadqiqotning kartografik usulida kartografik ideallashtirish usuli ham keng qo'llaniladi. Mazkur ilmiy fikrga qo'shilgan holda, bir tomondan, tabiat komponentlari o'rtasidagi bog'lanishlarni vujudga keltiruvchi yer usti suv oqimiga katta e'tibor bersak, ikkinchi tomondan, ana shu yer usti suv oqimining yo'nalishini kartografik ideallashtirishga alohida ahamiyat qaratamiz.

Kartografik ideallashtirish usuli tabiiy geografiyada va iqlimshunoslik fanida ko'p qo'llaniladi. Misol uchun, dunyoning iqlim kartasida sovuq va issiq havo massalarining yo'nalishi har xil rangdagi chiziqcha (strelka) shaklida beriladi. Biz ham kartografiyaning ushbu ideallashtirish usulini qo'llagan holda, yer usti suv oqimining yo'nalishini chiziqcha shaklida beramiz. Demak, kartografik ideallashtirishning tabiiy geografik qonuniyatlarni o'rganishdagi roli quyidagilardan iborat:

1. Tabiat komponentlari orasidagi bog'lanishga sabab bo'luvchi yer usti suv oqimining yo'nalishini to'g'ri ko'rsatish tabiiy geografik jarayonlarning qonunli o'zgarishini o'rganishga asos bo'ladi;

2. Yer usti suv oqimlarining yo'nalishiga bog'liq bo'lgan landshaftdagi geokimyoviy jarayonlarni o'rganishga asos yaratiladi.

Tabiiy geografik qonuniyatlarni ta'lim tizimida o'qitishda o'lkashunoslik materiallaridan keng foydalanilgan holda, yangi pedagogik texnologiyalar asosida dars berish maqsadga muvofiqdir. Tabiiy geografik qonuniyatlarni o'qitishda mamlakatimiz hududida mavjud bo'lgan tog'lar, daryo vodiylari va deltalari, cho'llar va sug'oriladigan vohalar misolida ko'rgazmalilik usulini qo'llash katta ahamiyatga ega. Tabiatda mavjud bo'lgan har bir obyektida ro'y beradigan tabiiy geografik jarayonlar ma'lum bir qonuniyatlar asosida bo'ladi. Boshqacha so'z bilan aytganda, o'lkashunoslik ma'lumotlarini o'qitishda ko'rgazmalilik usulidan foydalanilgan holda dars berish ijobiy natijalar beradi.

Tabiatdagi yana bir tabiiy geografik qonuniyat – tabiat komponentlarining yoki landshaftning “Tabiat zonalari” bo'yicha qonunli o'zgarishidir. Bizga ma'lumki, geografiya fanida tabiat komponentlarining gorizont va vertikal bo'yicha qonuniy o'zgarishi haqidagi dastlabki ilmiy ma'lumotlarni A. Gumboldt, N.A. Severtsov va P.P. Semyonov Tyan-Shanskiy asarlarida uchratish mumkin. Rus olimi V.V. Dokuchayev esa, ulardan farqli o'laroq tuproqni ham hisobga olib, o'zining mashhur “Tabiat zonalari” haqidagi ta'limotini ishlab chiqdi. Alohida ta'kidlaganda, V.V. Dokuchayev tabiatni bir butun deb hisobladi va fanda u “Tabiat zonalari” haqidagi ta'limotning asoschisi deb tan olindi. Hozirgi vaqtda tabiat komponentlarining va landshaftlarning kengliklar va balandliklar bo'yicha qonunli o'zgarishi tabiiy geografiyadagi eng asosiy qonuniyatlardan biri bo'lib qoldi.

Yuqorida aytib o'tilgan har bir tabiat obyektida o'ziga xos tabiiy geografik qonuniyatlar mavjud. Misol uchun, tog'larda tabiat komponentlari va landshaftlar bir tomondan,

vertikal qonun asosida o'zgarsa, ikkinchi tomondan esa, ana shu tog' tizmasining shimoliy va janubiy yon bag'irlarida o'ziga xos tabiiy geografik jarayonlar ro'y beradi. Tog'larda ro'y beradigan mazkur tabiiy geografik jarayonlarni o'z o'lkasida joylashgan tog' tizmalari misolida tushuntirish maqsadga muvofiqdir. Shu bilan bir qatorda tog'larda ro'y beradigan tabiiy geografik jarayonlar to'g'risida bilim berishda tog' tizmalarining geografik o'rniga ham alohida urg'u berish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu o'rinda "Landshaft" tushunchasi yoki landshaft to'g'risidagi boshlang'ich bilimlar uzluksiz ta'limning qaysi bosqichida o'qitiladi, degan savol tug'ilishi mumkin.

"Landshaft" nemischa so'z bo'lib, "joy" degan ma'noni bildiradi. Landshaft hududdiy yaxlitligi, vujudga kelishiga ko'ra bir butunligi, geografik tuzilishi, relefi, iqlimi, tuproqlari, o'simlik va hayvonot dunyosining bir xilligi bilan ajralib turadigan tabiiy hududiy kompleksdir. Demak, landshaftni tor ma'noda yer yuzasidagi tabiiy chegaralari bilan ajralib turuvchi joy deb atasak bo'ladi.

Hozirda umumiy o'rta ta'lim muassasalarining 5-sinfida "Tabiiy geografiya", 6-sinfida "Materik va okeanlar geografiyasi" hamda 7-sinfida "Geografiya" darsliklarida o'qitiladi. Mazkur sinflarda landshaft tushunchasi yoki landshaft to'g'risida ma'lumotlar berilmagan. Maktab o'quvchilari landshaft tushunchasini va landshaft to'g'risidagi bilimlarni faqat akademik litsey hamda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limidan boshlab olishadi.

Shu bois landshaft to'g'risidagi boshlang'ich tushunchalar haqidagi bilimlarni murakkab bo'lmagan atamalar orqali maktab yoshidanoq o'quvchilarga singdirilsa, ta'limning keyingi bosqichlariga bu bilimlar mustahkamlanadi hamda maktab bitiruvchilariga "landshaft" so'zi "begona" bo'lmaydi.

Masalan, 6-sinf "Materik va okeanlar geografiyasi" darsligidagi "Tabiat komplekslari, ularning almashinishi va zonalligi" mavzusi doirasida landshaft tushunchasi singdirilsa yoki "O'qituvchilar uchun qo'llanma"da "Landshaft" bo'limi kiritilsa, maqsadga muvofiq bo'lardi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Gaypova R.T., Jiemuratova A. *Geografiya darslarida yangi pedagogik texnologiyadan foydalanish*. // O'zbekiston geografiya jamiyati axboroti. – T., 2005, 25-con, 89-92-b.
2. Nig'matov A. *Tabiiy geografik fanlarning nazariy muammolari*. – T., Ofset Poligraf, 2010, 200-b.
3. Urazbayev A. K. *Tabiiy geografiyadagi "Tabiat zonallari" haqidagi ma'lumot va uning fanda tutgan o'rnini* // O'zbekiston geografiya jamiyati axboroti. – T., 2016, 47-son, 39-b.
4. *Filosofiya lug'ati*. – T., O'zbekiston. 1976, 640-b.
5. Rafiqov A., Vaxobov N., Qayumov A., Azimov SH. *Amaliy geografiya*. – T., 2008, Sharq nashriyoti, 158-b.
6. Берлянт А.М. *Картографический метод исследования*. – М: Изд-во МГУ, 1978, – С. 256.
7. Солнцев Н.А. *Основные этапы развития ландшафтоведения в нашей стране* // Вопросы географии. – М: 1948, Сб.9. – С. 49-78.
8. Ретеюм А.Ю. *О геокомплексах с односторонним системообразующим потоком вещества и энергии* // Изв. АН Сер. Геогр. 1971, №5, – С.122-128.
9. Гвоздецкий Н.А. *Основные проблемы физической географии*. – М: 1979, – С. 220.
10. Муравейский С.Д. *Роль географических факторов в формировании географических комплексов* // Вопросы географии, – М: 1948. Сб.9, – С. 95–110.

Mahfuza USMONBOYEVA,

Nizomiy nomidagi TDPU huzuridagi OTM pedagoglarini qayta tayyorlash
va ularning malakasini oshirish Tarmoq markazi o'qituvchisi, p.f.n.

Dilrabo XUDOYQULOVA,

Nizomiy nomidagi TDPU o'qituvchisi

PEDAGOGIK TURKUM FANLARNI O'QITISHDA "KEYS-STADI" TEXNOLOGIYASINI QO'LLASH

Annotatsiya

Maqolada "Keys-stadi" texnologiyasini ta'lim, xususan, muammoli ta'lim jarayonida qo'llashning ahamiyati haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, mualliflar misollar asosida pedagogik turkum fanlarni o'qitishda ushbu texnologiyani qo'llash imkoniyatlarini ochib bergan.

Kalit so'zlar. Ta'lim, muammo, pedagogik turkum fanlar, o'qitish, "Keys-stadi" texnologiyasi.

В статье раскрыто значение использования технологии "Кейс-стади" в процессе обучения, а именно в проблемном обучении. Приведены примеры использования этой технологии в процессе обучения педагогических дисциплин.

Ключевые слова. Образование, проблема, педагогические дисциплины, обучение, технология "Кейс-стади".

Article reveals the importance of using "Case Study" technology in the learning process, and exactly in problem training. There also provided some examples of the use of this technology in the educational process of pedagogical disciplines.

Key words. Education, problem, pedagogical disciplines, training, "Case Study" technology.

Zamonaviy ta'limda talabalarga tayyor bilimlarni berish emas, balki bilimlarni mustaqil o'zlashtirishga yo'naltirish muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Zero, tayyor bilimlarni o'zlashtirish garchi talabalarning borliqni anglashlari, ijtimoiy munosabatlar mazmunini, u yoki bu ko'rinishdagi kishilik faoliyati mohiyatini tushunishlariga yordam beradi. Biroq borliq va ijtimoiy munosabatlarning mavjud holatini ifodalovchi hodisa, voqelik, jarayonning tarkibiy elementlari o'rtasidagi o'zaro birlik, aloqadorlikni tushunish, sabab-oqibatlarini tahlil qilish, faoliyat mazmuni, yo'nalishi va eng muhimi natijasini kafolatlovchi omillarni tahlil qilish malakalarini samarali rivojlantirishiga to'sqinlik qiladi. Shu kabi salbiy holatning oldini olishda talabalarni "muammoli vaziyatlar"ga ro'para qilish metodik jihatdan samarali sanaladi.

Muammoli vaziyatlarning didaktik imkoniyatlari talabalarni o'rganilayotgan masala (mavzu, muammo) yuzasidan fikrlash, masala mohiyatini yorituvchi tarkibiy elementlar o'rtasidagi o'zaro birlik va aloqadorlikni anglash, "muammo – muammoni hal qilish jarayoni – yechim" tizimi asosida masalani tahlil qilish, yechim borasida farazlarni il-

gari surish, ularning maqbulligini tekshirish, yechimni bayon etish va uni himoya qilish kabi amaliy harakatlarni tashkil etishga majbur qiladi. Qolaversa, muammoli vaziyatlar yordamida talabalar o'z bilimlarini mustaqil tahlil qilish, o'quv-bilish faoliyatiga tanqidiy yondashish, o'rganilayotgan masala (mavzu, muammo) yuzasidan ijodiy fikrlarni ilgari surish kabi imkoniyatlarga ega bo'ladiki, xuddi shu holat jamiyat tomonidan ta'lim tizimi oldiga qo'yilayotgan ijtimoiy buyurtmaning to'laqonli bajarilishini ta'minlaydi. Ya'ni, muammoli o'qitish, uni o'qitish jarayonida qo'llaniladigan texnologiyalar mam-lakatimiz uzluksiz ta'lim tizimi tomonidan o'z oldiga qo'yilgan har tomonlama (aqliy, axloqiy, jismoniy, hissiy jihatdan) rivojlangan barkamol shaxs va malakali mutaxassisni tayyorlashdan iborat ijtimoiy buyurtmaning bajarilishini ta'minlovchi zarur pedagogik shart-sharoitni vujudga keltiradi. Shu sababli bugungi kunda ta'lim tizimida muammoli ta'limdan foydalanish, muammoli ta'lim texnologiyalarini samarali qo'llashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, so'nggi yillarda oliy ta'lim muassasalarida umumiy va mutaxassislik fanlarini o'qitishda muammoli ta'lim texnologiyalari orasida muhim o'rin egallagan "Keys-stadi" texnologiyasini qo'llash tajribasi shakllanmoqda.

Rivojlangan xorijiy mamlakatlar ta'limi amaliyotida ham "Keys-stadi" texnologiya-sini qo'llash asosida muammoli vaziyatlarni yaratish va ularni hal qilishga doir o'quv topshiriqlarini ishlab chiqish borasida boy amaliy tajriba to'plangan va mazkur tex-nologiya jahon o'qitish tizimida eng ommalashgan o'quv texnologiyasi sifatida e'tirof etilmoqda.

Pedagogik turkum fanlarini o'qitishda "Keys-stadi" texnologiyasini qo'llash xususi-da so'z yuritishdan avval uning tushuncha sifatida o'zida qanday mohiyatni yoritishiga to'xtalib o'tish maqsadga muvofiqdir.

"Keys-stadi" texnologiyasi (ingl. "case" – chemodan, metod, "study" – muam-moli vaziyat; vaziyatli tahlil yoki muammoli vaziyatlarni tahlil qilish) – talabalarda aniq, real yoki sun'iy yaratilgan muammoli vaziyatni tahlil qilish orqali eng maqbul variantla-rini topish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladigan texnologiya, real vaziyatlarni bayon etishda qo'llaniladigan o'qitish texnikasi deya e'tirof etiladi.

Texnologiyaning asosiy maqsadi quyidagilardan iborat:

1. Tahlil ko'nikmalari va tanqidiy tafakkurni rivojlantirish.
2. Nazariya va amaliyot birligini ta'minlash.
3. Muammo yuzasidan turli qarashlar va yondashuvlarni namoyish qilish.
4. Qarorlar qabul qilish va uning oqibatlariga doir mulohazalarni taqdim etish.
5. Noaniqliklar mavjud bo'lgan sharoitda muqobil variantlarni baholash ko'nikma-larini shakllantirish.

Keys-stadi talabalarni har qanday mazmunga ega vaziyatni o'rganish va tahlil qi-lishga o'rgatadi. Uning negizida muayyan muammoli vaziyatni hal qilish jarayonining umumiy mohiyatini aks ettiruvchi elementlar yotadi.

Bular quyidagilardan iborat: ta'lim shakllari, ta'lim metodlari, ta'lim vositalari, ta'lim jarayonini boshqarish usul va vositalari, muammoni hal qilish yuzasidan olib borilayot-gan ilmiy izlanishning usul va vositalari, axborotlarni to'plash, ularni o'rganish usul va vositalari, ilmiy tahlilning usul va vositalari, o'qituvchi va o'quvchi (talaba) o'rtasidagi ta'limiy aloqaning usul va vositalari, o'quv natijalari.

"Keys-stadi" texnologiyasi dastlab 1870-yilda AQShning Garvard universitetining huquq maktabida ta'lim jarayonida qo'llanilgan. Ushbu texnologiya Garvard univer-sitetining biznes maktabida 1920-yilda qo'llanila boshlangan. Keyslarning ilk to'pla-mi 1925-yilda biznes haqidagi Garvard universiteti hisobotlari asosida chop etilgan.

Hozirda ushbu texnologiya xorijiy mamlakatlarda iqtisodiyot, biznes sohalarida ham keng qo'llanilmoqda. O'zbekistonda mazkur texnologiyani ta'lim jarayoniga tatbiq etish yo'lidagi harakatlar mustaqillik yillarida faollashdi.

Zamonaviy o'qitish amaliyotida ta'limiy xarakterdagi keyslarning quyidagi turlari qo'llanilmoqda:

- muammoning yechimi va qarorlarni tahlil qilishga yo'naltirilgan keyslar;
- qaror yoki yaxlit muammoni ifodalovchi keyslar;
- talaba faoliyatini tahlil qilish va baholash imkoniyatini beruvchi keyslar.

Ta'limda qo'llaniladigan "Keys-stadi"ning tayyor variantlari ham mavjud bo'lib, ularni sotib olish mumkin. Biroq eng samarali yo'l har bir fan bo'yicha keyslarning mustaqil yaratilishiga erishishdir.

Texnologiya talabalarda predmetni o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishni, amaliy ko'nikmalarni, vaziyatni tahlil qilish va to'g'ri qaror qabul qilishga nisbatan ijodiy yondashish malakalarini rivojlantiradi, turli muammoli vaziyatlar va ularni hal qilish asosida ular tomonidan bilimlarning faol o'zlashtirilishi uchun imkoniyat yaratadi.

"Keys-stadi" yordamida talabalar quyidagi ko'nikma, malakalarga ega bo'ladi:

1. Tahliliy ko'nikmalar (ma'lumotlarni axborotlardan ajrata olish, ularni turkumlash-tirish, ma'lumotlarni zarur va nozarurga ajratish, tahlil qilish, taqdim etish; buning uchun shaxs aniq, mantiqiy fikrlay olishi kerak).

2. Amaliy ko'nikmalar (muammoning murakkabligidan kelib chiqib, real vaziyatni tahlil qila olish, eng muhim nazariya, metod va tamoyillarni qo'llay bilish).

3. Ijodiy ko'nikmalar (bunda mantiqiylik asosida vaziyat (muammo)ni yechish muhim emas, balki ijodiy yondashuv asosida muammoning bir necha yechimlarini topish va ularni tahlil qilish talab etiladi).

4. Muloqot ko'nikmalari (unga ko'ra talaba bahs-munozara olib borish, o'z nuqtayi nazarini himoya qilish, qaroriga boshqalarni ishonirish, juda qisqa va ishonarli hisobotni tayyorlash ko'nikmalarini o'zlashtira bilishi zarur).

5. Ijtimoiy ko'nikmalar (qarorni muhokama qilish jarayonida talabalar boshqalarning xatti-harakatini tahlil qilish, boshqalarni tinglay bilish, bahsda o'zgalarning fikrlarini qo'llab-quvvatlash, ilgari surilgan fikrga qarama-qarshi fikrni bildirga olish va o'zini boshqara olishi lozim).

6. O'z-o'zini tahlil (bahs-munozara jarayonida o'zini tuta bilishi, boshqalarga namuna bo'lishi muhim).

Har bir o'qituvchi keys-stadiga asoslangan o'quv topshiriqlarining puxta asoslanishiga erisha olishi lozim. Keys topshiriqlarining amaliy-didaktik xarakterga ega bo'lishi uchun ularni ishlab chiqishda quyidagilarga e'tiborni qaratish talab etiladi:

- maqsadning aniq ifoda (maqsad ikki xil (yoki undan ortiq) etilmasligi;
- savol yoki topshiriqlar ma'lum darajada murakkab bo'lishi;
- ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy hayotning bir necha jihatini yoritga olishi;
- tezda o'zining amaliy ahamiyatini yo'qotmasligi;
- milliy xususiyatlarni o'zida namoyon etga olishi;
- ta'limning barcha yo'nalish yoki sohalariga oid tipik vaziyatlarni ifodalashi;
- dolzarb ahamiyatga ega bo'lishi;
- talabalarda tahliliy tafakkurni rivojlantirishi;
- bahs-munozarani tashkil etish imkoniyatini yaratishi;
- bir necha yechim (qaror)ni ilgari surish imkoniyatini ta'minlay olishi.

O'quv keyslarining muhim xarakterli jihatlari talabalarga muammoli vaziyatni hal

etish yuzasidan talabalar e'tiboriga adabiyotlar ro'yxatining taqdim etilishi, ularga metodik ko'rsatma, yo'riqnomalarning berilishi va albatta, o'qituvchi tomonidan muammo-ning yechimi bo'yicha o'z variantining taqdim etilishi sanaladi.

Adabiyotlar ro'yxati o'rganilayotgan masala (muammo, mavzu)ga bevosita taalluqli bo'lishi zarur. Keyslarni yechishga doir metodik ko'rsatma, yo'riqnomalar taxminan shunday bo'lishi mumkin:

1. Keys (muammo) bilan tanishish.
2. Muammoning dolzarbligini baholang.
3. Muammoning dolzarbligini dalillar yordamida izohlang.
4. Keys (muammo)ni samarali yechish yo'llarini aniqlang.
5. Keys (muammo)ning samarali yechimini belgilovchi metod va texnologiyalarni tanlang.
6. Keys (muammo)ning samarali yechimini kafolatlovchi faraz (ilmiy faraz)larni shakllantiring.

Keysni yechish uchun talabalarga taxminiy shunday shaklga ega modulli yo'riqnomaga taqdim etiladi (1-jadval):

1-jadval

Keys yechish uchun modulli yo'riqnomaga

Muammoning dolzarbligini asoslovchi dalillar	Muammoning sabablari	Muammoning ijobiy yechimini ta'minlovchi shart-sharoit (omil, metod, vosita)

Shuningdek, keys yechish jarayonida talabalarning e'tiboriga taxminan quyidagi shaklga ega muammoni tahlil qilish va yechish jadvali ham taqdim etiladi (2-jadval):

2-jadval

Keys muammosini tahlil qilish va yechish jadvali

Muammoni tasdiqlovchi dalillar	Muammoning kelib chiqish sabablari	Guruh tomonidan taklif qilingan yechim	Guruh yechimi

Xorijiy mamlakatlar ta'limi amaliyotida keyslar amaliy va ilmiy tadqiqotlarni tashkil etish maqsadida qo'llanilishi sababli ular odatda murakkab tarkibiy tuzilma hamda o'rtacha (Yevropa), katta (AQSH) hajmga ega bo'ladi. Ko'p holatlarda keyslar birgina mashg'ulot jarayonida hal qilinmay, balki butun bir semestr, hatto o'quv yili davomida yechiladi. Ularning bu boradagi tajribalaridan bitiruv malakaviy ishlari (bakalavriat), magistrlik dissertatsiyalari (magistratura), bitiruv loyiha ishlari (malaka oshirish kurslari)da foydalanish maqsadga muvofiq. O'quv materialining xarakteridan kelib chiqqan

holda oddiy, murakkab tarkibiy tuzilishga ega bo'lmagan, ya'ni mini testlardan ham foydalanish amaliy qiymatga egaligi ta'lim amaliyotida o'z tasdig'ini topgan.

Murakkab keys (muammoli vaziyat)lar quyidagi tarkibiy tuzilmaga ega bo'ladi:

1. Pedagogik annotatsiya.

2. Kirish.

3. Keys (muammo)ning bayoni.

4. Keys (muammo)ni yechish yuzasidan topshiriq (yoki savol)lar.

5. Foydalanish uchun adabiyotlar ro'yxati.

6. Metodik ko'rsatmalar.

7. Keysni yechish jarayoni (tahlil va yechim variantlarini ilgari surish, variantlar maqbulligini tekshirish).

8. Keys yechimi bo'yicha taqdimotni tashkil etish.

9. Keys yechimini tahlil qilish.

10. O'qituvchi (keysolog)ning yechimi.

Mini keyslar uchun quyidagi tarkibiy tuzilmaga egalik xarakterlidir:

1. Keys (muammo)ning bayoni.

2. Keys (muammo)ni yechish yuzasidan topshiriq (yoki savol)lar.

3. Foydalanish uchun adabiyotlar ro'yxati.

4. Metodik ko'rsatmalar.

5. Keysni yechish jarayoni (tahlil va yechim variantlarini ilgari surish, variantlar maqbulligini tekshirish).

6. Keys yechimi bo'yicha taqdimotni tashkil etish.

7. Keys yechimini tahlil qilish.

8. O'qituvchi (keysolog)ning yechimi.

Ta'lim jarayonida o'quv keyslarini qo'llashda jarayon (mashg'ulot) yakunida, albat-ta, o'qituvchi (keyolog)ning yechimi taqdim etilishi zarur. Buning didaktik ahamiyati bu yechim asosida talabalarning o'z o'quv-bilish harakatlarining qanchalik to'g'ri, samara-li, maqsadga muvofiq amalga oshira olganliklarini tahlil qilish, solishtirish, yo'l qo'ygan xatolarini aniqlash imkoniyatini yaratishi bilan belgilanadi.

Keyslar tipologiyasida o'quv topshirig'ini taqdim etish usuli savolli hamda top-shiriqli bo'lishi ko'rsatilgan. Shunga ko'ra talabalarning e'tiborlariga havola etiladigan keyslar yoki savolli, yoki topshiriqli bo'lishi mumkin.

Agar keys savolli keys bo'lsa, u holda muammo yoki muammoli vaziyatni tahlil qilish va yechishga oid bir necha savollar keltiriladi. Misol:

1. Yoshlarning “ommaviy madaniyat” ta'siriga berilishining asosiy omillari nimalar-dan iborat?

2. Yoshlarning “ommaviy madaniyat” ta'siriga berilishlarida OAVning o'rni va rolini qanday aniq dalillar asosida baholay olasiz?

Agar keys topshiriqli keys bo'lsa, u holda keysni yechish jarayonida bajarilishi zarur bo'lgan topshiriqlar beriladi. Misol:

1. Yoshlarni “ommaviy madaniyat”ning salbiy ta'siridan himoyalash omillarini aniqlang.

2. Yoshlarda “ommaviy madaniyat”ga qarshi immunitetni samarali shakllantirish yo'llarini belgilang.

Odatda keyslarni tayyorlashda darslik va o'quv qo'llanmalardan, balki ommaviy axborot vositalari, jumladan, Internet materiallaridan ham maqsadli foydalanish mum-kin.

Pedagogik turkum fanlarni o'qitishda qo'llaniladigan keyslarni ularning xarakteriga ko'ra B.Blum taksonomiyasi (bilish-tushunish-anglash-tahlil-sintez-qo'llash)ga muvofiq bir necha guruhga ajratish mumkin. Xususan:

1) pedagogik bilimlardan xabardorlikni aniqlashga yordam beradigan;

2) pedagogik faoliyat, hodisa yoki jarayon mohiyatini tushunish holatini belgilashga xizmat qiladigan;

3) ta'lim va tarbiya jarayonlari, pedagogik faoliyat hamda hodisalarning tarkibiy elementlari o'rtasidagi o'zaro birlik va aloqadorlikni anglash hamda tahlil qilishga yo'naltirilgan;

4) pedagogik faoliyat hamda hodisaning tarkibiy elementlarini tizimlashtirish, sintezlash, bosqichlarni izchil ifodalashni taqozo etadigan;

5) pedagogik bilimlarni amalda qo'llash, mavjud ko'nikma va malakalarni to'laqonli namoyon etishga doir keyslar.

Pedagogik turkum fanlarni o'qitishda ushbu keyslardan samarali, maqsadli va o'rinni foydalanish uchun zarur sharoitlar mavjudligi aniqlandi. Quyidagi misollar ushbu fikrning to'g'riligini tasdiqlaydi.

1. Pedagogik bilimlardan xabardorlikni aniqlashga yordam beradigan keys.

Keys bayoni. Sobir o'rta maktabning 9-sinfini tamomladi. Shahodatnomasida "uch" baholar ko'p bo'lganligi, salbiy xulqqa egaligi sababli, Sobir hech bir kasb-hunar kollejiga qabul qilinmadi. Har bir kollejning rahbari Sobirni boshqa akademik litsey va kasb-hunar kollejiga kirishini tavsiya etdi. Biroq Sobirning ota-onasi har gal o'g'illarini o'zlari yashaydigan tumandagi kasb-hunar kollejida ta'lim olishini, shundagina uni nazorat qilib turishlari mumkinligi aytishardi.

Keys savollari:

1. Ayting-chi, kasb-hunar kollejlarning rahbarlari Sobirni o'qishga qabul qilmaslikka haqlimi?

2. Ayni vaziyatda Sobirning qanday huquqlari buzilyapti?

Keys yechimi. Kasb-hunar kolleji rahbarlari ijtimoiy xavf bo'lmagan holda "uch" bahoga o'qiganligi va xulqida salbiy holatlar ko'zga tashlanishi uchungina Sobirni o'qitishga qabul qilmaslikka haqli emaslar. Ular shaxsning bilim olishga bo'lgan huquqini poymol etishgan. Qolaversa, kasb-hunar kollejlarda ta'lim olish majburiy-ixtiyoriy xarakterga ega. Shu sababli Sobir va uning ota-onasi kasb-hunar kollejini o'zlari tanlay oladi.

Bordi-yu, kollejga qabul qilish sinov, imtihonlar asosida olib borilsa va Sobirning o'zi ularga puxta tayyorlanmaganligi sababli sinovdan o'ta olmasa, u holda mazkur kasb-hunar kollejiga qabul qilinmaydi.

Bu vaziyatda Sobirning bilim olish huquqi (O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunining 4-moddasi) poymol etilganligi sababli kasb-hunar kollejlarning rahbarlari ma'muriy javobgarlikka tortiladi.

2. Pedagogik faoliyat, hodisa yoki jarayon mohiyatini tushunish holatini belgilashga xizmat qiladigan keys.

Keys bayoni. Uzoq yillik ish tajribasiga hamda talabalar o'rtasida alohida hurmatga ega tarix fani o'qituvchi auditoriyaga kirib, doskada o'zining karikatura janrida ishlangan rasmini ko'radi. Karikatura yorqin bo'lib, har bir shtrix aniq ishlangan, qolaversa, rasm juda kulgili chiqqan. Butun guruh o'qituvchining karikaturasiga, uning ijodkoriga nisbatan munosabatini kutaypti. Biroq o'qituvchi shoshilmasdan, katta qiziqish bilan karikaturani tomosha qiladi va shunday dedi: "Karikatura shunchalik yaxshi chiqibdi,

uni hatto o'chirgim kelmayapti. Rasm ijodkori – yosh rassom uni qog'ozga ko'chirib olishi kerak. Men karikaturist (rassom)ni munosib baholayman!"

Keys savollari: 1. O'qituvchining mavjud vaziyatdagi holatini shaxsan siz qanday baholaysiz?

2. Bu vaziyatda o'qituvchi qanday tarbiya metodini qo'lladi?

Keys yechimi. Bu vaziyatda o'qituvchi o'zining tarjibali va pedagogik nazokatga egaligini namoyon eta oldi. U karikaturani o'zining ustidan kulish vositasi deb emas, aksincha, san'at asari sifatida qabul qildi. Natijada o'qituvchi aybdor talabani qidirib, unga tanbeh berishni istamadi. Buning o'rniga o'zining san'atga bo'lgan muhabbatini ko'rsatdi. Bunday yondashuv talabalarga o'qituvchining irodali, o'ziga hurmat bilan munosabatda bo'lish, hissiyotlarini jilovlay olish, o'z-o'zini boshqara bilish qobiliyatiga egaligini ko'rsatdi. Oqibatda talabalar o'qituvchining ruhan barqaror ekanliklarini ang-ladi. Shu sababli keyingi safar ular o'qituvchini kamsitish yoki ustidan kulishni istash-maydi.

Bayon etilgan vaziyatda o'qituvchi:

1) izohlash (o'zida muayyan guruh yoki alohida shaxsga yo'naltirilganlikni ifodalov-chi hissiy-og'zaki ta'sir etish usuli);

2) xulq va faoliyatni rag'batlantirish metodlaridan biri bo'lgan – qo'llab-quvvatlash metodidan foydalandi.

3. Ta'lim va tarbiya jarayonlari, pedagogik faoliyat hamda hodisalarning tar-kibiy elementlari o'rtasidagi o'zaro birlik va aloqadorlikni anglash hamda tahlil qilishga yo'naltirilgan keys.

Keys bayoni. Tarix fani o'qituvchisi bir soatlik darsida quyidagi xatti-harakatlarni amalga oshirdi:

1) ma'lumotlarni izchil bayon qildi;

2) zarur o'rinlarda tayanch tushunchalarga alohida urg'u berdi;

3) xaritadan tarixiy voqelar sodir bo'lgan joylarni ko'rsatdi;

4) vaqti-vaqti bilan talabalarga savollar berib, ulardan javoblar oldi;

5) o'quv filmi orqali tarixiy voqelikka oid dalillarni namoyish etdi.

Keys topshirig'i. O'qituvchining xatti-harakatlari qanday metodlar yordamida amal-ga oshirilganligini aniqlang.

Keys yechimi. Tarix fani o'qituvchisi qo'llagan metodlar: 1) hikoya; 2) tushuntirish; 3) tasvirlash; 4) suhbat; 5) namoyish.

4. Ta'lim va tarbiya jarayonlari, pedagogik faoliyat hamda hodisaning tarki-biy elementlarini tizimlashtirish, sintezlash, bosqichlarni izchil ifodalashni taqo-zo etadigan keys.

Keys bayoni. Mashq bajarishni tashkil etish bosqichlari:

1) o'qituvchi nazorati ostida o'quvchilar tomonidan o'quv harakati;

2) zarur ko'nikma va malakalar shakllangunicha o'quv harakatlarning ko'p bora takrorlanishi;

3) dastlabki bajarilishi o'qituvchining faoliyat maqsadi va mazmunini tushuntirishi;

4) topshiriqni bajarish ketma-ketligini ko'rsatishi.

Ushbu holatda mashq bajarishni tashkil etish bosqichlari noto'g'ri ko'rsatilgan.

Keys topshirig'i. Mashq bajarishni tashkil etish bosqichlarini zarur izchillikda ifo-dalang.

Keys yechimi. Mashq bajarishni tashkil etish bosqichlari:

1) o'qituvchining faoliyat maqsadi va mazmunini tushuntirishi;

2) topshiriqni bajarish ketma-ketligini ko'rsatishi;
3) o'qituvchi nazorati ostida o'quvchilar tomonidan o'quv harakatining dastlabki bajarilishi;


4) zarur ko'nikma va malakalar shakllanganicha o'quv harakatlarning ko'p bora takrorlanishi.

5. Pedagogik bilimlarni amalda qo'llash, mavjud ko'nikma va malakalarni to'laonli namoyon etishga doir keys.

Keys bayoni. Og'zaki bayon qilish metodlari o'quvchilarning umumiy madaniyati, mantiqiy fikrlash va bilish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Keys topshirig'i. Og'zaki bayon qilish metodi turlarini "Baliq skeleti" grafik organayzerida ifodalang.

Keys yechimi:



Xulosa qilib aytganda, zamonaviy o'qitishda muammoli ta'lim muhim ahamiyatga ega. Muammoli ta'lim texnologiyalari talabalarda fikrlash, qaror qabul qilish, o'z fikrini asoslash qobiliyatini shakllantirishga yordam beradi. Bu kabi texnologiyalar orasida "Keys-stadi" texnologiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Keys-stadidan ta'lim jarayonida o'rinli, maqsadli va izchil foydalanish o'qitish sifatini yaxshilash, samaradorligini oshirish, shu bilan birga talabalarning o'quv-bilish faoliyatini faollashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. *Innovatsion ta'lim texnologiyalari.* / Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To'rayev A.B. – T.: Sano standart nashriyoti, 2015. 81-b.

2. Долгоруков А. Метод case-study как современная технология профессионально-ориентированного обучения: http://www.vshu.ru/lections.php?tab_id=3&a=info&id=2600.

3. Савельева М.Г. Педагогические кейсы: конструирование и использование в процессе обучения и оценки компетенций студентов / Учеб.-мет. пособие. – Ижевск: ФГБОУВПО "Удмуртский университет", 2013. – С. 9.

4. Сборник кейсов для вузов по дисциплинам гуманитарного и социально-экономического цикла / Учеб.-мет. пособие. – СПб.: Изд-о Санкт-Петербургского университета управления и экономики, 2015. – С. 3.

Ulug'bek INOYATOV,

pedagogika fanlari doktori, professor

Qudratjon INOQOV,

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi mas'ul xodimi

HAMKORLIK PEDAGOGIKASI ASOSIDA TA'LIM-TARBIYA SIFATINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Annotatsiya

Maqolada xalq ta'limi tizimida hamkorlik pedagogikasi konsepsiyasini amalga oshirishning yo'llari va vositalari bayon etilgan. Ushbu konsepsiyaning asosiy maqsadi – har bir bolaning hayotda o'z o'rnini topib, o'z baxti uchun zamin yaratishiga, el-yurt oldidagi mas'uliyatini seza oladigan, vatanparvar bo'lishiga qaratilgani ta'kidlangan. Shuningdek, hamkorlik pedagogikasi asosida ta'lim-tarbiya sifatini boshqarishning muhim vazifalariga e'tibor berilgan.

Kalit so'zlar. Hamkorlik pedagogikasi, "Oila – mahalla – ta'lim muassasasi" hamkorligi, ta'lim-tarbiya sifatini boshqarish, o'qitish, tarbiyalash, yo'nalish, ishtirokchi.

В статье освещены пути и средства реализации концепции педагогического сотрудничества в системе народного образования. Основная цель концепции – создать условия для определения каждым ребёнком своего места в обществе, достижения благополучия, формирования чувства долга и ответственности перед Родиной. Определены приоритетные задачи управления качеством образования на основе педагогического сотрудничества.

Ключевые слова. Педагогическое сотрудничество, сотрудничество "Семья-махаля-образовательное учреждение", управление качеством образования, обучения, воспитания, направление, участник.

The article highlights the ways and means of implementing the concept of pedagogical collaboration in the educational system. The main objective of the concept is to create the conditions to determine each child's place, achieving wellbeing, formation of a sense of duty and responsibility to the homeland. Identified priority tasks of education quality management through pedagogic collaboration.

Key words. Pedagogic collaboration, education quality management, training, direction, participant.

Yangi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning shakllanishi davrida ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan keng ko'lamlı o'zgarishlar va tub islohotlar, albatta, hayotning o'zi taqozo qilgan u yoki bu muammolar va masalalar bilan to'qnashadi. Bu – qonuniy va tabiiy rivojlanish jarayoni. Shu bois ta'limning barcha bosqichlaridagi boshqaruvchilarning vazifasi – mazkur muammolarga o'z vaqtida yechim topish va shu orqali butun tizimning rivojlanishini ta'minlashdan iborat.

Bugungi o'zgarishlar davrida jamiyatimiz hayotida murakkab, lekin davr taqozo qilgan tub ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Jamiyatda, iqtisodiyotda, umuman, hayotimizning barcha jabhalaridagi bunday olamshumul o'zgarishlarning amalga oshirilishi o'zimizning ham o'zgarishimizni, ya'ni o'zligimizni anglashni talab qiladi. Bu masala oldimizga qo'yilgan vazifalarning eng murakkabi desak, adashmaymiz.

Davr taqozo qilayotgan bunday vazifalarni muvaffaqiyat bilan bajarish uchun yosh avlod oldida – yangi bilimlarni egallash va uni amaliyotga tatbiq etish masalasi dolzarb bo'lib turibdi. Jahon tajribasining ko'rsatishicha, bu bilimlarning eng muhim tarkibiy qismi – boshqarish san'ati va fani ekanligini bildirmoqda.

Ta'kidlash joizki, boshqarishning zamonaviy nazariyalari hayotning barcha muammolariga tayyor yechimlar topib bera olmaydi. Shuning uchun tadqiqotimizda rivojlangan G'arb va Sharq mamlakatlari yutuqlari bilan hayratlanish davri o'tib ketganligini, urushlar, turg'unlik va inqirozlarni boshidan kechirgan bu mamlakatlarning olamshumul muvaffaqiyatga erishganligini, ularning tajribasini jiddiy o'rganish hamda yechimini izlashga tanqidiy va konstruktiv yondashish davri kelganligini nazarda tutdik.

Tadqiqotimizga turtki bo'lgan g'oyani ilgari surishda asosiy diqqat-e'tiborimizni bir tomondan, aynan ta'lim tizimini boshqarish uchun muhim bo'lgan, ikkinchi tomondan esa, uning O'zbekiston sharoitida qo'llanilishi mumkin bo'lgan manbalarga qaratishga harakat qildik.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, demokratik huquqiy davlat, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti va kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etish kabi maqsadlardan iborat bo'lgan o'z taraqqiyot yo'lini aniq belgilab oldi. Shu yo'lda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar markazida, avvalo, inson omili, uning manfaatlar ustuvor o'rin tutadi. Jismonan sog'lom, ma'naviy yetuk, yuksak intellektual salohiyat, zamonaviy bilimlarga ega, mustaqil fikrlaydigan, kelajakka ishonch bilan qaraydigan barkamol avlodni tarbiyalash haqida g'amxo'rlik qilish ushbu siyosatning muhim yo'nalishidir.

Hayotga izchil tatbiq etilayotgan, o'z taraqqiyot yo'limiz – "o'zbek modeli"ning ajralmas tarkibiy qismi bo'lgan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun hamda Kadrlar tayyorlash milliy dasturi bugungi kunda ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy sohalaridagi rivojlanishni ta'minlayotgan amaliy dastur sifatida yaqqol namoyon bo'lib, dunyoning rivojlangan davlatlari hamda xalqaro ekspertlar tomonidan "O'zbekistonning kadrlar tayyorlash milliy modeli" sifatida e'tirof etilmoqda.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida qayd etilishicha, ta'lim oluvchilarga shart-sharoit yaratishda jamoatchilik boshqaruvini rivojlantirishga, shuningdek, mustaqil davlatimiz prinsiplariga sadoqatli hamda jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo'shishga qodir shaxsni shakllantirish maqsadida ta'lim muassasalari, ota-onalar, mahalla fuqarolar yig'inlari, Respublika Ma'naviyat targ'ibot markazi, "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati kabi ko'plab jamoat tashkilotlari bilan o'zaro puxta hamkorlik qilishga alohida e'tibor berilgan.

Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 19-iyundagi "Barkamol avlodni tarbiyalashda oila instituti va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining ta'lim muassasalari bilan o'zaro hamkorligini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori,

Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi “Oila – mahalla – ta'lim muassasasi” hamkorligi Jamoat kengashining yig'ilishi №1-sonli bayoni bilan tasdiqlangan “Barkamol avlodni tarbiyalashda oila, mahalla va ta'lim muassasasi hamkorligi konsepsiyasi”, aytilish joizki, o'quv-tarbiya jarayoniga hamkorlik pedagogikasini joriy etish ehtiyojini yuzaga keltirdi.

Hamkorlik pedagogikasi konsepsiyasining eng asosiy maqsadi – har bir bolaning hayotda o'z o'rnini topib, o'z baxti uchun zamin yaratishiga, el-yurt oldidagi mas'uliyatini seza oladigan, vatanparvar bo'lishiga qaratilgan.

Ta'lim-tarbiya jarayonining sifati, eng avvalo, quyidagi bir qator muhim omillarga bog'liq:

- o'qituvchilarning zamonaviy talablar asosida yaratilgan sharoitlardan samarali foydalanib, ilg'or pedagogik hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida darslarni tashkil etishi;

- o'quvchilarda zarur bilimlar va hayotiy ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan hamda bola shaxsini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim yondashuvini samarali joriy etilishi;

- ta'lim-tarbiya jarayonini hamkorlik pedagogikasi asosida tashkil etilishi;

- o'qituvchining pedagogik ehtiyojiga asoslangan metodik xizmatning samarali yo'lga qo'yilganligi;

- o'quvchilar tomonidan davlat ta'lim standartlarida belgilangan bilim, ko'nikma va malakalarning o'zlashtirish dinamikasini tizimli kuzatish, o'quvchilar bilimidagi bo'shliqlar va ularning kelib chiqish sabablarini aniqlash hamda bartaraf etishga doir chora-tadbirlarni samarali amalga oshirish va h.k.

Eng avvalo, ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligi, zamonaviy talablarga javob beradigan bilim va ko'nikmalarni shakllantirish ko'p jihatdan barcha maktablarimizda zamonaviy talablar asosida yaratilgan sharoitlardan samarali foydalanib, barkamol avlodni tarbiyalashda “oila – mahalla – ta'lim muassasalari” hamkorligi konsepsiyasining maqsad va vazifalarini amaliyotga joriy etilishiga bog'liq.

Shu bilan birga, o'tgan davr mobaynida kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlarni amalga oshirishni taqozo qiladigan bir qator jiddiy muammolar yuzaga keldi.

Jumladan, hamkorlik pedagogikasining metod, vositalari va texnologiyalari ilmiy-metodik jihatdan asoslanmagan. Bu pedagogik amaliyotda ham o'z ta'sirini ko'rsatib, o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berish jarayonida o'zining salbiy jihatini ko'rsatmoqda.

So'nggi yillarda ta'lim tizimiga yangicha yondashuvlar ta'sirida ta'lim muassasalari faoliyatini takomillashtirishning muhim belgisi sifatida – uni boshqarishga texnologik yondashuv muammosi tadqiq etilmoqda. Shuningdek, ta'lim menejmenti nazariyasi va amaliyoti ta'lim muassasasini ilmiy-metodik asosda boshqarish zarurligini ko'rsatmoqda.

Zamonaviy iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy rivojlanishning o'ziga xosligi shundan iboratki, jamiyatimiz tomonidan har bir shaxsning rivojlanishi uchun yangidan-yangi talablar qo'yilmoqda. Shu bois pedagogik jamoatchilikning asosiy e'tibori pedagogik jarayonlarni unda ishtirok etadigan barcha ijtimoiy institutlarning faoliyatini muvofiqlashtirish va takomillashtirishga qaratilgan.

Hozirgi kunda hamkorlik pedagogikasi muammosining dolzarbligiga quyidagilar asos bo'lmoqda:

Birinchidan, jamiyatda ijtimoiy va pedagogik jarayonlar amalga oshirilayotganligi (munosabatlarning insonparvarlashuvi va demokratlashuvi, inson faktori rolining kuchayayotganligi, innovatsion jarayonlar asosida ta'lim-tarbiya sifatining oshayotganligi, butun xalqning ta'limga, maktabga uning muammolariga e'tiborining oshayotganligi va h.k.);

Ikkinchidan, umumiy, ommaviy pedagogik amaliyotning holati (ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilarga yetarli darajada pedagogik qo'llab-quvvatlashning berilmayotganligi, ularning o'quv-tarbiya jarayonidan qoniqmayotganliklari, ta'lim beruvchilar tomonidan ta'lim oluvchilarga munosabatlarni o'zgartirish zarurligini tushunmasliklari, bilmasliklari va ayrim hollarda xohlamasliklari va h.k.);

Uchinchidan, pedagog – amaliyotchilarning innovatsiyalarga intilishlari (bola shaxsini rivojlantirishga qaratilgan ta'lim-tarbiya berishning innovatsion texnologiyalarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish va h.k.).

Ko'pgina ilmiy-tadqiqot ishlarida "hamkorlik", "sharikchilik", "muvofiglashish", "birgalikdagi harakat" tushunchalari sinonimlar sifatida ishlatib kelingan. Bizning fikrimizcha, "hamkorlik" tushunchasi keng qamrovli bo'lib, umumiy maqsadlarga erishish uchun birgalikdagi harakat deb qabul qilinishi mumkin.

Hamkorlik pedagogikasi konseptual g'oyalarini amalga oshirishning asosiy yo'llari va vositalari

Yo'llari	Vositalari
O'qitish	Ta'lim olishga bo'lgan qiziqish, o'qishga majbur qilmaslik, nazariy materiallarni modul-blok ko'rinishida taqdim etish, o'quv materiallarini doimiy tushuntirib borish va mustahkamlash, doimiy, tizimli qayta aloqa, o'quv holatlaridagi ziddiyatlarga yo'l qo'ymaslik, ta'lim oluvchilar uchun sinf xonalaridagi qulaylik, variativ va ko'p bora takrorlash orqali bilimlarni egallash, bilimlarni baholashning variativligi, guruhlarda ishlash, o'quv faniga, predmetiga qiziqish
Tarbiyalash	Jamoaviy ijodiy faoliyat, mehnat, mehnatga bo'lgan qiziqishni shakllantirish, ma'naviy-ma'rifiy tarbiya, insonparvarlik va bag'rikenglik ruhidagi munosabat, bolalar va yoshlar ijtimoiy harakatlarga birlashish, ijodiy topshiriqlarni bajarish, nashrlar tashkil etish, kundaliklar yuritish, muzeylar, teatrlar va boshqa ijtimoiy muassasalar bilan birgalikda faoliyatlarini muvofiglashtirish, ijodiy faoliyat bilan shug'ullanish
Mustaqil ta'lim-tarbiya olish, mustaqil rivojlanish	Ichki qiziqish, o'z-o'zini nazorat qilish, o'z ish natijalarini baholay olish va o'z faoliyatini nazorat qilish, o'quv-o'zlashtirish va tarbiya jarayonini mustaqil belgilash
Ta'lim beruvchilar bilan ota-onalarning hamkorligi	Ota-onalar majlislari, ochiq eshiklar kuni, darslarga tashrif buyurish, psixologik maslahatlar, ota-onalar kengashlarini tashkil etish, ota-onalar huzurida ta'lim beruvchilar va ta'lim oluvchilar ijodiy hisobotlarini tinglash, ota-onalarni darsdan tashqari tadbirlarga taklif etish

O'zini o'zi boshqarish organlari (mahalla) va ta'lim muassasalari hamkorligi	Ota-onalar majlislari, ochiq eshiklar kuni, darslarga tashrif buyurish, psixologik maslahatlar, ota-onalar kengashlarida ishtirok etish, ta'lim beruvchilar va ta'lim oluvchilar ijodiy hisobotlarini tinglash, darsdan tashqari tadbirlarni tashkil etishda ishtirok etish, mehnat, mehnatga bo'lgan qiziqishni shakllantirish, ma'naviy-ma'rifiy tarbiya, insonparvarlik va bag'rikenglik ruhidagi munosabatni shakllantirish
Jamoat tashkilotlari va ta'lim muassasalari hamkorligi	Ota-onalar majlislari, ochiq eshiklar kuni, darslarga tashrif buyurish, psixologik maslahatlar, ota-onalar kengashlarida ishtirok etish, ta'lim beruvchilar va ta'lim oluvchilar ijodiy hisobotlarini tinglash, darsdan tashqari tadbirlarni tashkil etishda ishtirok etish, jamoaviy ijodiy faoliyat, mehnat, mehnatga bo'lgan qiziqishni shakllantirish, ma'naviy-ma'rifiy tarbiya, insonparvarlik va bag'rikenglik ruhidagi munosabat, bolalar va yoshlar ijtimoiy harakatlariga birlashish, ijodiy topshiriqlarni bajarish, muzeylar, teatrlar va boshqa ijtimoiy muassasalar bilan birgalikda faoliyatni muvofiqlashtirish
Huquq-tartibot organlari va ta'lim muassasalari bilan hamkorlik	Ota-onalar majlislari, ochiq eshiklar kuni, darslarga tashrif buyurish, jinoyatchilikni oldini olish (profilaktika), ota-onalar kengashlarida ishtirok etish, ta'lim beruvchilar va ta'lim oluvchilar bilan muntazam suhbatlar o'tkazish, darsdan tashqari tadbirlarni tashkil etishda ishtirok etish, ma'naviy-ma'rifiy tarbiya, insonparvarlik va bag'rikenglik ruhidagi munosabatni shakllantirish
O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari va xalq ta'limi muassasalari bilan hamkorlik	Ota-onalar majlislari, ochiq eshiklar kuni, darslarga tashrif buyurish, kasb-hunarga yo'llash, psixologik maslahatlar, ota-onalar kengashlarida ishtirok etish, kasb-hunarga yo'llash bo'yicha darsdan tashqari tadbirlarni tashkil etish, jamoaviy ijodiy faoliyat, mehnat, mehnatga bo'lgan qiziqishni shakllantirish, ma'naviy-ma'rifiy tarbiya, insonparvarlik va bag'rikenglik ruhidagi munosabat, bolalar va yoshlar ijtimoiy harakatlariga birlashish
Bo'lajak pedagoglarni tayyorlash	Pedagogik sinflarni, guruhlarini tashkil etish, talabalarni bevosita pedagogik faoliyat bilan tanishtirish, ilg'or, tajribali pedagoglar faoliyatini o'rganish, hamkorlik pedagogikasi asoslari bilan tanishtirish

Hamkorlik pedagogikasining keng ma'nodagi mohiyati – bu ta'lim sohasidan manfaatdor, ushbu sohaga qiziqishi bo'lgan tomonlarning talab va ehtiyojlari o'rtasidagi mutanosiblikni (balansni) izlash, amaliyotga tezkor joriy etish jarayonidir. Shuningdek, mazkur hamkorlik ta'lim sohasidan manfaatdor, ushbu sohaga qiziqishi bo'lgan ishtirokchilar tomonidan ishlab chiqilgan ma'lum ma'nodagi standartlar, modellar (sifatlar, fazilatlar, talablar, me'yorlar va h.k.) asosida ta'minlanadi.

Hamkorlik pedagogikasi asosida ta'lim-tarbiya sifatini boshqarish – bu ta'limni boshqarish muassasalari, mahalliy davlat boshqaruv organlari, o'zini o'zi boshqarish organlari, huquq-tartibot idoralari, jamoat tashkilotlari va oilalar manfaatlarini muvofiqlashtirib, ta'lim sifatini amaldagi qonunchilik, davlat ta'lim standartlari va xalqaro standartlar asosida ta'minlashdir.

Hamkorlik pedagogikasi asosida ta'lim-tarbiya sifatini boshqarishning asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:


- joriy va strategik boshqaruv samaradorligini tahlil qilish mexanizmini ishlab chiqish va amalga oshirish, boshqaruv qarorlarini qabul qilish va ularning ijrosini nazorat qilish;

- ta'limni boshqarish muassasalari, mahalliy davlat boshqaruv organlari, o'zini o'zi boshqarish idoralari, huquq-tartibot organlari, jamoat tashkilotlari va oilalar manfaatlarini ustuvor bilish, ularning huquq va manfaatlari buzilgan hollarda himoya qilishning samarali usullaridan foydalanish;

- ta'lim sohasidan manfaatdor, ushbu sohaga qiziqishi bo'lgan tomonlarning talab va ehtiyojlari o'rtasidagi mutanosiblikni (balansni) ta'minlash.

Ilmiy tadqiqotimiz muammosiga bag'ishlangan ilmiy-pedagogik, o'quv-metodik nashrlarning tahlili hamkorlik pedagogikasining asosiy prinsiplari va konseptual g'oyalarini ta'lim muassasalari amaliyotida joriy etilganlik va ulardan foydalanish samaradorligi darajasini baholash mezonlari va ko'rsatkichlarini ishlab chiqish imkonini berdi.

Umumiy o'rta ta'lim muassasining asosiy hamkorlik yo'nalishlari



O'rganib chiqilgan manbalar, adabiyotlar, zamonaviy konsepsiyalar, texnologiyalar va tajribalarga asosan, umumiy o'rta ta'lim tizimida hamkorlik pedagogikasi asosida ta'lim-tarbiya sifatini boshqarishni takomillashtirishning quyidagi tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarni ishlab chiqdik, bular:

1. Umumiy o'rta ta'lim muassasalari jamoalarini, xususan, pedagoglarni hamkorlik pedagogikasi prinsiplari va konseptual g'oyalarini bilishga hamda amaliyotga joriy etishga yo'llash;

2. Barcha ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari va hamkorlar (o'zini o'zi boshqarish organlari (mahalla), jamoat tashkilotlari, huquq-tartibot idoralari, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari va h.k.) faoliyatini muvofiqlashtirgan holda yaxlit pedagogik jarayon tashkil etish;

3. Umumiy o'rta ta'lim tizimida hamkorlik pedagogikasi asosida ta'lim-tarbiya sifatini boshqarish modelini xalq ta'limi tizimi ta'lim muassasalari amaliyotiga joriy etish;

4. Jamoaviy ta'lim-tarbiya g'oyasini inobatga olgan holda ta'lim-tarbiya jarayoni-niing variativ texnologiyalarini amaliyotga joriy etish;

5. Talabalarni, bo'lajak pedagoglarni, pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ma-lakasini oshirish institutlari tinglovchilarini hamkorlik pedagogikasi prinsiplari va kont-septual g'oyalari, shuningdek, ularni amalga oshirish texnologiyalari bilan tanishtirish;

6. Ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari va hamkorlar faoliyati muvofiqlashtirilgan holdagi yaxlit pedagogik jarayon modelining natijasi o'laroq – barkamol avlod, ijtimoi-y faol, ijodkor, informatsion-kommunikativ kompetentlikka ega bo'lgan ta'lim beruv-chi va ta'lim oluvchi shaxsni shakllantirish.

Shunday qilib, hamkorlik pedagogikasi yo'nalishlarining va hozirgi kundagi ama-liyot va tajribalarning tahlili shuni ko'rsatadiki, umumiy o'rta ta'lim tizimida hamkorlik pedagogikasi asosida ta'lim-tarbiya sifatini boshqarish modelini, hamkorlik pedagogi-kasi prinsiplari va konseptual g'oyalarini amaliyotga joriy etish yo'nalishlari va daraja-sini, uni amaliyotda samarali qo'llash jarayonini baholashning mezonlari va ko'rsat-kichlari – umumiy o'rta ta'lim tizimida hamkorlik pedagogikasi asosida ta'lim-tarbiya sifatini boshqarishni takomillashtirishning tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarini ya-ratish imkonini berdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq, 1997.

2. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T., Sharq, 1997.

3. Djurayev R.X., Turg'unov S.T. Ta'lim menejmenti. – T.: Voris-Nashriyot, 2012. 167-b.

4. Mirqosimov M. Maktabni boshqarishning nazariy va pedagogik asoslari. – T.: O'qituvchi, 1995. 159-b.

5. Saifnazarov I., Nikitchenko G., Qosimov B. Ilmiy ijod metodologiyasi. – T.: Yangi asr avlodi, 2004. 199-b.

6. Turg'unov S.T. Umumiy o'rta ta'lim muassasalari direktorlari boshqaruv faoli-yatining nazariy asoslari: Dis. d-r ped. nauk.. – T., 2007. 368-b.

7. Sharipov SH. Ta'lim jarayonlari sifatini oshirish – tayyorlanayotgan kadrlar bandligini ta'minlash omili sifatida. – /http://dr-sharipov.com, 2014.

8. Sharifxo'jayev M., Abdullayev Yo. Menejment. Darslik. – T.: O'qituvchi, 2001. 702-b.

9. Qurbonov Sh., Seytxalilov E. Ta'lim sifatini boshqarish. – T.: Turon-Iqbol, 2006. 592-b.

10. Quronov M. Maktab ma'muriyati va milliy tarbiya. – T.: Fan, 1999.

11. G'ulomov S. S. Menejment asoslari. – T.: Sharq, 2002. 366-b.

12. Иноятгов У.И. Теоретические и организационно-методические основы управления и контроля качества образования в профессиональном колледже: дисс.докт.пед. наук : 13.00.01 / У.И.Иноятгов; – Т., 2003. – С. 236.

13. Иноятгов У.И. Инновационный характер управления качеством обра-зования внутри колледжа // Касб-хунар таълими журнали. – 2001. – №6. – С. 28-31.

Dildora HAKIMOVA,

T.N. Qori Niyoziy nomidagi O'zPFITI katta ilmiy xodim-izlanuvchisi

ZAMONAVIY YONDASHUV ASOSIDA O'QUVCHILARDA REFLEKSIV KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH JARAYONLARI

Annotatsiya

Maqolada umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilarida refleksiv ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan jarayonlarni tashkil etish va boshqarishda tizimli, vaziyatli, muvofiqlashtirilgan, refleksiv, korporativ kabi zamonaviy yondashuvlarni tatbiq etishning mazmun-mohiyati va ahamiyati haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar. Refleksiv ko'nikma, tarix saboqlari, tarixiy haqiqat, tizimli yondashuv, vaziyatli yondashuv, refleksiv yondashuv, korporativ, etnik yondashuv.

Статья посвящена вопросам формирования у учащихся рефлексивных навыков, научно обоснована необходимость внедрения современных подходов в процесс управления, таких как системный, ситуативный, координированный, рефлексивный, корпоративный и другие.

Ключевые слова. Рефлексивный навык, уроки истории, исторические события, системный подход, ситуативный подход, координационный подход, рефлексивный подход, корпоративный подход, этнический подход.

The article development of students' research skills of reflective necessity to introduce modern approaches in management process, such as the system, situational, coordinated, reflexive, corporate and other.

Key words. Reflexive skill lessons of history, historical events, system approach, situational, coordination approach, reflexive approach, corporate approach, an ethnic approach, national and regional approach, innovative technologies, professional competence.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 12-yanvar kuni Oliy Majlis Qonunchilik palatasining birinchi tashkiliy yig'ilishdagi ma'ruzasida yoshlar tafakkurini rivojlantirishning zaruriyati haqidagi: "Unib-o'sib kelayotgan yoshlarimizni tarix saboqlari bilan, tarix haqiqati bilan qurollantirish lozim. Maktablarimizda, litsey va kollejlarda, oliy o'quv yurtlarimizda ayni shu mavzularni xolis va haqqoniy yoritib berishga yanada ko'proq e'tibor qaratishimiz kerak", deb aytgan fikrlari umumiy o'rta ta'lim muassasalari (UO'TM) o'quvchilarini tarix saboqlari va tarixiy haqiqatlar bilan izchil va muntazam tanishtirib borish asosida ularda o'tmishimiz haqida obyektiv xulosalar shakllantirish muhim ahamiyatga ega ekanligini ifodalaydi.

Biron bir voqe'lik yoki hodisani, o'tmishni yoki o'tmishdagi jarayonlarning oqibatlarini o'rganish, tahlil qilish va obyektiv baholashga tizimli va uzluksiz o'rgatib borish UO'TM o'quvchilarida refleksiv ko'nikmalar shakllantirish va rivojlantirishda o'ziga xos ahamiyatga ega bo'lgan jarayonlar hisoblanadi. Mazkur jarayonlarning samaradorligi

esa, qo'llaniladigan metodlar va tatbiq etiladigan yondashuvlarning ahamiyati va o'ziga xos xususiyatlariga hamda vaziyatlarga ko'ra to'g'ri tanlanish darajasiga bog'liq bo'ladi. Shuningdek, beriladigan axborot va ma'lumotlar hajmi hamda mazmun-mohiyatiga ko'ra o'quvchilarning boshlang'ich tushunchalari va imkoniyatlariga mos kelishi, axborot va ma'lumotlarning aniqligi, ishonchli dalillar asosida qiyosiy tahlil qilinishi ham samaradorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

UO'TM o'quvchilarida refleksiv ko'nikmalar shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarining sifat va samaradorligi, eng avvalo, mazkur jarayon subyektlarining mahorati, tashkilotchilik, ijodkorlik va izlanuvchanlik qobiliyati, bir so'z bilan aytganda ularning kasbiy kompetentligiga bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan refleksiv ko'nikmalar shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarini tashkil etish va boshqarish texnologiyalarining maqsadi va vazifasiga ko'ra ulardan to'g'ri va samarali foydalanishga bog'liq bo'ladi.

Adabiyotlarda refleksiya, pedagogik refleksiya, refleksiv faoliyat, o'qituvchining refleksiv faoliyati tushunchalari turlicha talqin qilinsa-da, tadqiqot ishining obyekti hisoblangan o'quvchilarda refleksiv ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish jarayonlari tarixga murojaat qilish asosida o'tmishni o'rganish, tahlil qilish, baholash va obyektiv xulosalar shakllantirish jarayonlari ma'nosida qo'llaniladi. O'qituvchining refleksiv faoliyati haqida fikr yuritilganda esa, eng avvalo, uning mazkur jarayondagi prinsipligi, ya'ni o'quvchilarda refleksiv ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishga yo'naltirilgan o'zaro ta'sir jarayonlaridagi prinsiplilikni tushinish mumkin. Mazkur jarayondagi o'qituvchining prinsipligi o'quvchilarni ma'lum bir hodisa yoki voqelikni ishonchli dalillar vositasida tahlil qilish, baholash va obyektiv xulosalar shakllantirishga o'rgatishda o'z pozitsiyasiga ega bo'lishidir.

O'quvchining refleksiv faoliyati esa o'rganilayotgan tushunchalar, axborotlar yoki ma'lumotlarni tahlil qilish, baholash va obyektiv xulosalar shakllantirish asosida ularning ma'nosi, mazmun-mohiyati va ahamiyatini tushinishi va o'zlashtirishdagi pozitsiyasidir. O'qituvchining refleksiv faoliyati tushunchasi o'quvchining refleksiv faoliyati (o'quvchi pozitsiyasi) tushunchasidan farq qiladi. O'quvchilarning refleksiv faoliyatini tashkil etish asosida ularda refleksiv ko'nikmalar shakllantirish va rivojlantirish jarayonlari tizimga xos xususiyatlarga ega bo'lib, murakkab pedagogik tizim hisoblanadi.

Innovatsion murakkab pedagogik tizim sifatida o'quvchilarda refleksiv ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishga yo'naltirilgan o'zaro ta'sir jarayonlarini tashkil etish va boshqarishda tizimli yondashuv texnologiyasini tatbiq etish zarur. UO'TM o'quvchilarida refleksiv ko'nikmalar shakllantirish va rivojlantirish jarayonlariga tizimli yondashuvni tatbiq etilishi mazkur jarayonlarda tasodifiy va kutilmagan holatlarning oldini olish bilan bir qatorda, sifat va samaradorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

UO'TM o'quvchilarida refleksiv ko'nikmalar shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarini tashqi muhitda xizmat qilayotgan innovatsion murakkab pedagogik tizim sifatida o'rganish maqsadga muvofiq bo'lib, mazkur jarayonlarni loyihalashtirish, modellashtirish, tashkil etish, boshqarish, sifat va samaradorligini oshirishda o'qituvchi va o'quvchilarning refleksiv faoliyatining o'ziga xos jihatlarini inobatga olish zarur. O'qituvchi va o'quvchilarning refleksiv faoliyati yo'nalishida vaziyatlarga ko'ra vujudga kelayotgan talablar hamda refleksiv ko'nikmalar shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarini tashkil etishga zamonaviy yondashuvlarni tatbiq etish zaruriyati samaradorlikni ta'minlovchi eng zarur omillar hisoblanadi.

O'qituvchi va o'quvchilarning refleksiv faoliyati jarayonlari samaradorligi o'quvchilarda refleksiv ko'nikmalar shakllantirish va rivojlantirish jarayonlari majmui hisob-

langan tizim komponentlarini o'zgartirish, ularni qayta tashkil etish va moslashtirishga bog'liq bo'lib, o'zgartirish, qayta tashkil etish va moslashtirishda ham tizim komponentlari hisoblangan jarayonlarning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olish zarur. Xususan, ta'lim va mustaqil ta'lim jarayonlari, tarbiyaviy munosabat jarayonlari, darsdan tashqari va sinfdan tashqari mashg'ulotlar, motivlashtirish jarayonlarining har birining o'ziga xos xususiyatlariga misol keltirish mumkin.

O'quvchilarda refleksiv ko'nikmalar shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarini o'zaro bog'liq holda, yaxlit tizim sifatida tashkil etishda o'qituvchi va o'quvchilarning refleksiv faoliyati jarayonlarning o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish hamda mazkur jarayonlar samaradorligini ta'minlash uchun tizimli yondashuvni tatbiq etishning ahamiyatini quyidagi tamoyillar orqali asoslash mumkin:

- refleksiv ko'nikmalar shakllantirish va rivojlantirish jarayonlari subyektlari sifatida o'qituvchi va o'quvchilar faoliyat ko'rsatishi, ya'ni mazkur jarayonlarda subyekt-subyekt munosabatlarining qaror topishi;

- refleksiv ko'nikmalar shakllantirish va rivojlantirish jarayonlari subyektlari faoliyatining maqsadga yo'naltirilganligi, izchilligi va o'zaro bog'liqligi;

- refleksiv ko'nikmalar shakllantirish va rivojlantirishga yo'naltirilgan innovatsion murakkab pedagogik tizim o'zaro bog'liq va aloqador bo'lgan komponentlar majmui ekanligi;

- refleksiv ko'nikmalar shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarining rivojlanishiga xizmat qiluvchi ichki va tashqi omillarning o'zaro birligi;

- refleksiv ko'nikmalar shakllantirish va rivojlantirish jarayonlari alohida bir tizim sifatida va yuqori tartibli yaxlit pedagogik tizimning tashkil etuvchi komponenti sifatida mavjudligi;

- refleksiv ko'nikmalar shakllantirish va rivojlantirish jarayonlari tashqi muhit va boshqa tizimlar bilan o'zaro ta'sir etish xususiyatlariga ega ekanligi.

UO'TM o'quvchilarida refleksiv ko'nikmalar shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarida o'quvchilarning refleksiv faoliyatini tashkil etish va muvofiqlashtirishda ularning mustaqil va samarali fikrlashining muhim mexanizmi sifatida refleksiv yondashuv ham o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Refleksiv yondashuv jarayonida o'quvchilar o'z faoliyatini o'zi tahlil qilishi va obyektiv baholashi (mustaqil refleksiv faoliyat ko'rsatishi) uchun, o'qituvchilar esa mavjud ta'limiy vaziyatlarni o'z vaqtida tahlil qilib borishi hamda o'quvchilarning o'z tushunchalari hamda xatti-harakatlarini faol o'ylab ko'rishi uchun shart-sharoitlar yaratiladi.

UO'TM o'quvchilarida refleksiv ko'nikmalar shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarini tashkil etish va boshqarishda shaxs faoliyat yondashuvi ham zarur hisoblanib, mazkur yondashuv o'quvchilar refleksiv faoliyatini tashkil etish jarayonlarida ularning faolligini ta'minlash va aniq maqsadlarga ko'ra ularni motivlashtirish vositasi sifatida vujudga keladi. O'quvchilarda refleksiv ko'nikmalar shakllantirish va rivojlantirish jarayonlari samaradorligini aniq vaziyatlarga ko'ra baholash o'ziga xos ahamiyatga ega bo'lib, mazkur jarayon samaradorligini ta'minlashda vaqt o'tishi bilan vujudga kelayotgan vaziyatlarga ko'ra o'quvchilar refleksiv faoliyatini muvofiqlashtirib borish vaziyatli yondashuvni ifodalaydi.

Vaziyatli yondashuvda boshqariluvchi obyekt hisoblanayotgan refleksiv ko'nikmalar shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarining aniq sharoitdagi ichki va tashqi vaziyatiga qarab o'quvchilar faoliyatini muvofiqlashtirish mazkur jarayon samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi. O'quvchilarda refleksiv ko'nikmalar shakllantirish va

rivojlantirish jarayonlari samaradorligini oshirish, ko'zlangan maqsadga erishishda jalb etiladigan sarf-xarajatlarning me'yordan ortmasligini ta'minlovchi, o'quvchilarning imkoniyati, qobiliyati va tushunchalariga hamda mavjud vaziyatlar va shart-sharoitlarga mos keluvchi, eng qulay bo'lgan tizimni vujudga keltirish muvofiqlashtirilgan yondashuvni joriy etishdir.

Sodda qilib aytganda, muvofiqlashtirilgan yondashuvning o'quvchilarda refleksiv ko'nikmalar shakllantirish va rivojlantirish jarayonlariga tatbiq etilishi natijasida o'quvchilarning faolligini hamda refleksiv ko'nikmalar shakllantirish va rivojlantirish jarayoni samaradorligini ta'minlash uchun sarf etiladigan mehnat va vaqt tejraladi.

O'quvchilarda refleksiv ko'nikmalar shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarida natijalar bo'yicha boshqaruv tushunchasi rivojlanish tizimi sifatida amal qiladi va o'quvchilar refleksiv faoliyatini muvofiqlashtirish va ularning faolligini ta'minlash asosida belgilangan natijalarga erishish mumkin. Mazkur jarayonda o'rganiladigan tushunchalarning mazmun va mohiyatini har bir o'quvchiga tushuntirish orqali ularning faolligi ta'minlanadi. O'quvchilarda refleksiv ko'nikmalar shakllantirish va rivojlantirish jarayonlari barcha subyektlari, ya'ni ta'limni boshqaruv organlari, ta'lim muassasasi rahbarlari, o'qituvchi va o'quvchilar, tarbiyachilar, ota-onalar, mahalla faollari, va jamoatchilik tashkilotlari faolligini ta'minlashda korporativ yondashuvni tatbiq etish o'ziga xos ahamiyat kasb etib, korporativ yondashuvni tatbiq etish asosida maktab, mahalla, jamoatchilik tashkilotlari, o'qituvchi-o'quvchi va ota-onalarning hamkorlikdagi faoliyati ta'minlanadi.

Korporativ yondashuv ma'lum bir jarayon yoki voqea va hodisaning vujudga kelishi hamda mazkur jarayondagi o'zaro ta'sir umumga (ishtirokchilarning barchasiga) tegishli xususiyatlarga ega ekanligiga va barchaning daxldorligiga asoslangan yondashuv bo'lib, uning yana bir o'ziga xos ahamiyatli tomoni shundaki, korporativ yondashuvni tatbiq etishda o'quvchilarda refleksiv ko'nikmalar shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarini tashkil etish va boshqarishga etnik va milliy-hududiy yondashuvlar joriy etiladi va bu yondashuvlar o'z navbatida samaradorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2015-yil 12-yanvar kuni Oliy Majlis Qonunchilik palatasining birinchi majlisidagi ma'ruzasi // "Xalq so'zi" gazetasi, 13-yanvar.
2. Djurayev R.X., Turg'unov S.T. Ta'lim menejmenti. – T.: Voris, 2006.
3. Turg'unov S.T., Maqsudova L.A. Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish. – T.: Fan, 2008.
4. Системы качества в образовании. // Под общ. ред. Ю.П.Адлера. – М.: МИСИС, 2000. – С. 142.
5. Управление качеством образования. // Под ред. М.М.Поташникина. – М.: Педагогическое общество России, 2000. – С. 448.

Abdurashid TURG'UNOV,

T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zPFITI katta ilmiy xodim-izlanuvchisi

YUQORI SINIF O'QUVCHILARINI KASB-HUNARNI MUSTAQIL TANLASHGA TAYYORLASHNING TASHKILIIY-PEDAGOGIK ASOSLARI

Annotatsiya

Maqolada yuqori sinf o'quvchilarini kasb-hunarni mustaqil tanlashga tayyorlashning tashkiliy-pedagogik asoslari o'rganilgan. Shuningdek, muallif yoshlarni kasb tanlashga yo'naltirish bo'yicha bir qator samarali pedagogik usul va vositalarni taklif qilgan.

Kalit so'zlar. Kasb-hunar, kasbiy bilim, uzviylik va uzluksizlik, kasb, ta'lim texnologiyalari, pedagogik usul, o'qituvchi, o'quvchi.

В статье изучены организационно-педагогические условия подготовки старшеклассников к самостоятельному выбору профессии и рекомендованы педагогические технологии, эффективные методы и средства профориентации молодежи.

Ключевые слова. Профессия, профессиональное знание, непрерывность и преемственность, педагогические технологии, педагогический прием учитель, ученик.

Article examined the organizational and pedagogical conditions of preparation of senior pupils to independent occupational choice and recommended educational technology, effective methods and vocational guidance tools.

Key words. Youth, profession, professional knowledge, continuity, secondary education, continuous education, occupational choice, innovative pedagogical technologies, methods and means of training.

Istiqlol yillarida mamlakatimizda ta'lim tizimida amalga oshirilib kelinayotgan islohotlar yosh avlodni ham ruhan, ham jismonan, bir so'z bilan aytganda, komil inson g'oyasi asosida kamol toptirishda samarali omil vazifasini o'tamoqda. Bunda, albatta, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va uning talablariga muvofiq holda yaratilgan bir qator huquqiy-me'yoriy hujjatlar muhim asos bo'lib xizmat qilmoqda. Darhaqiqat, Yurtboshimiz ta'kidlaganidek, bugungi kunda bizning qilayotgan barcha ishlarimiz farzandlarimizning baxtu saodati, ularning yorug' kelajagi uchun amalga oshirilmoqda. Lekin baxtu saodat faqat boylik, molu mulk bilan belgilanmaydi. Odobli, bilimdon va aqlli, mehnatsevar, iymon-e'tiqodli farzand nafaqat ota-onaning, balki butun jamiyatning eng katta boyligidir.

Shu bois ham, O'zbekiston Respublikasi o'zi olgan majburiyatlarga amal qilib, uzluksiz ta'limning barqaror tizimini yaratdi, shaxsning ta'lim olish huquqini amalga

oshirish mexanizmini mustahkamlab qo'ydi va ta'kidlash kerakki, ushbu ta'limning yagona tizimi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- maktabgacha ta'lim;
- umumiy o'rta ta'lim;
- o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi;
- oliy ta'lim;
- oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim;
- kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash;
- maktabdan tashqari ta'lim.

Hozirda amalda qo'llanilayotgan uzluksiz ta'limning milliy modeli maktabgacha, boshlang'ich ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, o'rta-maxsus va kasb-hunar ta'limi, oliy ta'lim va undan keyingi ta'lim bosqichlarida o'ziga xos uzviylik hamda uzluksizlik kasb etmoqda. O'z navbatida, ushbu jarayon yaxlit va izchil mazmunga ega samarali tizim sifatida yurtimiz farzandlarini oddiy bog'cha tarbiyalanuvchisi davridan tortib, yurtimiz va jamiyatimizning barcha sohalari uchun zarur bo'lgan yetuk malakali kadrlar sifatida kamol topishiga qadar bo'lgan mas'uliyatli davrni o'z ichiga olmoqda va ularni, chinakam ma'noda, barkamol avlod sifatida voyaga yetkazmoqda.

Qayd etish kerakki, umumiy o'rta ta'lim bosqichi ana shu uzviylik va uzluksizlik jarayonida hal qiluvchi o'rinlardan birini egallaydi. Chunki boshlang'ich ta'limni olgan 5 – 9-sinf o'quvchilari izchil ravishda o'rta-maxsus va kasb-hunar ta'limi bosqichiga tayyorlab boriladi. Bunda, ayniqsa, yuqori sinflar, ya'ni 8 – 9-sinflar o'quvchilarini kasb-hunarni mustaqil tanlashga tayyorlash muhim pedagogik vazifalardan hisoblanadi. Kasbga yo'naltirish esa, o'quvchilarga kasbiy bilimlar berish bilan xarakterlanadi. Kasbiy bilim – o'quvchilarga turli kasblar, mutaxassisliklar, ixtisosliklar haqida ma'lumot berish; ta'lim turlari, tanlangan kasb va mutaxassislikni qaysi ta'lim muassasasida olish mumkinligi; bundan tashqari, kasblarni insonning jismoniy, ruhiy va shaxsiy sifatlarini inobatga olgan holda tanlashni nazarda tutadi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarini bitirgan o'quvchilarning taxminan 90 foizi kasb-hunar kollejariga, 10 foizi esa akademik litseylarga o'qishga borishlari mo'ljallangan. Bunday ijtimoiy talablarni qondirish maqsadida, maktabda kasbga yo'naltirish yuzasidan olib boriladigan ishlarni mazmunan yangilash, izchil yo'lga qo'yish zarurati tug'ilmoqda.

“Ta'lim to'g'risida”gi Qonunning 13-moddasida ta'kidlanganidek, “Kasb-hunar kolleji o'quvchilarining kasb-hunarga moyilligi, mahorat va malakasini chuqur rivojlantirishni, tanlangan kasblar bo'yicha bir yoki bir necha ixtisos olishini ta'minlaydigan uch yillik o'rta kasb-hunar o'quv yurtidir”.

Umumiy o'rta ta'lim davlat standartlariga asosan esa, maktabda kasbga yo'naltirish bo'yicha mashg'ulotlar 8 – 9-sinflarda amalga oshiriladi.

8-sinfda kasblar haqida “O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limidagi tayyorlov yo'naltirishlari, kasblar va ixtisosliklar tasniflagichi” asosida axborot berilishi bilan bir qatorda o'quvchilarga kasb egallash yo'llari, kasb tanlashda tibbiy nomuvofiqliklar, kasbga yaroqlilik va h.k. haqida tushunchalar berib o'tiladi.

Maktabda o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish birgina mehnat ta'limi o'qituvchisining ishi emas, balki butun maktab jamoasining, mahalla, ota-onalar, jamoatchilikning birgalikdagi ishidir. Maktabda fan o'qituvchilari tomonidan mavzular kasblar bilan bog'lab o'tilsa, maktab psixologi va rahbariyati tomonidan o'quvchilarning individual qobiliyatlari, qiziqishlari hisobga olingan holda, ta'lim-tarbiya

ishlari tashkil etilgandagina o'quvchilarga mustaqil kasb-hunar tanlashda ko'mak berilgan bo'ladi.

O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish ishlari ta'lim-tarbiya bilan uzviy kechadigan, uning barcha qirralarini qamrab oladigan uzluksiz jarayondir. Maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim maktablari va maktabdan tashqari, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari, jamoat tashkilotlari hamda ota-onalarning o'zaro hamkorligi bu jarayonning samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Bunday hamkorlik o'sib kelayotgan yosh avlodga ongli va o'z ixtiyori, qiziqishi, xohish-istaklariga asosan mustaqil kasb tanlash, o'z kasbiy istiqbolini belgilash hamda jamiyat ravnaqiga munosib hissa qo'shish imkonini yaratadi. Zero, kasbiy ta'lim-tarbiyadan asosiy maqsad – bu umumta'lim maktablarining o'quvchi va bitiruvchilarni ongli va mustaqil ravishda kasb-hunar tanlashga tayyorlash, kelgusi ta'limning yo'nalishini va kasb-hunar egallashning usullarini aniqlashdir.

O'tgan yillarga nazar tashlaydigan bo'lsak, 2006-2007 o'quv yilida o'quvchilarni uzluksiz kasb-hunarga yo'naltirish dasturi ishlab chiqildi va ushbu dastur Xalq ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqlanib, amaliyotga kiritildi. Ayni dasturda kasb-hunarga yo'naltirishning aniq maqsadlari, vazifa va yo'nalishlari, maktab o'quvchilari bilan olib boriladigan kasb-hunarga yo'naltirish ishlarining quyidagi bosqichlari belgilab berilgan:

Birinchi bosqich – “Kasblar alifbosi” bilan tanishish, erta kasb-hunarga yo'naltirish;

Ikkinchi bosqich – “Kim bo'lsam ekan?” – boshlang'ich kasb-hunarga yo'naltirish;

Uchinchi bosqich – “Kasblar olamiga sayohat” – rivojlantiruvchi kasbga yo'naltirish;

To'rtinchi bosqich – “Men orzu qilgan kasb” – shaxsning kasbiy yo'nalganligini shakllantirish va rivojlantirish;

Beshinchi – yakuniy bosqich – kasbiy moslashish, kasbiy o'sish va shaxsning o'z-o'zini rivojlantirishi.

Ushbu bosqichlar uzluksiz ta'limda o'quvchilarga kasbiy ta'lim-tarbiya berishda o'ziga xos uzviylik hamda uzluksizlik kasb etib, yoshlarni izchil va bosqichma-bosqich ravishda kasb-hunar sirlarini egallashga tayyorlab boradi.

Masalan, 8 – 9-sinflar o'quvchilari mustaqil ravishda kasb-hunar tanlash jarayonida o'z kuchlarini aniq mehnatda tekshirib ko'radilar. Buning natijasida ularning kasbga bo'lgan qiziqishlari va mayllari yanada ortadi. O'quvchilar bu bosqichda o'z kasbiy niyatlarini birmuncha umumiy kasblar bo'yicha amaliy ko'nikma va malakalar bilan mustahkamlaydilar. Bu bosqich aniq kasbni tanlash, uni o'zlashtirish yo'llarini belgilash bilan tugaydi. O'quvchilarning qiziqishlari (predmetlar, predmet-texnika, ishlab chiqarish-texnika va shu kabilar) bo'yicha to'garaklarda ishlashi ushbu bosqich uchun diqqatga sazovordir.

Mehnat ta'lim o'qituvchisi o'quvchi shaxsini o'rgangan chog'da uni kasbga yo'naltirish maqsadida:

– shaxs kamol topadigan aniq vaziyatda aniq jamoada shaxsning xulq-atvorini kuzatish;

– faoliyat orqali shaxsni o'rganish;

– shaxsni qandaydir qotib qolgan narsa tariqasida emas, balki taraqqiyotda ko'rib chiqish;

– shaxsning vaqtincha psixologik holatini, o'rtoqlariga munosabatini hisobga olish kabi qoidalarga amal qilishi maqsadga muvofiqdir.

Mehnat ta'limining ayni paytda tarbiyaviy maqsadi ham katta. Shundan kelib chiqib, “o'quvchilarning mehnat ko'nikmalarini egallashlari jarayonida mehnat va kasb-

ga munosabatlarida yuqori axloqiy sifatlarni, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, insonparvarlik va tadbirkorlikni shakllantirish” lozim.

Insonning ijtimoiy holati dastlab uning ijtimoiy ishlab chiqarish tizimidagi oʻrni bilan belgilanadi va bu holning asosiy belgisi mehnatning oʻziga xos xususiyati va ijtimoiy mohiyati hisoblanadi. Kasbga yoʻnaltirish tizimi – shaxsga kasbni va uning shaxsiy sifatlarini oʻrganishda yordam beruvchi maqsadlar, mohiyat va prinsiplar, uslub va vositalar birligidir. Kasbga yoʻnaltirish barcha oʻquv-tarbiya ishlari bilan bogʻlab olib boriladi. Ongli kasb tanlash oʻsmirlar yetarli darajadagi umumiy va politexnik tayyorgarlikka ega boʻlgan taqdirdagina mumkin boʻladi.

Ota-bobolarimiz bola tarbiyasida bolani mehnatga oʻrgatishga, kasb-hunarga qiziqtirishga alohida eʼtibor berganlar. Farzandlarini layoqati, qobiliyatiga qarab tarbiyalaganlar. Shu oʻrinda har bir ota-ona oilada oʻz farzandlarining qaysi kasb egasi boʻlishlariga jiddiy eʼtibor berishlari zarur. Chunki bolalar biror kasbga qiziqsin, uni egallashga harakat qilishsin. Inson kasb-kori uning husni deyishadi. Dehqonchilik, bogʻdorchilik, tikuvchilik, naqqoshlik, ganch-oʻymakorlik, duradgorlik kabi kasblar bir necha asrlardan buyon xalqimiz mehnat faoliyatidan keng oʻrin olgan. Mehnatsevarlik xalqimizning asosiy xislatlaridan hisoblanadi. Mehnat tufayli farzandlarimiz mustaqil hayotga qadam qoʻyadilar, erkin inson boʻlib, har bir narsani oʻzlari hal qiladilar.

Yuqori sinf oʻquvchilarini kasb-hunarga yoʻnaltirishda mehnat darslari, kasb tanlash mashgʻulotlari, sinfdan tashqari toʻgaraklar, ijtimoiy foydali mehnat soatlari asosiy mazmun kasb etadi. Eng muhimi, ularni kasb-hunarni mustaqil tanlashga tayyorlashda quyidagi bir qator tashkiliy-pedagogik shartlarga muhim eʼtibor qaratishimiz lozim, bizningcha:

birinchidan, oʻquvchilarning maʼlum kasb yoki hunarga nisbatan xohish-istak, qiziqish tomonlarini izchil oʻrganib chiqish. Bunda nazariy va amaliy tajribalardan qizgʻin foydalanish kutilgan natijalarni beradi. Chunki kasb tanlash boʻyicha nazariy soʻrovnomada oʻz qiziqish va iqtidorini toʻliq namoyon qila olmagan oʻquvchilar amaliy sinovlarda ijobiy koʻrsatkichlarni qayd etishlari mumkin;

ikkinchidan, oʻquvchining maʼlum kasb yoki hunarga nisbatan qiziqishiga sabab boʻlgan omillarni oʻrganish. Masalan, qaysidir oʻquvchi mahoratli ustoziga havas qilib, kelajakda oʻqituvchilik kasbini egallashni istasa, yana qaysidir oʻquvchi kelgusida shifokor boʻlishni va insonlarga salomatlik ulashishni xohlaydi. Bu uslub oʻquvchida kasb tanlash oldidan aniq qaror qabul qilish, oʻzi qiziqqan sohaga qatʼiyat bilan kirishish fazilatlarini shakllantiradi;

uchinchidan, oʻquvchining oʻz tanlayotgan kasbi yoki hunariga nisbatan layoqati, isteʼdodi va imkoniyat qirralarini oʻrganish. Misol uchun, qaysidir oʻquvchi shifokorlikka qiziqadi, ammo undagi isteʼdod, iqtidor va imkoniyat tamomila sanʼatkorlik kasbiga mos va hamohang. Tabiiyki, bunday holatda oʻquvchi shifokorlik emas, balki sanʼatkorlik kasbi yoʻnalishida yuqori natijalarga erishishi mumkin;

toʻrtinchidan, oʻquvchining mustaqil kasb-hunar tanlashiga ota-onasining munosabati darajasini oʻrganish, bu borada “Ota-ona – oʻquvchi – oʻqituvchi-murabbiy” yoʻnalishidagi bevosita aloqani yoʻlga qoʻyish. Chunki ota-ona yoki murabbiy oʻquvchiga mustaqil kasb tanlashda “buyurtmachi”, “boshqaruvchi”, “yagona rahbar” yoki “bosim ostida ushlab turuvchi” tomonlar sifatida emas, balki faqatgina maslahatchi, koʻmakdosh, hamfikir, hamkor taraf pozitsiyasida turishi lozim. Shundagina oʻquvchining aniq, xolis, oʻzi qiziqqan holatda, imkoniyat va iqtidorini hisobga olgan ravishda kasb tanlashiga erishiladi;

beshinchidan, o'quvchining kasb-hunar tanlashida undagi ijtimoiy-ruhiy, ma'naviy-ma'rifiy, aqliy-jismoniy holatlari izchil o'rganilishi, tahlil qilinishi, bu borada tegishli mutaxassislar hamkorligida aniq xulosalarga kelinishi, kasb-hunar yo'nalishlariga mo'ljallangan psixologik so'rovnomalar o'tkazilishi lozim;

oltinchidan, kasb-hunar tanlash yuzasidan umumta'lim maktablari va kasb-hunar ta'limi muassasalari o'rtasidagi o'zaro hamkorlik aloqalarini yanada kuchaytirish, umumiy o'rta ta'lim maktablari hamda o'rta maxsus ta'lim muassasalari tomonidan Ochiq eshiklar kunlari hamda "Mutaxassislik – sening kelajaging", "Kelajakning mohir ustalari", "Foydali kasb – bebaho ne'mat", "Mahorating namoyon et!" kabi mavzularda ko'rik-tanlovlar, kasb-hunar ustalari bilan "Biz sizdan o'rganamiz", "Ustozlar o'giti – omad kaliti" mavzularida uchrashuvlar o'tkazish, ishlab chiqarish, sanoat, madaniyat va san'at, sport majmualariga ekskursiyalar uyushtirish yuqori sinf o'quvchilarining kasb-hunarga oid bilim-malakalarini yanada boyitib, kelajakda ularning mustaqil kasb tanlashlari uchun munosib sharoitlar yaratadi.

Xulosa qilish kerakki, umumiy o'rta ta'lim maktablarida yuqori sinf o'quvchilarini kasb-hunarni mustaqil tanlashga tayyorlash jarayonida:

- kasbga oid bilimlar – o'quvchilarni mehnat faoliyati sohalari, xalq xo'jaligining ayrim tarmoqlari, kasblar va mutaxassisliklar bilan tanishtirish;

- psixologik pedagogik maslahat – mehnat faoliyatining turlari to'g'risida, o'quvchi xislatlari, bilimlari va mayllariga eng muvofiq bo'lgan kasblar va mutaxassisliklar haqida o'quvchilarga izchil, qiziqarli, to'laqonli ma'lumotlar berish;

- kasb tarbiyasi – o'quvchilarda u yoki bu kasbga nisbatan barqaror qiziqishni shakllantirish;

- amaliy kasbiy ko'nikish – mehnat faoliyatining turli sohalarida kuchlarni amaliy jihatdan sinab ko'rish uchun shart-sharoitlar yaratish;

- kasbga yo'naltirish ishini "Ota-ona – o'quvchi – o'qituvchi-murabbiy" yo'nalishidagi bevosita hamkorlik orqali yo'lga qo'yish va h.k. kabi vazifalarni amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. I. A Karimov. *Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch.* – T.: Ma'naviyat, 2008. 30-b.
2. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining 2007-yil 5-fevraldagi № 35-sonli buyrug'i.
3. Mumahmetov. R. G. *Kasbga yo'naltirishning tarbiyaviy ahamiyati // Maktab va hayot. Ilmiy ommabop jurnal, 2007. № 2. 2-b.*
4. Toshkent davlat Iqtisodiyot universiteti. *Kasbiy pedagogika fanidan ma'ruzalar matni.* – T., 2012.
5. Mahkamov U. *Odob-axloq saboqlari.* – T.: Fan, 1995, 84-bet.

A'lamjon IBRAGIMOV,

T.N.Qori Niyoziy nomli O'zPFITI katta ilmiy xodim-izlanuvchisi

MALAKA OSHIRISH TIZIMIDA MODULLI O'QITISH ISTIQBOLLARI

Annotatsiya

Maqolada o'qitishning innovatsion texnologiyalaridan biri – uzluksiz ta'limning barcha bosqichlariga muvaffaqiyatli tatbiq etilayotgan modulli o'qitish mohiyati va modul tushunchasi yoritilgan. Shuningdek, muallif modulli o'qitishni xalq ta'limi xodimlari malakasini oshirish tizimiga joriy etishning ahamiyati, afzalliklari va pedagogik shart-sharoitlarini ochib bergan.

Kalit so'zlar. Modul, modulli o'qitish, individuallashtirish, ta'lim, pedagog, uzluksiz ta'lim, innovatsion texnologiyalar, joriy etish omillari.

В статье освещены понятие и сущность модульного обучения, успешно используемые во всех этапах непрерывного образования как инновационная технология обучения. Также раскрывается значение, преимущество и педагогические условия внедрения модульного обучения в систему повышения квалификации работников народного образования.

Ключевые слова. Модуль, модульное обучение, значение модульного обучения, индивидуализация, преимущество, факторы внедрения.

Article highlights the concept and essence of modular training, successfully used in all stages of lifelong education as an innovative learning technology. Also disclosed the value of advantage and pedagogical conditions of introduction of modular training to system of retraining of personnel of public education.

Key words. Module, modular training, the value of modular training, individualization, advantage, implementation factors.

Respublikamizda ta'lim tizimini modernizatsiyalash yo'lida olib borilayotgan islohotlar o'quv jarayonini rejalashtirish va tashkil qilish hamda kasbga yo'naltirilgan o'qitish va bilimlarni nazorat qilishning yangi shakllarini o'zida mujassam etgan zamonaviy ta'lim texnologiyalarini tatbiq qilishni taqozo etmoqda.

Shunday texnologiyalardan biri sifatida modulli o'qitish uzluksizlikni, individual yondashishni va mutaxassislarning talab darajasidagi kompetentlikka erishishini ta'minlaydigan, shuningdek, tezkor, moslashuvchan va ochiq texnologiya sifatida o'zini namoyon qilmoqda.

“Modulli o'qitish” atamasi o'tgan asrning 60-yillarida pedagogika fani nazariyasi va amaliyotida to'plangan ilg'or g'oyalarni o'zida mujassamlashtirgan o'qitishning noan'anaviy texnologiyasi sifatida dastlab AQSH ta'lim muassasalarida qo'llanila boshlandi.

Turli mamlakatlar olimlari tomonidan modulli o'qitish nazariyasi keng o'rganilganligiga qaramay hozirgacha modul va modulli o'qitishning tushunchalariga turli xil qarashlar mavjud. Bu qarashlar ta'lim mazmuni, o'qitish shakl va metodlarini qurish jarayoniga bo'lgan yondashuvlarga asoslanadi. Jumladan, B. va M. Goldshmidlarning fikricha, "modul – bu talabalarning aniq belgilangan ayrim maqsadlariga erishishlariga yordam berishga mo'ljallangan, rejalashtirilgan o'quv faoliyati turlarida tugallangan, mustaqil birlik". Modulli o'qitish asoschilaridan biri Rassel modulni "o'quv materialining kontseptual birligi va o'quvchilar uchun avvaldan belgilangan harakatlarni qamrab olgan o'quv paketi" deb ta'riflaydi. G. Ouens modulni "o'qituvchining o'quvchiga individual yondashuvini amalga oshirish va o'zaro ta'sirini ta'minlashda tarkibida pedagog, o'rganuvchilar, o'quv materiali va vositalari bo'lgan o'rgatuvchi yopiq majmua" sifatida ko'radi. V.M. Gareyev, S.I. Kulikov va Ye.M. Durkolar fikricha, "o'rgatuvchi modul o'quv kursi yoki dolzarb ilmiy-texnik muammolar umumiy mavzusiga bo'ysinuvchi o'qitish turi va shakllarining integratsiyasida namoyon bo'ladi". Modulli o'qitish nazariyasi va metodikasi asoschilaridan biri P.A. Yutsavichenye modulga "o'quv materialining mantiqiy tugallangan birligi, maqsadli harakatlar dasturi va qo'yilgan didaktik maqsadlarga erishishni ta'minlaydigan axborotlar bloki" sifatida qaraydi.

I.Prokopenkoning fikricha, modulli o'qitish aniq ijtimoiy-iqtisodiy, texnologik va tashkiliy sharoitlarga nisbatan yuqori darajadagi egiluvchan va moslashuvchanligi, modul dasturini umumiy strukturasini o'zgartirmasdan doimiy takomillashtirish mumkinligi, muassasa faoliyatida o'qituvchi faolligining ortishi, mustaqil o'qishning keng qo'llanilishi, axborot kommunikatsiya vositalariga modulli dasturlar kiritilishining yengilligi, malaka oshirish ta'lim muassasasi jamoasining umumiy faollashishini ta'minlovchi ijobiy muhit yaratish imkoniyati bilan oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim jarayonida alohida ahamiyatga ega.

Modulli o'qitishning mohiyati muayyan fanning o'quv rejasi va tegishli didaktik materiallarini tugallangan mazmunga ega bo'lgan aniq miqdordagi alohida qismlarga ajratishdan iborat. Shuningdek, modulli o'qitish ta'lim subyektlari, ya'ni o'qituvchi va o'quvchi orasidagi muloqot shaklini o'zgarishiga; "subyekt-subyekt" munosabatlarining paydo bo'lishiga; individual ishlash imkoniyatining vujudga kelishiga; ta'lim oluvchilarning ko'proq mustaqil ishlashlari, o'z faoliyatini rejalashtirish, tashkil qilish, nazorat qilish va baholash kompetensiyalarining shakllanishi uchun qulay pedagogik shart-sharoitlarni yaratadi.

Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimida modulli o'qitish ta'lim subyektlarining aniq ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan xalqaro tajribalardan o'tgan innovatsion yondashuv asosidagi o'zida individual munosabatni rag'batlantiradigan interaktiv texnologiya sifatida namoyon bo'ladi. Shuningdek, tizimga modulli o'qitishni joriy qilish pedagog kadrlar malakasini uzluksiz oshirishni ta'minlashdek dolzarb muammo yechimi hamdir.

Pedagog kadrlar malaka oshirish kurslarini modulli yondashuv asosida tashkil qilishda tinglovchilarning o'ziga xos xususiyatlariga alohida e'tibor qaratish lozim. Chunki malaka oshirish ta'limi jarayonida asosiy vosita katta yoshli kishining o'ziga, uning hayotiy tajribasi, motivlari, so'rov va ehtiyojlariga bog'liqdir. Katta yoshli tinglovchi quyidagi psixologik xususiyatlarga ega bo'ladi: o'zini mustaqil, o'z-o'zini

boshqara oladigan shaxs sifatida anglaydi; hayotiy, kasbiy, maxsus tajribasi xazinasini bilim olish zaruriyatining muhim manbasi sifatida ko'ra oladi; bilim olish orqali hayotiy muhim muammolari va aniq maqsadlariga erishishga harakat qiladi; o'qish jarayonida olgan bilim, ko'nikma, malaka va sifatni kechiktirmasdan joriy etishga yo'naltira oladi.

Hozirgi paytda xalq ta'limi xodimlari malakasini oshirish kurslarida o'quv jarayonini blok-modulli texnologiya asosida tashkil qilish tajribasi o'z samarasini bermogda. O'quv rejasida nazarda tutilgan modullarni ijtimoiy fanlar, umumkasbiy fanlar hamda mutaxassislik fanlari bloklariga bo'lish va shu tarzda o'qitish o'zining bir qator afzalliklarini ko'rsatdi. Jumladan, modullarning xarakter jihatdan yaqinligi, bir-birini to'ldirib borishi, uzluksizligi, ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlari yaqinligi, beriladigan topshiriqlarning o'zaro bog'liqligi, shuningdek, tinglovchilar tabiiy imkoniyatlarini hisobga olinishi mavzularning o'zlashtirilishida ijobiy natijalar berdi. Har bir blokda modullar tugashi bilan nazorat ishlarining o'tkazilishi ham blok-modul tizimining yana bir muvaffaqiyati sifatida namoyon bo'lmoqda.

Endilikda xalq ta'lim xodimlari malakasini oshirish tizimiga modulli o'qitishni samarali joriy qilishning bir qator pedagogik shart-sharoitlarini amalga oshirish zaruriyati tug'ilmoqda. Jumladan:

- mamlakatimiz va xorijiy tajribalarga ijodiy yondashuv;
- malaka oshirish kurslari o'quv rejalarini takomillashtirish, ularning tarkibi (mazmuni)ga mustaqil ta'lim soatlarini kiritish;
- variativ o'quv dasturlarini va ulardan malaka oshirish jarayonida foydalanishning optimal pedagogik mexanizmlarini yaratish;
- tinglovchilarning individual ehtiyojlarini aniqlash mexanizmini takomillashtirish;
- malaka oshirish ta'limi muassasalari professor-o'qituvchilarining modulli o'qitishga oid kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish;
- modulli o'qitishning o'quv-metodik va dasturiy ta'minotini yaratish bo'yicha ijodiy guruhlar tuzish va ularning faoliyatini tashkil etish;
- har bir tinglovchini didaktik materiallar bilan ta'minlash imkonini beradigan modulli o'quv elementlari bankini yaratish;
- o'quv materialini mustaqil o'zlashtirish uchun tegishli sharoitlar yaratish;
- malaka oshirish ta'limi muassasalari moddiy-texnik bazasi (axborot kommunikatsiya texnologiyalari)dan samarali foydalanish, bunda tizimdagi masofadan o'qitish portali imkoniyatlaridan oqilona foydalanishga e'tibor qaratish;
- o'quv rejasidagi "Tanlov mavzulari" moduli tarkibiga modulli o'qitish mohiyati va malaka oshirish tizimiga tatbiqi yuzasidan mavzu kiritish.

Modulli kasbiy ta'lim dasturlarini tuzishning yetakchi texnologiyasi sifatida blok-modulli texnologiyani takomillashtirish vositasida ta'lim jarayonini optimallashtirish ta'minlanadi. Blok-modulli texnologiya qo'shimcha bilim va ko'nikmalarni kengroq yetkazishga yo'naltirish, zarur hollarda aniq vaziyat, tinglovchilarning bilim va tajribalarini inobatga olgan holda alohida bloklar yoki modullar shaklida, ya'ni an'anaviy to'liq o'quv dasturlari o'rniga maqsadli, tinglovchilardagi ta'limiy yoki tarbiyaviy bo'shliqlarni to'ldirish va ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan o'quv dasturlarini shakllantirish va tinglovchilarga vaqtdan unumli foydalangan holda bosqichma-bosqich o'zlashtirish imkonini beradi. Masalan, malaka oshirish o'quv-me'yoriy

hujjatlarni o'rganish maqsadida tashkil etilsa, bir-ikki modul bilan chegaralanish mumkin, qo'shimcha ravishda ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirish ham nazarda tutilsa, modullar soni uch-to'rttaga oshirilishi yoki ehtiyojga ko'ra faqatgina mutaxassislikka oid kompetentligini takomillashtirishga qaratilishi mumkin.

Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, jahon amaliyotida ta'lim muassasalariga alohida modulli o'qitish texnologiyalarini tatbiq qilish kutilgan natijalarni bera olmasligi kuzatilgan. Xalq ta'limi xodimlari malakasini oshirish jarayoniga modulli o'qitishni joriy qilishda tizimdagi malaka oshirish ta'limi muassasalarida to'plangan ilg'or tajribalar, malakali professor-o'qituvchilar imkoniyatlaridan to'g'ri foydalanish, shuningdek, ta'limni boshqaruv organlari hamda tegishli ta'lim muassasalarini jalb qilish, o'zaro samarali va tezkor aloqani yo'lga qo'yishga ahamiyat qaratish zarur.

Malaka oshirish tizimida modulli o'qitishni jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy talablarini inobatga olish, tinglovchilarning bilim darajasi, muammo va ehtiyojlarini oson aniqlash, kasbiy mahoratini oshirishning aniq maqsadlarini belgilash asnosida faoliyatiga doir bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga qaratilgan individual o'quv mazmunini taqdim etish tarzida tashkil qilish samarali bo'ladi.

Pedagog kadrlar malakasini oshirishning maqsadlariga erishishda hamda o'quv jarayonini intensivlashtirishda modulli o'qitish qator afzalliklarga ega:

- o'quv materiallarini variativ taqdim qilish, tinglovchilarning aniq kasbiy ehtiyojlarini va individual imkoniyatlarini inobatga olish sharoiti yaratiladi;
- tizimning didaktik materiallar bilan ta'minlanishi natijasida tinglovchilar o'quv materialini mustaqil o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi;
- o'qituvchining vazifasi ma'ruzachidan maslahatchiga aylanadi, tinglovchida esa materialni passiv idrok etish ulushi kamayib, o'qituvchi bilan faol muhokama qilish imkoniyati paydo bo'ladi;
- o'qituvchining ma'ruzaga ajratadigan vaqtining qisqarishi natijasida o'z predmeti doirasida tinglovchilarning kompetentligini rivojlantirish imkoniyatlari kengayadi;
- har bir modul tugashi bilan o'qituvchi va tinglovchi uchun birday ahamiyatga ega bo'lgan o'zlashtirilgan materialni samarali nazorat qilish imkoniyati paydo bo'ladi;
- modullar mazmunini bosqichma-bosqich o'rganish orqali fanni yengilroq o'zlashtirish mumkin bo'ladi.

Malaka oshirish tizimida modulli yondashuv ta'limni individuallashtirishga imkon beradi, bu esa pedagog xodimning ta'limiy ehtiyojlarini qondirish, o'z faoliyatini chuqur anglagan holda u yoki bu bilimlarni egallash va yangilashga qiziqishini uyg'otish, o'qituvchi va tinglovchilarning hamkorligini kuchaytirish va individning ta'lim jarayonidan qanoatlanmaslik omilining pasayishiga olib keladi. Shuningdek, modulli o'qitish malaka oshirish o'quv dasturlarini variativ yaratish mexanizmining yo'qligi, o'quv fanlari mazmuni va tinglovchilarning aniq ehtiyojlari orasidagi bog'liqlikni tezkor ta'minlash, pedagogik ta'sir o'tkazishning produktiv yo'l va usullarini belgilash, o'quv jarayonini zamonaviy talablar asosida individuallashtirish va differentsiatsiyalashtirish kabi muammolarning ham yechimi sifatida namoyon bo'ladi.

O'qituvchi va tinglovchilar faoliyat xarakterining o'zgarishi, o'qituvchining maslahatchi-muvofiqlashtiruvchi funksiyasini bajarishga o'tishi tinglovchidan doimiy fa-

ollikni, mustaqillikni, o'z-o'zini baholash va o'z-o'zini nazorat qilishni talab qiladi. Modulli o'qitishda malaka oshirish samaradorligini obyektiv baholash, tinglovchining kasbiy takomillashib borishini doimiy nazorat qilish va bu jarayonlarda paydo bo'lgan muammolarni o'z muddatida korrektsiyalashning pedagogik sharoitlari yaratiladi.

Malaka oshirish kurslarining modulli shakllantirilishi o'quv rejasidagi modullarga ajratilgan vaqtdan unumli foydalanish imkonini beradi. Unda tinglovchilarning amaliy, seminar, laboratoriya mashg'ulotlariga, ayniqsa, ularning mustaqil ishlariga e'tibor kuchaytiriladi. Tinglovchilarda mustaqil bilim olish ko'nikmalarini rivojlantirish ularning kasbiy va pedagogik mahoratini doimiy ravishda o'sib borishini, o'quv-tarbiya jarayoni yuqori ilmiy-metodik darajada olib borilishini ta'minlanishini, o'qitishning zamonaviy texnologiyalari bo'yicha kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarini muntazam ravishda yangilab borilishini, uzluksiz malaka oshirishini tashkil etilishini, pirovard natijada pedagog xodimlarning yuqori saviyali va raqobatbardosh bo'lishiga erishishni kafolatlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Гареев В.Б., Куликов С.И., Дурко Е.М. Принципы модульного обучения // Вестник высшей школы. – М., 1987. № 8. – С. 30 – 33.
2. Маркова А.К., Матис Т.А., Орлов А.Б. Формирование мотивации учения // книга для учителя. – М.: Просвещение, 1990. – С.191.
3. Экспресс информация. Труд и социальные вопросы. Зарубежный опыт. – М.: ВНИИ центр, 1986. Выпуск 10.
4. Юцявичене П. Теория и практика модульного обучения. – Каунас: Швейса, 1989. – С. 272.
5. Russell J.D. Modular Instruction // A. Guide to the Design, Selection, Utilization and Modular Materials. Minneapolis, Minnesota: Burgess Publishing Company. 1974. – P. 164.

Nilufar REJAMETOVA,

O'MKHTTKMO va UQTI katta ilmiy xodim-izlanuvchisi

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA MUSIQIY IJODKORLIKNI TAKOMILLASHTIRISH TEXNOLOGIYALARI

Annotatsiya

Maqolada maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarga o'zbek xalq cholg'u asboblari ijro etish uchun qo'llaniladigan texnologiyalar to'g'risida aytib o'tilgan. Shuningdek, muallif o'zbek xalq milliy cholg'u asboblari chalish malakalarini oshirish maqsadida maktabgacha yoshdagi bolalar va umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinflari uchun kichraytirilgan shakllardan foydalanish afzalligini misollar bilan keltirib bergan.

Kalit so'zlar. O'zbek xalq milliy cholg'u asboblari, ijodkorlik, qobiliyat, ansambl, repertuar, chalish, musiqiy xotira.

В статье освещена технология исполнения мелодий на узбекских народных инструментах детьми в дошкольных образовательных учреждениях. Автором приведены примеры использования узбекских народных инструментов в уменьшенном размере для детей дошкольного возраста и начальных классов средних общеобразовательных школ, с целью развития их музыкальных способностей и навыков.

Ключевые слова. Узбекские народные инструменты, творчество, способность, ансамбль, репертуар, музицирование, музыкальная память.

Article highlights the technique of execution on Uzbek folk instruments by children in preschool educational institutions. The goal of teaching children to play the Uzbek folk instruments is to create conditions to enrich their musical experience, the development of musical abilities. In addition, the improvement of educational technology in the games made in a reduced size of Uzbek folk instruments for pre-school children and primary classes of secondary schools.

Key words. Uzbek folk instruments, creativity, ability, ensemble, repertoire, making music, musical memory.

Respublikamizda ta'lim siyosatini amalga oshirish, o'sib kelayotgan yoshlarni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalashda ta'lim muassasalarining o'rni va ahamiyati katta. Buni maktabgacha ta'lim muassasalarining faoliyati misolida ham ko'rish mumkin. Bolalarni tarbiyalashda avvalambor sog'lom turmush tarzi, gigiyena talabalariga rioya etishlarini ta'minlash, ma'naviy barkamollikka yetaklashda milliy musiqa san'ati sirlaridan keng foydalanish, ta'lim muassasalarining dolzarb muammolarni hal qilishda innovatsion yondashuvlardan foydalanish lozimligini davr taqozo etmoqda.

Mamlakatimizda sog'lom, har jihatdan baquvvat, mustaqil fikrlaydigan ijodkor yoshlarni tarbiyalash borasida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekis-

ton Respublikasi Prezidentining 2015-yil 20-noyabrdagi PQ-2435-son "Bolalar musiqa va san'at maktablari faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha 2016-2020-yillarga mo'ljallangan Davlat dasturi to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Mazkur qaror bilan tasdiqlangan Davlat dasturi doirasida amalga oshirilayotgan ishlar natijasida bolalar musiqa va san'at maktablarida ta'lim tizimini takomillashtirish, boshlang'ich musiqiy ta'limni rivojlantirish, yo'nalishlar bo'yicha mutaxassis hamda pedagoglarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish imkoniyatlarini yanada kengaytiradi va ushbu dargohlarning umumta'lim maktablari bilan hamkorligi yaxshilanib, estetik ta'lim-tarbiya sifati yanada yuksaladi.

O'rta asrlardayoq Sharqning buyuk mutafakkirlari musiqiy psixologiya, musiqa-ning qalbga, kayfiyatga va inson organizmiga ta'siri masalalarini o'rganishgan. Jumladan, Forobiyning "Musiqa haqida katta kitob"i va boshqa asarlari, Ibn Sinoning "Kitob ash-shifo", "Kitob an-najot", "Donishnoma" kabi asarlarining musiqa haqidagi bo'limlari, Abdurahmon Jomiyning "Risolai musiqa" kitobi shular qatorida turadi.

Buyuk qomusiy olim, musiqa cholg'ularini mohirlik bilan chalgan Abu Nasr Forobi o'z ijrosi bilan kishilarni quvontirish yoki qayg'uga solish, ovutish yoki chuqur o'y surishga majbur qilish, xursand qilish, hayratga solish va hatto uxlatib qo'yishning uddasidan chiqqanligi haqidagi hikoya va rivoyatlar bizgacha yetib kelgan. Bu nima? Ijrochining mahoratimi? Shaxsiyat xususiyatlarining ta'sirimi? Musiqaning inson ongiga ta'sirimi? Professional musiqachi, mutaxassis musiqa psixologiyasidagi bu va boshqa jihatlarni yetarli darajada o'zlashtirib olishi kerak. Bu musiqiy tovushlar, obrazlar, tafakkur va hissiyotlari dunyosi kishi ruhini ko'taradi, uni borliq bilan birlashtiradi, gohida tasavvurlar, xayollarning tushuntirib bo'lmaz imkoniyatlarini ochib, dunyoning cheksiz kengliklariga olib ketadi, haqiqatga, idealga yaqinlashtirib, hayotimizni ma'noli, mazmunli, ma'naviy boy va go'zal qiladi.

Pedagogika fani va amaliyotida bu kabi muhim masalalar yechimini topish borasida tinimsiz izlanishlar amalga oshirilib, yangi va yangi tadqiqotlar amaliyotga joriy etib kelinmoqda va bolalarni musiqa ijro etishga o'rgatish muammolari mavzusida mustaqil tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Bu borada hamdo'stlik va xorijiy mutaxassislar tomonidan ham amalga oshirilayotgan tadqiqotlar e'tiborga molikdir. Jumladan, avstriyalik kompozitor va pedagog Karl Orfning xizmatlari xususida ayrim ma'lumotlarni keltirib o'tish joiz. K.Orf bolalar uchun maxsus cholg'ularni konstruksiyalashda ishtirok etgan ("Orf cholg'ulari"), musiqa chalishning kuylash va harakat, cholg'ularni chalish va musiqa ritmida she'r o'qishning birikuvidan iborat sintetik shakllarini ishlab chiqqan. Shuningdek, yapon skripkachisi, musiqa pedagogi Sh.Suzukining musiqa o'qitish metodi butun dunyoda ommalashgan. N.K.Kononova bolalar uchun musiqa cholg'ularini chalishga o'rgatish metodikasini ishlab chiqqan ("Обучение дошкольников игре на детских музыкальных инструментах"). Soha rivojiga I.G.Iaptev ("Детский оркестр в начальной школе"), N.A.Metlov kabi mutaxassislar munosib hissa qo'shgan.

Tabiiyki, zamonaviy bosqichda yuzaga kelayotgan muammolarni hal qilishning yo'llaridan biri – zamonaviy pedagogik texnologiyalarni yaratish va ularni keng tatbiq qilish sanaladi. Ilmiy adabiyotlarda pedagogik texnologiyaga turlicha yondashuv va ta'riflar berilganligini ko'rish mumkin. Pedagogik texnologiyani pedagog tomonidan tashkil qilinadigan va shaxsni voqelikning faol subyekti sifatida imkon qadar rivojlan-

tirish maqsadida amalga oshiriladigan bolalar bilan o'zaro muloqot jarayonida ularga ta'sir xarakteri bilan bog'liq ilmiy asoslangan tanlov sifatida talqin qilamiz.

Pedagogik texnologiya vositasida ta'lim sohasidagi siyosatida tub buri-lish yuz bermoqda, pedagog faoliyati yangilanib, yoshlarda hurfiylik, bilimga chanqoqlik, Vatanga mehr-muhabbat, insonparvarlik tuyg'ulari tizimi shakllanib bormoqda. Bolalarga musiqiy tarbiya berishda zamonaviy texnologiyalar, inno-vatsion metodlardan foydalanish musiqiy ta'lim samaradorligini oshiradi. Pe-dagogik texnologiya maktabgacha ta'lim muassasalarda musiqa rahbarlarining tarbiyachi bilan o'zaro ta'siri, o'zaro hamkorligini tashkil qilish bo'yicha kasbiy muhim malakalarini aniqlashtiradi, pedagogik faoliyatning texnologikligini ang-lash usulini taklif qiladi.

"Texnologiya" atamasi pedagogik lug'atlarda shu qadar mustahkam o'r-nashdiki, endi pedagog nafaqat o'zi ish jarayonida foydalanadigan dastur va metodikani, balki texnologiyani ham tanlashiga to'g'ri keladi.

Pedagogik texnologiya quyidagi holatlarda o'z belgilarini ko'rsatib boradi:

- maqsadlar (pedagog uni nima uchun qo'llashi zarur);
- diagnostik vositalarning mavjudligi;
- pedagog bilan tarbiyalanuvchining pedagogik jarayonni loyihalashtirish imko-nini beradigan o'zaro hamkorligini tizimlashtirish qonuniyatlari;
- pedagogik maqsadlarga erishishni kafolatlovchi vosita va shartlar tizimi;
- pedagog va tarbiyalanuvchilar faoliyat jarayoni va natijalarini tahlil qilish vosi-talari.

Maktabgacha ta'lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalarni amaliyot-ga joriy etish usullaridan foydalanish ijobiy natija beradi. Jumladan, "Ixtiroli muam-molarni yechish nazariyasi", "Loyihalar usuli" (pedagogik tizim majmui) maktabgacha ta'lim jarayoniga kirib keldi va ular amaliyotda muvaffaqiyatli qo'llanilmoqda.

Musiqiy ta'limning pedagogik texnologiyalari – maktabgacha ta'lim muassasala-rida musiqa rahbariga o'z kasbiy faoliyat vazifalarini samarali hal qilish imkonini be-radi. Pedagogik texnologiyalarni qo'llash orqali bolalarda musiqiy bilimlarini oshirish bilan birga ularda o'zbek milliy xalq cholg'u asboblari qiziqishlarini, bilim va ko'nik-malarini oshirish maqsadida O'zbekiston davlat konservatoriyasining xalq cholg'u asboblari takomillashtirish ilmiy tadqiqod eksperimental laboratoriyasida maktab-gacha yoshdagi bolalar va umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinflari uchun o'zbek xalq cholg'u asboblari kichraytirilgan shakllari yasaldi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida (MTM) 2 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bo-lalarga o'z imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda o'zbek xalq milliy cholg'u asboblari musiqa chalishni o'rgatishni takomillashtirish maqsadida bolalar uchun kichray-tirilgan hajmdagi turlari musiqa o'rgatishni chuqurlashtirish muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Ma'limki, MTMda ansambl tashkil etish uchun ma'lum sharoitlar, avvalo, cholg'u asboblari, fonoteka, ko'rgazmali qurollar zarur. Bolalar ansambli asosini o'zbek xalq cholg'u asboblari: zarbli (doira, quticha, safoil, nog'ora), torli (soz, qo-nun, dutor, qashqar rubobi, tanbur) cholg'u asboblari, shuningdek, shovqinli as-boblari: buben, marakas shaqildoqlar, qo'ng'iroqchalar, musiqiy qutichalar, yog'och shaqildoqlar tashkil etadi. Klassik, xalq va zamonaviy bolalar musiqasining eng

yaxshi yozuvlaridan iborat fonoteka, videoyozuvlar fondi saralanadi, uning asosida ansambl repertuari tanlanadi. Mavzu yuzasidan tanlangan adabiyotlar, ko'rgazmali qurollar, didaktik o'yinlar mashg'ulotlarni yuqori saviyada tashkil etish va o'tkazishga imkon beradi.

Bolalikdan ular bilan tanishib, ularning tovush temblari (o'ziga xos xususiyati, tarovati, jilosi)ni anglab, idrok etishga o'rgatib borish farzandlarimizning musiqiy idroki va tafakkurining ijobiy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Dutor, rubob, tanbur, soz, qonun tovushlarini aniqligi bu musiqa cholg'ularida nota yozuvi orqali o'rgatishni osonlashtiradi.

O'zbek xalq cholg'u asboblari kichraytirilgan hajmdagi turlarida musiqa chalish bola uchun qulay. Bu cholg'ulardan foydalanishning afzalligi musiqiy xotira, diqqatning rivojlanishiga ko'maklashadi, ortiqcha uyatchanlikni yengishga yordam beradi. Chalishning texnik yengilligi, ajoyib tovushlarga munosabat bildirish qobiliyati bolalarni tovushli-rangin ijroga undaydi va moyilligini oshiradi, bu orqali esa eng sodda improvizatsiyaga yo'naltiradi. Bolalarni nafaqat cholg'uning ko'rinishi va jarangi, balki ularning o'zi shu qadar chiroyli tovushlar hosil qila olishi ham jalb qiladi. O'zbek xalq cholg'ulari qobiliyatidan qat'i nazar barcha bolalarga musiqa chalish imkonini beradi. Har bir bola ansamblda o'z o'rnini topa biladi.

Bolalarni musiqa chalishga o'rgatish turli usullarda amalga oshiriladi. Musiqa chalishga o'rgatishning amaliy, ko'rgazmali-og'zaki usullari va metodlari turli variantlarda, shuningdek, muammolilik elementlari bilan o'rgatish usullari mavjud.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda u yoki bu cholg'uni chalishga o'rgatish turli darajada muvaffaqiyatli kechadi – natijada bolaning individual xususiyatlari va musiqiy qobiliyati, umumiy rivojlanganlik darajasi, moyilliklari va xarakteriga (irodasiga) bog'liq. Shu bois musiqa rahbarining ishlari bolalarni musiqa asboblari bilan umumiy tarzda tanishtirish, ularni musiqa chalishning sirli olamiga qiziqtirish maqsadini ko'zlaydi.

Bolalarning kattalar bilan birga musiqa chalishining ahamiyati katta. Bolalarda musiqa cholg'usini o'zlashtirish, kattalarga taqlid oqibatida musiqa bilan jiddiy shug'ullanishga ehtiyoj shakllanadi.

Bolalar musiqa cholg'ulariga qanday talablar qo'yiladi?

Diatonik yoki xromatik tovush qatoriga ega cholg'ulari toza jarang sochishi, ma'lum tembrga ega bo'lishi, o'lchami, og'irligiga ko'ra bola uchun qulay bo'lishi, konstruktsiyasi sodda va mustahkam bo'lishi lozim.

Musiqa chalish musiqa mashg'ulotlari tarkibiga kiradi, bolalarning kundalik hayotida, bayram ertaliklarida mustaqil musiqiy faoliyat sifatida amalga oshiriladi va quyidagi vazifalarni bajarishga chaqirilgan:

- cholg'u chalishga qiziqish va ehtiyojni shakllantirish;
- musiqiy va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish;
- musiqiy ifodalilik vositalari haqida tasavvurlarni shakllantirish;
- musiqiy ijrochilik ko'nikmalarini rivojlantirish;
- badiiy didni tarbiyalash.

Bolalarni musiqa chalishga o'rgatishda quyidagi uchta bosqichni ajartib ko'rsatish mumkin:

- 1) kuy xususiyatlari va tovush hosil qilish usullari bilan tanishtirish;

2) kuyni ijro etish ustida ishlash, ijro usullarini o'zlashtirish;

3) kuyni yaxlit qayta yaratish (chalish), ansamblda va orkestrda chalishni o'rgatish.

Repertuarni tanlash va bolalar bilan ishlash metodlari hal qiluvchi ahamiyatga ega. Musiqa repertuari qulay, bolalar uchun tushunarli, ijro nuqtayi nazaridan sodda bo'lishi lozim. Ish usullari va metodlari bolalarning yoshi, qiziqishlari, individual xususiyatlari va asarni o'rganish bosichlariga muvofiq kelishi lozim.

Bolalarga tovushlarning balandligiga ko'ra joylashishini tushunishni osonlashtirish uchun tovush-doirachalarni flanelegrafda turli balandlikda qo'yish, kuylash, kuy harakatlarini qo'l bilan ko'rsatish, didaktik qo'llanma va o'yinlardan foydalaniladi. Qutichani chalish usullarini oson o'zlashtirgan bolalarga ansamblda yetakchi partiyalarni chalish ishonib topshiriladi.

Repertuarlarni to'g'ri tanlay bilish zarur. Musiqiy asarlar bolalar uchun tushunarli, ya'ni sodda, yoqimli bo'lishi lozim. "Yallamayorim", "Andijon polkasi", rus xalq kuyi "Bo поле берега стояла", Motsartning "Allegretto", V.Ruzmetovning "Buvijon", A.I.Ikramovning "Bog'cha opam", N.Norxodjaevning "Navro'zim sho'x sozim" kabi kuylari bolalarga ma'qul bo'ladi.

Kuylar, ohanglarni bolalar xotirasida o'rnatib qolishi uchun, ular bilan kuylab ko'rish tavsiya etiladi. Musiqiy asarlarni yaxshi esda saqlab qolish uchun kamida 2-3 marta eshittirish zarur. Bunda har gal kuyning yangi qirralari bilan tanishtirib boriladi.

Musiqa bilan amaliy shug'ullangan bola musiqani tinglash bilan cheklangan bolaga qaraganda boshqacharoq o'ylaydi, his qiladi va rivojlanadi. Shu bois qator mamlakatlarda musiqa ta'limi va tarbiyasida tub islohotlar jiddiy tus olmoqda. Masalan, Germaniyada tarbiya kompleksi ilk yoshidayoq musiqiy mashg'ulotlarni o'z ichiga oladi. U yerda barcha yosh bosqichlarida musiqaga o'rgatish dasturi ishlab chiqildi. Chexiya, Slovakiya, Ruminiya kabi davlatlarda musiqiy tarbiya juda erta boshlanadi. Yaponiyada musiqiy tarbiya xuddi jismoniy tarbiya, grafikaga o'rgatish, tasviriy san'at asoslarini o'rgatish kabi muhim sanaladi. Amerikaliklar musiqani barcha maktab fanlari bilan tenglashtirish va uni sifatli o'qitishni davlat oldida turgan muhim vazifa sifatida belgilaydi.

Cholg'u asboblari turlarining rang-barangligi musiqaning elementar nazariyasi hamma bolalarni hech bir istisnosiz jalb qilish, ularning har biriga qiziqishi va imkoniyatlariga mos cholg'u tanlash imkonini beradi. Bu borada ta'lim muassasasida yuzaga kelgan, jamoaviy musiqalashtirish sharoitida maxsus musiqiy qobiliyatlarni rivojlantirishga qaratilgan qo'shimcha ta'lim va bolalar bilan ijodiy ish metodlaridan biri hisoblangan. "Loyhashtirish metodi" produktiv (sermahsul) sanaladi. Bu loyihalashtirish metodi bugungi kunda maktabgacha ta'lim muassasasi faoliyatida ta'limning innovatsion metodi hisoblanadi.

Mualliflik texnologiyasi bo'yicha ishlash tarbiyalanuvchilarda barqaror musiqiy eshitish tasavvurlarini tarbiyalashni ko'zda tutadi, ularsiz cholg'u asboblarni chalishga o'rgatishni amalga oshirib bo'lmaydi. Bolalar o'zbek milliy cholg'u asboblari bilan tanishtirishda drammalashtirish usullaridan foydalanish ham yaxshi samara beradi. Bunga "Hunarli yigit" ertagini misol qilib olish mumkin.

Mamatboy chol bilan kampirniig yagona o'g'li bo'lib, juda kambag'al yashar ekan. Mamatboy ilm o'rganishga havas qilib yurar ekan. Shuning uchun u yoshligida

ilm o'rganish kerak deb, savod, cholg'u va shaxmat ilmini o'rganib olibdi. Hayot taqdiri bilan Mamatboy quduqning ichiga tushib qoladi. Atrofiga nazar solsa, bir eshik ko'rinibdi. Bu bir devning uyi bo'lib, unda o'sha dev yotgan ekan. Uyning shiftiga bir qancha cholg'u asboblari osib qo'yilgan emish. Yigit devordan g'ijjakni olib chala boshlabdi. Dev yetti yildan buyon kasal bo'lib, xushsiz yotgan ekan. G'ijjak tovushini eshitib, o'ziga kelibdi. Yetti kun deganda tuzalibdi va:

– Ey bola sen kimsan? Menga ko'p yaxshilik qilding, – debdi.

Qarang, musiqa ohangining hayvon qalbiga shifobaxshligini (dev xalq og'zaki ijodiyotida mifologik obraz bo'lib, ko'proq yovuz kuch sifatida ishlatiladi). Musiqaning inson hayotida, man'aviyatida tutgan o'rni beqiyosdir. Musiqa vositasi bilan kishi ruhini yaxshilash, dardidan xalos etish va hatto og'riqsiz operatsiya qilish ham mumkinligi to'g'risida voqeliklar mavjuddir. Musiqaga oid real voqeyliklar bolalarni xalq og'zaki ijodiga qiziqtirish bilan bir qatorda sehrli musiqa olamiga yetaklaydi hamda musiqa asarlarini o'rganish uchun havas va qiziqtirishni shakllantiradi. Musiqiy qobiliyatlarni rivojlantirish ham ijrochilik, ham bolalar uchun yangi bo'lgan, shu zahotiyoq ijro amaliyotida mustahkamlanadigan musiqiy-nazariy ma'lumotlar va tushunchalar bilan tizimli tanishtirishni o'z ichiga oladigan musiqiy ta'lim faoliyatida amalga oshiriladi. Bolalar tobora xarakterli musiqiy ifoda vositalarini, musiqiy nutq elementlarini o'zlashtiradi, ularni eshitish amaliyotiga o'tkazadi va musiqiy asarlarni o'rganishda ulardan ongli ravishda foydalanadi. Shu tariqa asta-sekinlik bilan bolaning musiqiy tafakkuri, uning musiqiy asar mazmunini uni ijro etish vaqtida emotsional his qilish (boshidan kechirish) qobiliyati shakllantiriladi. Yosh davrining o'ziga xosligi shundaki, bolalar olingan bilimlarni, eshitganlarini chuqurroq o'zlashtirishi uchun ularni amaliy harakatlarda mustahkamlashi zarur.

Musiqa chalish yana shunisi bilan ahamiyatliki, u turli sharoitlarda, mashg'ulot davomida, mustaqil musiqiy faoliyatda, bolalarning shaxsiy tashabbusi asosida turlicha o'zgarishi mumkin. Umumiy qiziqish, moyilliklar, har kunlik mashg'ulotlar bolalarni birlashtiradi, jamoaviylik ruhini takomillashtiradi. Shunday qilib, musiqa cholg'ularini chalish o'sib kelayotgan avlodning barkamol rivojlanishida katta ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sharipova G. *Maktabgacha ta'lim muassasalarida musiqa o'qitish metodikasi*. –T.: Cho'lpon 2007. 4-9-b.
2. Liviye A.X. *O'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik*. –T.: Mehnat, 2001. 5-b.
3. Hamidov H. *O'zbek an'anaviy qo'shiqchilik madaniyati tarixi*. –T.: O'qituvchi, 1996. 4-b.
4. *Uzluksiz ta'lim tizimida fanlarni o'qitish masalalari. Ilmiy maqolalar to'plami*. –T.: 2009. 157-b.
5. Ружникова И.Г. Развитие детского творчества средствами музыкального воспитания- Психолог в детском саду// – М.: 2008,- № 3. – С. 64-72.
6. Севастьянова Т.В. *Использование современных технологий музыкального образования в работе с дошкольниками* – Ульяновск, 2014.

Shoxrux TURDIYEV,

Qarshi Davlat universiteti katta ilmiy xodim-izlanuvchisi

TA'LIM MUASSASALARIDA INNOVATSION MUHANDISLIK FAOLIYATINI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya

Mazkur maqolada innovatsion muhandislik faoliyati mamlakat iqtisodining jahonda ilg'or pozitsiyalarni egallashini ta'minlashda hal qiluvchi rol o'ynashi va ta'lim, fan va ishlab chiqarish birlashuvining yangi shakllarini, yangi ko'rinishlarini aks ettirishi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar. Innovatsiya, faoliyat, muhandislik, ta'lim, fan, ishlab chiqarish, mahsulot.

Инженерная инновационная деятельность в сфере экономики страны даёт возможность овладеть одной из ведущих позиций в мире. В статье отражены новые формы интеграции образования, науки и производства.

Ключевые слова. Инновация, деятельность, инженерия, образование, наука, производство, продукция.

Engineering innovation activity in the field of the economy of country makes opportunity to take one the leading positions in the world. The article reflects the new forms of integration of education, science and industry.

Key words. Innovation, activity, engineering, education, science, production, products.

Innovatsion muhandislik texnik faoliyatning bir qismidir. Dastlab, muhandislik faoliyatida innovatsion muhandislik mazmunini tahlil qilishdan avval, "texnik faoliyat" tushunchasining mohiyatini aniqlab olishimiz lozim.

Texnik faoliyat deganda, inson jismoniy va aqliy mehnati ko'lamini oshirish va uni osonlashtirish maqsadida, uning to'la yoki qisman mehnat va fiziologik funksiyalarini almashtirish uchun tabiat qonunlaridan foydalangan holda mexanik tizimlarni ekspluatatsiya qilish, ularga texnik xizmat ko'rsatish, bu tizimlarni yaratish, analiz, sintez qilish maqsadlariga yo'naltirilgan jarayonni anglash lozim. Har qanday boshqa faoliyatlar singari texnik faoliyat ham o'zining quyidagi asosiy elementlariga ega: motivlar, maqsadlar, vositalar va ularning avtomatlashtirilgan komponentlari – operatsiyalar.

"Innovatsiya (yangilik joriy etish) – pedagogik ilmiy-texnik muvaffaqiyatlarni (natijalarni, yutuqlarni) yaratish, o'zlashtirish va amaliyotga joriy etish jarayonidir". Shuningdek, adabiyotlarda "kasbiy ta'limning oliy darajasi – ijodiy mahoratga... muammolar yechimiga innovatsion yondashuvlarsiz erishib bo'lmasiligi" qayd etilgan.

Innovatsion ta'limning bosh maqsadi – mamlakat ijodiy potensialini asrab qolish va rivojlantirishdan iborat.

Innovatsion ta'limning quyidagi prinsiplari mavjud:

– shaxsning ichki erkinligi va uning ijtimoiy mas'uliyatiga asoslangan garmonik tafakkurning rivojlanishi;

- muammolarning ko'p variantli tasnifi va yechimlarini bayon etish madaniyatini shakllantirish;
- mavjud gipotezalarning subyektiv ekanligi va birorta ham nazariya umumiy bo'la olmasligini anglash;
- fanlararo aloqalarni rivojlantirish, umumiy tushunchalar tizimi va yagona axborot maydonini shakllantirish;
- tafakkur yoki intellektual faoliyatning ko'pqirraligi.

Ta'lim sohasida o'quv tarbiya jarayonining yangi mazmun, metodlar, tashkiliy shakllar ko'rinishidagi innovatsion faoliyatning yakuniy natijalarini yoki amaliy faoliyatda qo'llaniladigan ta'lim texnik vositalarini takomillashtirish, yoxud ta'lim sohasidagi ijtimoiy xizmatlarga yangicha yondashuvlarni innovatsiya deb atash mumkin. Innovatsiyaning asosiy belgilari – bu maxsus tashkil etilgan innovatsion faoliyat natijasida ta'lim muassasasi ish jarayonida vujudga kelgan ijobiy samarali ijtimoiy va iqtisodiy o'zgarishlardir. Bunday shart-sharoitlarda ta'lim muassasalarida ta'limning ijtimoiy xizmatlar, uslubiyotlar, texnologiyalar, texnik vositalar kabi sohalariga innovatsion yondashuvning joriy etilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

“Odatda, innovatsiyalar an'anaviy muammoni yangi usul qo'llash bilan hal qilish, ma'lumot va dalillarning uzoq vaqt davomida jamlanishi va ularni idrok etish natijasida novatorlik xususiyatlariga ega bo'lgan yangi sifat vujudga kelgan vaziyatlarda namoyon bo'ladi. Zamonaviy texnologiyalarning aksariyati tarixiy tajriba bilan izchil aloqada bo'ladi. Bu esa innovatsion jarayon – motivatsiyalangan, muayyan bir maqsadga yo'naltirilgan va idrok etilgan zamonaviy dolzarb va mavjud shart-sharoitlarga moslashtirilgan, ma'lum bir mezonlarga mos keladigan g'oyalar (nazariyalar, metodikalar, texnologiyalar va boshqalar)ni yaratish, o'zlashtirish, ulardan foydalanish va ularni targ'ib etish jarayoni ekanligini qayd etish imkonini beradi. Innovatsion ta'lim jarayonlarining negizida pedagogikaning ikki o'ta muhim ahamiyat kasb etadigan muammolari yotadi: pedagogik tajribani o'rganish va uni psixologik-pedagogik ilm-fan yutuqlarining amaliyotga joriy etilishi darajasiga ko'tarish.


Ko'pchilik mutaxassislar, metodik tizimni takomillashtirish muhandislik ta'limini bilim, ko'nikma va metodologik madaniyatni maqsadga yo'naltirilgan holda shakllantirish jarayoni va uning natijalari tarzida, shuningdek, mos ravishdagi mazmun va ta'lim metodlari hisobidan texnika va texnologiya sohasi mutaxassisini innovatsion muhandislik faoliyatiga kompleks tayyorlash sifatida talqin etadilar.

Innovatsiyalar dolzarb, muhim ahamiyatli va tizimli ravishda o'z-o'zidan shakllanib boradigan, yangidan vujudga keladigan ma'lumotlar bo'lib, ular turli xildagi tashabbus va yangiliklar negizida yuzaga keladi va innovatsion ta'lim evolyutsiyasining istiqboliga aylanadi, ta'lim sohasining yanada rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Innovatsiyalarning qo'llanish sohaları va ularning turlari bo'yicha umumiy klassifikatsiyani A.D. Goxshtand taklif etgan. Bu klassifikatsiya 1-rasmda keltirilgan.

Innovatsion muhandislik faoliyat prinsipial jihatdan yangi yoki yangi iste'mol xususiyatiga ega bo'lgan ma'lumotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar) yaratish va ularni ishlab chiqarishni tashkil etish; mahsulotlarni ishlab chiqarish, ommalashtirish va foydalanish uchun yangi usullarni (texnologiyalarni) ishlab chiqish yoki mavjudlarini modernizatsiya qilish sifatida tavsiflanadi. A.D. Goxshtand innovatsion muhandislik faoliyatini fan va texnika yutuqlarini xo'jalik (fuqarolik-huquqiy) iste'molga kiritish tarzida ifodalaydi.

Innovatsion muhandislik faoliyat – bu mahsulotning tovar ko‘rinishiga keltirilgan, iqtisodiy-ijtimoiy va boshqa samaraga ega bo‘lgan hamda buning natijasida raqobatbardosh yangi texnika va texnologiyalarni loyihalashtirish va yaratishdir.



1-rasm. Innovatsiyalarning ko‘rinishlari.

Innovatsion muhandislik faoliyatga berilgan ta’riflarning tahliliga asoslanib, tadqiqotimiz davomi uchun quyidagi ta’rifni keltiramiz: innovatsion muhandislik faoliyati – bu tovar mahsuloti ko‘rinishiga keltirilgan, intellektual mulk sifatida rasmiylashtirilgan, texnik hujjatlari yoki ishlab chiqarish namunalari mavjud bo‘lgan, ijtimoiy, iqtisodiy yoki boshqa ko‘rinishda samara beradigan va pirovard natijada raqobatbardosh bo‘lgan yangi texnika va texnologiyalarni loyihalashtirish va yaratish jarayonidir. Innovatsion muhandislik faoliyati mamlakat iqtisodining jahonda ilg‘or pozitsiyalarni egallashini ta’minlashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi va ta’lim, texnika va ishlab chiqarish birlashuvining yangi shakllarini, yangi ko‘rinishlarini aks ettiradi.

Innovatsion muhandislik faoliyatining asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- faoliyatning ijodiy qirralarini rivojlantirish (kasbiy muammolarning ijodiy va no-standart yechimlarini topa olish, katta hajmdagi axborotlar orasidan tezda keraklilarini matematikalash);

- muhandislik funksiyalari va faoliyat turlarining integratsiyasi (mahsulot va texnologiyalarni loyihalashtirish va ularni ishlab chiqarishni tashkil etishda kashfiyotchilik va konstruktorlik funksiyalarini samarali uyg‘unlashtirish, mustaqil ravishda qarorlar qabul qila olish, bozor ehtiyojlarini bilishga yo‘naltirilganlik);

- kasblararo samarali muloqot (kasbiy muammolarni hal etishda boshqa kasb vakillari bilan bir jamoada samarali ish olib borishga tayyorlik).


Innovatsion faoliyatga oid ishlar tarkibiga, avvalo, innovatsion tipdagi quyidagi vazifalar kiradi:

- fundamental va izlanuv tadqiqotlari: amaliy ilmiy-izlanish, tajriba-loyihalash va texnologik ishlar;

- yangi yoki takomillashtirilgan texnologiyalarni egallash;

- yangi yoki takomillashtirilgan tovar va xizmatlarni o'zlashtirish;
- ilmiy texnik faoliyat natijalaridan foydalangan holda tovar ishlab chiqarish, xizmatlarni amalga oshirish va iste'mol bozorida ularni realizatsiya qilish.

Qayd etilganlardan kelib chiqib aytish mumkinki, innovatsion muhandislik faoliyatining asosiy mahsulotlari (innovatsion mahsulotlar) quyidagilardan iborat bo'ladi: intellektual mulkni muhofaza etuvchi hujjat (patent, savdo markasi va boshqalar), mahsulotning texnik hujjatlari, mahsulotni tayyorlash jarayonining texnik hujjatlari, yangi mahsulot, yangi texnologiya, ya'ni innovatsion muhandislik faoliyati natijasida yaratilgan va bozorga taqdim etilishi mumkin bo'lgan barcha narsa, mahsulot va natijalar.



2-rasm. Innovatsion jarayondagi o'quv – ilmiy – ishlab chiqarish majmuasining turli funksiyalar birlashmasidagi shakli.

Yuqoridagilardan xulosa sifatida aytish mumkinki, innovatsion muhandislik faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun o'quv, ilmiy va ishlab chiqarish muassasalarining turli shakllardagi funksiyalarini butun mamlakat iqtisodiyotini innovatsion rivojlanish yo'liga o'tkazish maqsadida birlashtirish lozim. Bu qarash V. Gumbold tomonidan e'lon qilingan “Ta'lim va ilmiy-tadqiqotlarning birligi” tezisi orqali ham tasdiqlanadi.

2-rasmda oliy ta'limning o'quv – ilmiy – ishlab chiqarish majmuasi yaxlit birlashmasining shakli keltirilgan. Ko'rinib turibdiki, o'quv – ilmiy – ishlab chiqarish majmuasi yaxlit birlashmasi bir-biri bilan bog'langan kichik tizimlardan (ta'lim, fan, ishlab chiqarish) iborat bo'lgan berk siklik tuzilma shaklida ifodalangan. Har bir kichik tizimda innovatsion jarayonlar bilan bog'liq bo'lgan o'quv – ilmiy – ishlab chiqarish majmuasining yaxlit tizimiga integrallashtirilgan xususiy muammolar hal etiladi. Mutaxassislarining e'tirof etishlaricha, bu kabi majmualarning rivojlanish yo'li ularni o'quv – ilmiy – innovatsion komplekslariga transformatsiyalashdan iborat. O'z tuzilmasida mustahkam moddiy-texnik bazasiga ega bo'lgan bunday majmualarda ishchi-xodimlar va talabalarni innovatsion faoliyatga jalb etgan holda yangi toifadagi mutaxassislar tayyorlash mumkin bo'ladi.

Tasnifiga ko'ra, faoliyati jamiyat, mamlakat, hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishiga yo'naltirilgan, mutaxassis, ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash jarayonining barcha davr va bosqichlarida ta'lim, ilmiy izlanish, ilmiy-texnik va innovatsion

faoliyatlarning yaxlitligini ta'minlay oladigan, mulkchilik shakli va tegishlilik sohasidan qat'i nazar har qanday oliy ta'lim muassasasi o'quv – ilmiy – innovatsion majmua bo'la oladi.

O'quv – ilmiy – innovatsion majmuaning vazifasi – innovatsion faoliyatning yakuniy natijasi sifatida iste'mol bozoriga kiritilgan yangi yoki takomillashgan ko'rinishdagi innovatsion mahsulot ishlab chiqarish, amaliy faoliyatda qo'llanadigan yangi yoki takomillashgan texnologik jarayonni shakllantirish yoxud ijtimoiy xizmat turlariga yangicha yondashuvni ta'minlashdan iborat. O'quv – ilmiy-innovatsion komplekslarning o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri shuki, an'anaviy – moddiy va informatsion muhandislik innovatsion mahsulotlari bilan bir qatorda u o'ziga xos innovatsion mahsulot – bakalavr diplomiga ega muhandisni ham yetishtirib beradi.

O'quv ilmiy innovatsion majmuaning bosh maqsadini amalga oshirish uchun ta'lim, ilmiy va innovatsion faoliyatlarni takomillashtirish muammolarini majmuaviy tarzda hal etish lozim.

Shunday qilib, xulosa o'rniida quyida ta'lim faoliyatini takomillashtirishga oid muhim masalalarni ajratib ko'rsatamiz:

- professor-o'qituvchilar tarkibi va talabalarning innovatsion faoliyatda bevosita ishtirok etishlari va innovatsion ta'lim texnologiyalarini o'zlashtirishlari asosida ta'limning sifat ko'rsatkichlarini oshirish;

- ta'lim jarayonini fundamentallashtirishning asoslari sifatida oliy o'quv yurtining ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatlarini rivojlantirish;

- bakalavrlar, magistrlar, doktorantlarning ilmiy ishlarida o'quv – ilmiy – innovatsion majmuaning ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyat tuzilmalari natijalaridan keng qamrovli foydalanish;

- o'quv va ilmiy innovatsion tuzilmalarning o'zaro aloqalarini mustahkamlash.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Агранович Б.Л. *Инновационное инженерное образование //Инженерное образование. 2003. №1. – С. 11-14.*

2. Гохштанд А.Д. *Инновационная деятельность как особый вид экономической деятельности. // Патенты и лицензии. 2007. №1. – С. 56-62.*

3. Полонский В.М. *Инновация в образовании (Методологический анализ). // Инновация в образовании . 2007. №2. – С. 4-14.*

4. Чернилевский Д.В. *Технология обучения в высшей школе. – М.: Экспедитор, 1996. – С. 288.*

5. Shadiyev R.D., Turdiyev Sh. R. *On questions of particularities of teaching mathematics in technical higher education institutions (HEI). Journal of Humanities and Social Sciences № 9–10.Vienna , 2014. pp. 141-144.*

Sharibboy ERGASHEV,

texnika fanlari nomzodi, dotsent

Aron KOLANTAROV,

T.N.Qori Niyoziy nomli O'zPFITI katta ilmiy xodimi

UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA AXBOROT-KOMMUNIKATSION MUHITNI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISHDA ELEKTRON AXBOROT-TA'LIM RESURSLARNING O'RNI VA AHAMIYATI

Annotatsiya

Maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida axborot-kommunikatsion muhitni shakllantirish va rivojlantirishda elektron axborot-ta'lim resurslarining (EATR) o'rni va ahamiyati haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, mualliflar EATRning asosiy innovatsion sifat ko'rsatkichlarini ochib bergan.

Kalit so'zlar. Axborot-kommunikatsiya, elektron axborot-ta'lim resurslari, interfaol, mashg'ulot, navigatsiya, tizim, komponent.

В статье раскрыты роль и значение электронных информационных образовательных ресурсов в формировании и развитии информационно-коммуникационной среды в общеобразовательных средних школах. Авторами определены показатели качества обучения на основе использования электронных информационных образовательных ресурсов.

Ключевые слова. Информационно-коммуникационный, электронные информационные образовательные ресурсы, интерактивное занятие, навигация, система, компонент.

The article reveals the role and importance of electronic information educational resources in the formation and development of information and communication environment in secondary schools. The authors define the indicators of innovation quality of education by using electronic information learning resources.

Key words. Information and communication, electronic information educational resources, interactive lesson, navigation, system, component.

Bugungi kunda axborotlashtirishga ta'lim tizimini modernizatsiyalashning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Bu nafaqat texnika va texnologiyalarning rivoji bilangina bog'liq, balki axborot va ular bilan ishlash ko'nikmalar muhim ahamiyat kasb etayotgan axborot jamiyatining rivojlanib borishi natijasida vujudga kelgan o'zgarishlar bilan bevosita bog'liq. Yuzaga kelgan ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarda axborot texnologiyalariga asoslangan ta'lim yetakchi o'rin tutishi lozim.

Shu sababli umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi oxirgi o'n yillardagi islohotlar o'sib kelayotgan yosh avlodni o'qitishning shakl, vosita va usullarini takomillashtirish orqali ularni axborot makoniga kirib borishlari hamda unga tezkor moslashishlariga yo'naltirildi.

Mamlakatimizdagi ta'lim tizimi, jahondagi ta'lim xizmatlari sohasidagi axborotlarning yangilanib borish moyilliklarga mos ravishda rivojlanib bormoqda. Zamonaviy axborot hamjamiyatidagi sodir bo'layotgan doimiy o'zgarishlar o'quv jarayonida bo'lgani kabi turli o'quv materiallarida o'z aksini topmoqda.

XX asrning oxirlarida, O'zbekiston Respublikasining mustaqilligining dastlabki yillaridayoq ta'lim tizimini axborotlashtirish, turli o'quv fanlarini o'qitishga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish bo'yicha maqsadga yo'naltirilgan ishlar boshlab yuborildi.

Mutaxassislar oldida yanada ulkan qamrovli va dolzarb masalalar turibdi:

- zaruriy dasturiy ta'minotni yaratish va uning yordamida har bir ta'lim muassasasida axborot-kommunikatsiya muhitini (TM AKM) shakllantirish;

- mazkur ta'lim muassasalarining axborot-kommunikatsiya muhitlarini bosqichma-bosqich xalq ta'limi tizimining yagona axborot-kommunikatsiya muhiti (XT AKM) ga birlashtirish.

“Xalq ta'limi” jurnalining 2016-yil 3-sonida nashr etilgan “Xalq ta'limi tizimida axborot-kommunikatsion muhitni yaratish: asosiy maqsad va vazifalar” nomli maqolada “Ta'lim muassasasi axborot-kommunikatsiya muhiti”¹ tushunchasining ta'rifi keltirildi, TM AKMni shakllantirishning asosiy maqsad va vazifalari ko'rib chiqildi hamda uni tashkil etuvchi 5 ta asosiy komponentlari belgilab berildi. Axborot-kommunikatsiya muhitining asosiy komponentlariga quyidagilar kiritilgan:

- 1) ta'lim muassasasining o'quv jarayonini axborotlashtirishga mo'ljallangan Dasturiy-metodik majmua (TM AKMning o'quv komponenti);

- 2) bilimlarini aniqlash va nazorat qilish jarayonini avtomatlashtirishga mo'ljallangan o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholash, nazorat qilish va aniqlashning kompyuterlashgan vositalari;

- 3) ta'lim muassasasi pedagogik jamoasining metodik faoliyatini amalga oshirishga mo'ljallangan axborot-kommunikatsiya vositalari;

- 4) ta'lim muassasasidagi tashkiliy boshqaruv faoliyatini ta'minlashga qaratilgan maktab boshqaruvining axborot tizimi (MBAT);

- 5) ta'lim muassasasida o'quv jarayonidan tashqari faoliyatini tashkil qilishga mo'ljallangan axborot-kommunikatsiya vositalari (TM AKMning o'quvdan tashqari komponenti).

Yuqorida nomi keltirilgan maqola matnida bayon qilingan g'oyalardan kelib chiqib, o'quv komponenti ta'lim muassasaning axborot-kommunikatsiya muhitini tashkil qiluvchi sanab o'tilgan komponentlar ichida eng muhimi ekanligini xulosa qilish mumkin.

¹ Ta'lim muassasasining axborot-kommunikatsiya muhiti – bu: kompyuter texnikasi va dasturiy telekommunikatsiya vositalaridan foydalanishga asoslangan, o'quvchilar, pedagoglar, ota-onalar, ta'lim muassasasi ma'muriyati va jamoatchilikning ehtiyojlarining sifatli axborot ta'minotini yaratishga mo'ljallangan tizim (muhit);

Quyida biz AKMni shakllantirish va rivojlantirishda o'quv komponentining ahamiyati, roli va o'rnini, uning tuzilishi va mazmuniga qo'yilgan asosiy talablarni batafsil ko'rib chiqamiz.

Ko'rinib turibdiki, o'quv komponentisiz, xalq ta'limi tizimida axborot-kommunikatsiya muhitini yaratishning bosh maqsadiga – ta'lim jarayonining asosiy ishtirokchilarini XXI asr axborot hamjamiyati sharoitida to'laqonli va samarali hayotiy faoliyatga tayyorlashga erishib bo'lmaydi.

Ta'lim muassasalarida axborot-kommunikatsiya muhitini yaratish konsepsiyasida nazarda tutilgan asosiy ijtimoiy-iqtisodiy, pedagogik va boshqa vazifalarni faqatgina (xuddi) o'quv komponenti yordamida yechish mumkin bo'ladi. Bu kabi vazifalar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- o'quvchilarning ta'limiy tayyorgarligining samaradorligi va sifatini oshirish;
- an'anaviy pedagogik texnologiyalaridan interfaol shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalariga o'tish;
- interfaol pedagogik texnologiyalarni joriy etish orqali har bir o'quvchi shaxsini rivojlantirish, ta'lim jarayonini individuallashtirish, ijtimoiy ta'lim va muloqot madaniyatini shakllantirish imkoniyatlarini amalga oshirish;
- o'quv rejadagi turli fanlarni o'rganish jarayonida AKTlarni maksimal ravishda ishlatish orqali axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish malakalarini rivojlantirish va mustahkamlash;
- elektron ta'lim² muhim rol o'ynaydigan va samarali qo'llaniladigan ta'lim muhitini yaratish;
- o'quvchi va o'qituvchilarning hamkorlikdagi o'quv va tadqiqot ishlarini tashkil qilish, ilmiy laboratoriyalar ish sharoitlarini modellashtirish orqali tadqiqotchilik malakalarini shakllantirish;
- o'quvchilarning o'quv va tajriba-sinov faoliyatlari natijalarini tezkor va mustaqil ravishda qayta ishlash uchun sharoitlarni tashkil qilish;
- o'qituvchilar, o'quvchilar va ota-onalarga tezkor maslahat xizmatlarini tashkil qilish;
- o'quv faoliyati natijalarini nazorat va tuzatish vositalaridan samarali foydalanish.

Umumiy o'rta ta'limning axborot-kommunikatsiya muhiti, asosan, turli maqsadlarga tanlangan, har xil turdagi va ko'rinishdagi EATRlardan tashkil topadi. Aynan EATRlarda o'quv jarayonining mazmuni tarkibi joylashadi.

Umumta'lim maktablarida axborot-kommunikatsion muhit (AKM)ni shakllantirish va rivojlantirishda o'quv rejaning turli fanlari bo'yicha yaratilgan EATRlar majmualarining ahamiyati, roli va o'rnini aniqlash uchun o'quv komponentining tuzilishi va uning tarkibini tashkil etuvchi EATRlarning asosiy turlarini ko'rib chiqamiz.

Ta'lim jarayonidagi vazifalariga oid tayinlanishidan kelib chiqib EATRlar 8 ta asosiy turlarga ajratiladi:

1. Taqdimotlar – bu o'z ichiga animatsiyalarni, audio va videolavhalarini, interfaol elementlarni olgan elektron diafilmlardir. Taqdimotlarni yaratish uchun Power Point yoki Open Impress kabi dasturiy vositalardan foydalaniladi. Bu turdagi taqdimotlar-

² Elektron ta'lim (e-learning) – darsda ham, masofaviy o'qitish shakllarida ham birdek elektron (raqamli) materiallardan foydalangan holda ta'lim berish.

ni shaxsiy kompyuterga ega bo'lgan, maxsus seminar-treninglarda tayyorgarlikdan o'tgan o'qituvchilar yaratishi mumkin. Ta'kidlash joizki, bu kabi taqdimotlarni yaratish vositalarini o'rganish katta mablag' va vaqt talab qilmaydi. Taqdimotlarni qo'llash o'quvchilardagi ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi. Shaxsning psixologik o'sishini ta'minlab, mustaqil fikrlash va o'z-o'zini baholashni orttiradi. Taqdimotlar o'quvchilarning loyihalash ishlarida ham keng ishlatiladi.

2. Elektron axborot-qidiruv ma'lumot berish tizimlari (elektron ensiklopediyalar) an'anaviy ma'lumot-axborot nashrlariga, shu jumladan, ensiklopediya, lug'at, ma'lumotnoma va boshqalarga o'xshash bo'ladi. O'quvchilarning mustaqil ishlashlarini qo'llab-quvvatlash uchun mo'ljallangan.

Bu kabi ensiklopediyalarni yaratish uchun gipermatnli tizimlar va HTML kabi gipermatnli belgilar tili qo'llaniladi. Qog'oz variantdagi analoglaridan farqliroq ular qo'shimcha xususiyatlar va imkoniyatlarga ega va quyidagilardan iborat:

- darsliklardagi materiallarni muntazam va ketma-ket bayon qilishni to'ldirib, zarur bo'lgan axborotlar qismiga bevosita murojaat qilish imkonini berishi;
- kalit so'zlar, so'rovlar va tushunchalar orqali qulay qidiruv tizimining qo'llanilganligi;
- giperhavolalarga asoslangan qulay navigatsiya tizimining mavjudligi;
- tarkibida foto, audio va videomateriallar ko'rinishidagi illyustratsiyalarni qamrab olganligi.

3. Didaktik materiallar – masalalar, diktantlar, mashqlar to'plamlari, referat va insholar namunalarining elektron ko'rinishi bo'lib, odatda doc, txt formatdagi oddiy matnli fayllardan iborat bo'lgan va gipermatnli vositalar mantiqiy tuzilmasiga birlashgan bo'ladi.

4. Mashq-dasturlar – didaktik material funksiyalarini bajaradigan, topshiriqlarning bajarilishini kuzatib borish va xatoliklar haqida xabar berish imkoniyatiga ega elektron vositalar.

5. Matematik va modellashtirish dasturlarga asoslangan virtual tajriba tizimlari. Bu fizik tajriba yoki kimyoviy jarayonning modellashtirish, o'quvchi foydalana olishi mumkin bo'lmagan qurilmaning o'xshatmasi, masalalarni yechishning trening tizimi yoki axloqiy tarbiyada munozaralarni modellashtirish bo'lishi mumkin. Bunday tizimlar o'quvchilar uchun "virtual laboratoriya"da xavfsizlik va vaqt ko'rsatkichlari hamda boshqalar tufayli voqelikda o'tkazishi iloji bo'lmagan tajribalarni ham amalga oshirish imkonini beradi.

6. Bilim, ko'nikma va malakalar darajalarini o'lchash va nazorat qilish dasturiy vositalari. Bunday vositalar turiga so'rovnoma, testlar, kompyuter yordamida yoziladigan diktantlar kiradi. Ularning asosiy qadr-qimmati – o'quvchining bilimi sifatini tez, qulay, xolis va avtomatlashtirilgan tarzda baholashi, olingan natijalarni tizimlashtirish va sifat jihatidan tahlil qilish imkoniyatining mavjudligi.

Xalq ta'limi muassasalari amaliyotida bunday vositalardan foydalanib, o'quvchilar tayyorgarlik darajasini joriy, oraliq, bosqichli va yakuniy nazoratini tashkil qilish va amalga oshirish, psixologik-pedagogik tashxislash bo'yicha ma'lum tajribalar yig'ilgan. Asosiy kamchiligi – sinaluvchining ijodiy qobiliyatlarini namoyon qilish imkonini beradigan, tez moslashuvchan javoblar tizimining mavjud emasligi.

7. Ta'lim beruvchi majmuaviy dasturlar (elektron darsliklar va o'quv kurslari) – yuqorida keltirilgan barcha yoki bir nechta turlarni yagona majmuaga birlashtiradi. Misol uchun, o'quvchiga avval o'quv kursini (taqdimotni) tomosha qilish, keyin o'quv kursini tomosha qilishdan olingan bilimlari asosida virtual tajriba o'tkazish tavsiya etiladi. Ko'p hollarda bu bosqichda o'quvchiga o'rganilayotgan kurs bo'yicha elektron ma'lumotnoma yoki ensiklopediyadan foydalanishi mumkin. Yakuniy qismda u beriladigan savollarga javob berishi yoki bir nechta topshiriqlarni yechishi kerak bo'ladi.

Elektron darsliklar, axborot-kommunikatsiya muhitining o'quv komponentini tashkil etuvchi elektron axborot-ta'lim resurslar majmuasining asosi hisoblanadi. Materiallarning to'liq va uzluksiz bayon qilinganligi, zamonaviy axborot vositalarni qo'llagan holda yangi didaktik ish sxemalarni amalga oshirish, interfaol va multimediali texnologiyalarning kompleks tarzda qo'llanilishi, navigatsiya tizimining imkoniyatlari elektron darsliklarning asosiy sifatleri deb hisoblanadi.

8. Ta'limiy o'yinlar va rivojlantiruvchi dasturlar – bu o'yinga mo'ljallangan ssenariy asosida yaratilgan interfaol dasturlardir. O'yin jarayonida turli topshiriqlarni bajarish bilan bir qatorda bolalarda nozik harakat ko'nikmalar, fazoviy tasavvur, xotira rivojlanadi hamda shu bilan bir qatorda klaviaturada ishlash bo'yicha qo'shimcha malakalarga ham ega bo'ladi.

Yuqorida sanab o'tilgan EATRlar turlari bilan bir qatorda ta'lim muassasasining axborot-kommunikatsiya muhitining o'quv komponentida umumiy bo'lgan xizmat ko'rsatish dasturlariga ham alohida o'rin ajratiladi. Bu toifaga o'quvchilarning ta'limiy tayyorgarligi uchun majburiy va muhim bo'lmagan, asossiz ravishda ko'p mehnat talab qiluvchi o'quv jarayoni tuzilmasining avtomatlashtirilgan xizmat ko'rsatish vositalari kiradi. Bunday vositalarning qo'llanish sohasi turlicha bo'lishi mumkin: qiyin hisob-kitoblarni avtomatlashtirish, o'quv hujjatlarni rasmiylashtirish, tajriba-tatqiqot ishlari axborotlarini qayta ishlash va boshqalar.

Ishlab chiqish jarayonida zamonaviy axborot va multimedia texnologiyalari qo'llanilgan elektron resurslar an'anaviy o'quv qo'llanmalar orqali qo'llash mumkin bo'lmagan didaktik sxema va materiallarni taqdim etish shakllarini amalga oshirish imkonini beradi. Har tomonlama o'ylab chiqilgan axborot texnologiyalari orqali taqdim etiladigan yo'naltiruvchi (navigatsiya), multimediali va boshqa vositalar qo'llanilgan elektron ko'rinishdagi o'quv materialini samarali o'qitish vositasiga aylantiradi.

EATRlardan darsning turli bosqichlarida – yangi materialni o'rganishda, o'tilgan mavzuni takrorlash va mustahkamlashda, shuningdek, o'quvchilar bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarini Davlat ta'lim standartlari talablariga mosligini tekshirishda foydalanish mumkin.

O'quvchilarning darsda va uyda mustaqil ishlashlarini tashkil etishda elektron resurslar alohida o'rin tutadi. Jumladan:

- bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarini mustahkamlash va yaxshilab o'rganib olish;
- o'quv-tadqiqot ishlarini bajarish;
- navbatdagi dars mashg'ulotiga tayyorgarlik ko'rish va uy vazifalarini bajarish;
- tanlovlar, olimpiada va imtihonlarga tayyorgarlik ko'rish;

– konspektlar va referatlar tuzish, ma’ruzalar tayyorlash, loyihalar ishlab chiqish va boshqalar;

– dars mashg’ulotlariga qatnasha olmagan o’quvchilar uchun qoldirilgan materiallar bilan mustaqil tanishib chiqish imkoniyatlari yaratiladi.

Axborotlashtirishdan ta’limning samaradorligi va sifatini oshishini faqatgina yangi o’quv mahsulotlari ayrim innovatsion sifat ko’rsatkichlariga ega bo’lgan holdagina kutish mumkin.

EATRning asosiy innovatsion sifat ko’rsatkichlariga quyidagilar kiradi:

1. Ta’lim jarayonining barcha komponentlari qamrab olinganligi. Jumladan: axborot olish, amaliy mashg’ulot, attestatsiya (o’zlashtirishning nazorati).

Aytish kerakki, kitoblar faqat axborot berishga mo’ljallangan bo’lib, ma’lumot olishni ta’minlaydi.

2. Interfaollik, faol-harakatli o’qitish shakllaridan foydalanish orqali mustaqil ishlash imkoniyatlarini keskin oshirishni ta’minlanganligi.

3. Sinf dan (auditoriya dan) tashqari yanada to’laqonli o’qish imkoniyatlarining yaratilganligi.

O’quv komponentining afzalliklarini ko’rib chiqib, uni tashkil etuvchi EATR va boshqa elektron resurslari tomonidan ta’lim jarayoni ishtirokchilariga ta’minlanadigan yutuqlar va ustunliklarga to’xtalamiz.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, dars mashg’ulotlarida va darsdan tashqari faoliyatda EATR va boshqa multimediali o’qitish vositalaridan foydalanish o’qituvchiga o’qitishning asosiy prinsiplarini amaliyotda to’laqonli va samarali qo’llash imkoniyatini hamda o’quvchining bilishga bo’lgan intilish faollashuvini ta’minlaydi:

- ko’rgazmalilik prinsipi;
- ta’limning hayot bilan bog’liqlik prinsipi;
- individual yondashuv prinsipi;
- tenglik prinsipi;
- ishonchlilik prinsipi;
- qayta aloqa prinsipi;
- interfaollik prinsipi;

Bunda, interfaol o’qitish prinsiplari muhim ahamiyat kasb etadi:

- o’zaro muloqotga kirishish;
- kichik guruhlarda birgalikda va hamkorlikda ishlash;
- faol-harakatli faoliyat;
- o’qitishni treninglar orqali tashkil qilish.

O’qitishning asosiy shakllari takomillashib, ularning samaradorligi ortmoqda. Xususan:

– elektron test olish tizimlari, interfaol trenajyor va topshiriqlar sinfda dars o’tish-o’qitish tizimi imkoniyatlarini yanada sezilarli darajada kengaytiradi;

– o’yinga asoslangan o’qitish, haqiqiy holatni modellashtirish va ularga mos ravishda virtual uchrashuv, muloqotlarni, seminarlar, olimpiadalar, masofaviy ta’lim vositalari yordamida tanlov topshiriqlarini yechishga yanada qulay bo’lgan sharoitlarni yaratadi;

– fan kabinetlari va sinf xonalari sharoitida EATRLar yordamida o’quv tajriba-tadqiqotlarini amalga oshirish mumkin bo’ladi;

– EATRIlar yordamida o'qitishning individuallasuvi yangi mazmun va imkoniyatlarga ega bo'ladi;

Bunda o'qituvchi an'anaviy usuldagi axborot tarqatuvchi ko'rinishida emas, balki o'quv jarayonini tashkil etishning maslahatchisi, hamkori va hammuallifi sifatida namoyon bo'ladi.

O'qituvchida ta'lim mazmunini takomillashtirib borish va tuzatish, o'quv materialini uzatish usulini tanlash, joriy holatdagi axborotlarni olish, yangiliklar bilan tanishish, darsliklarda nazarda tutilmagan qo'shimcha axborotlarga ega bo'lish imkoniyatlari yaratiladi.

O'qituvchi ixtiyorida o'qitishning yangi samarali metodlari paydo bo'ladi. Masalan:

– elektron(interfaol) jadval, diagrammalar, xarita va boshqalar, shu jumladan, Internet tarmog'ida joylashgan resurslardan foydalangan holda illyustratsiyalash metodi;

– animatsiyalar va raqamli videolavhalar orqali foydalanishga mo'ljallangan taqdimot metodi hodisa va jarayonlarni dinamikada ko'rsatish imkonini beradi;

– loyihalash metodi³ – tadqiqotchilik, izlanuvchanlik, muammoli metodlar, xususiyatiga ko'ra ijodiy, mustaqil izlanish va axborotlarni qayta ishlash, shuningdek, ularni turli axborot tashuvchi vositalarda tizimlashtirish va saqlash imkoniyatlarini yaratuvchi kabilar yig'indisi.

O'qituvchi tomonidan qo'llaniladigan o'qitish vositalari⁴ shu jumladan, raqamli ta'lim vositalarini ishlatish orqali takomillashmoqda va to'ldirilib borilmoqda.

Turli mashg'ulotlarda EATRIlardan foydalanish tushuntirish, taqdimot ko'rinishidagi o'qitish uslublaridan har bir o'quvchi o'quv jarayonining faol subyektiga aylandigan faollashtiruvchi o'qitishga o'tishga imkon beradi. Bu o'z o'rnida o'quvchi tomonidan bilimlarni ongli ravishda o'zlashtirishga yordam beradi.

Elektron axborot resurslarining xilma-xilligi o'quvchilarning alohida qiziqishlari va imkoniyatlarini hisobga olish uchun sharoitlar yaratadi. Ularning darslarda ishlatilishi o'quvchilarning ijodiy motivatsiyalarini kuchaytiradi, ta'lim oluvchilarning bilish faoliyatiga intilishlarini faollashtiradi.

O'quv jarayonining muvaffaqiyatli ta'lim olish uchun zarur bo'lgan individuallashtirish va tabaqalashuvi, tafakkurni, fiklashni rivojlantirishga yo'naltirilish uchun cheksiz imkoniyatlar paydo bo'ladi.

Kompyuterda matnli, grafikli, audio-video axborotlarni va animatsiyalarni bir joyga birlashtirish, o'quvchilarga taqdim qilinayotgan o'quv axborotlar sifatini va ularning bilish faoliyatini tashkil qilishning samaradorligini keskin oshiradi.

Multimedia⁵ texnologiyalari shaxsga taqdim etilayotgan axborotlarni an'anaviy o'qitishdagi asta sekinlik bilan emas, balki bir necha sezgi organlari orqali qabul qi-

³ Loyihalash metodi asosida o'quvchilarning bilishga bo'lgan intilish malakalarini, o'z bilimlarini mustaqil loyihalashtirish ko'nikmalarini, axborot makonida to'g'ri yo'l topa olish, tanqidiy va ijodiy fikrlashlarini rivojlantirish kabilar yotadi. Loyiha doirasida o'qituvchiga ishlab chiqaruvchi, muvofiqlashtiruvchi, ekspert va maslahatchi roli ajratiladi.

⁴ O'rgatuvchi vositalar – bular ta'lim jarayonida ta'limiy axborotlarni tashuvchi vosita sifatida ko'zlangan ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarga erishish uchun ishlatiladigan inson tomonidan, shu jumladan, tabiat tomonidan yaratilgan predmetlar va pedagog hamda ta'lim oluvchining faoliyatining qurilmasi obyektlaridir.

⁵ Multimedia – (ingl.) matn, grafika, video va multiplikatsiyalardan foydalanish imkonini beruvchi ko'pkomponentli vosita.

lish imkonini beradi. O'quvchiga ko'rish, eshitish va uni faol harakatga chorlovchi o'zaro qo'shilgan holda ta'sir qilish orqali o'quv materiallarini 75 foizgacha o'zlashtirishga erishish mumkin.

Ta'lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan oqilona foydalanish quyidagilarga olib keladi:

- o'quvchilarning axborot tafakkurini rivojlantiradi va ularda axborot-kommunikatsiya kompetensiyalarini shakllantiradi;

- o'quvchilarning o'rganayotgan faniga bo'lgan qiziqishlarini orttiradi;

- o'quvchilarning qobiliyatlarini aniqlaydi va rivojlantiradi, ularni aqliy rivojlantiradi;

- o'qitishning qulaylik darajasi oshadi, o'quvchilarda o'rganilayotgan mavzu bo'yicha asosiy tushunchalar shakllanishini, shuningdek, o'rganilgan materiallar mustahkamlanishini yengillashtiradi;

- darslarni yuqori estetik va hissiy darajada tashkil qilish, fanni o'zlashtirishning xususiy (o'zining ehtiyojlar mos) sur'atini tanlash imkoniyatini beradi;

- o'qituvchi va o'quvchining mehnat va vaqt sarfini kamaytirgan holda o'qitishning yakuniy natijasiga yetishga qaratilgan, darsda bajariladigan ishlar hajmini 2-2,5 barabarga oshishga olib keladi.

EATRLarni qo'llanilishi o'qitishni yuqori darajada tabaqalashtirishini ta'minlanishi quyidagilardan iborat:

- o'qituvchiga – har bir o'quvchiga alohida, o'ziga xos yondashuv, o'quvchilarning psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda turli darajadagi topshiriqlardan foydalanish;

- o'quvchiga – testni murakkablik darajasiga qarab tanlash, topshiriqni bajarish bo'yicha tavsiya va yo'riqnomalardan foydalanish, o'quv materialining o'zlashtirganlik darajasini mustaqil baholash, o'zining o'zlashtirganlik darajasini hisobini yuritish.

Shaxsga yo'naltirilgan interfaol pedagogik texnologiyalarning joriy etilishi butun maktab ta'lim tizimi markaziga bola shaxsini olib chiqadi.

Hamkorlik texnologiyasi orqali, xolislik, tenglik, birgalikda ijod qilish, pedagog va bola o'rtasidagi hamkorlik amalga oshiriladi.

O'quv komponentini loyihalash, yaratish va undan foydalanish keng qamrovdagi psixologik-pedagogik, metodik va texnologik xarakterdagi talablarga qat'iy rioya etilgan holda amalga oshirilishi lozim:

- AKM o'quv komponenti tarkibiga kiritilgan EATRLar an'anaviy o'quv nashrlariga – darslik, o'quv va metodik qo'llanmalarga qo'yilgan Davlat ta'lim standartlari va standartlashtirilgan didaktik talablarga mos bo'lishi;

- o'quv jarayonida foydalaniladigan EATRLar mazmunan, texnik va texnologik jihatdan ta'lim muassasasi faoliyatining boshqa sohalarini axborotlashtirishda foydalaniladigan resurslar bilan uzviy bog'langan bo'lishi;

- EATRLarni yaratishda aniq o'quv fan sohasining o'ziga xos jihatlari va xususiyatlari, zamonaviy o'qitish metodlarini amalda qo'llash imkoniyatlari hisobga olingan bo'lishi;

- har bir axborot resursning navigatsiya tizimi o'qituvchi va o'quvchiga o'quv muassasasi muhitidagi komponentlar mazmuni xarakterini, butun muhitdagi axborot makonida joriy joylashuv holatini tushunishga yordam berishi kerak;

– AKM tarkibiga kiruvchi tizimlar, ularni o'quv jarayonida ishlatishning aniq metodikasi, o'quvchilar foydalanadigan axborotlarni saralash vositalari bilan ta'minlanganligi;

– o'quv komponentining EATR va boshqa resurslariga qo'yiladigan ergonometrik talablarda o'quvchilarning yosh xususiyatlari hisobga olingan bo'lishi, o'qishga bo'lgan motivatsiyani orttirishni ta'minlagan bo'lishi, axborotlar tasvirlari va aniq kompyuter vositalarining ish rejimlariga qo'yilgan talablarni nazarda tutishi zarur.

EATRLardan foydalanishda o'qituvchi o'quvchilar sog'ligini himoyalashga alohida e'tibor berishlari kerak. Misol uchun, Sanitariya qoidalari va me'yorlariga muvofiq uzluksiz ravishda ta'lim jarayonida o'qitishning texnik vositalardan foydalanish davomiyliги yuqori sinflarda 25-30 daqiqadan oshmasligi belgilangan.

Ta'kidlash kerakki, axborot-kommunikatsiya muhiti sharoitida o'qitishga o'tish, pedagog xodimlardan yangi interfaol pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirishni talab qiladi. Shuning bilan bir qatorda: ta'lim jarayonida kompyuter texnikasidan, video-proektordan, plazmali panellardan, elektron doska va uning ixchamlangan analoglaridan, dasturiy mahsulotlardan, Internet resurslardan, elektron pochta, EATR va boshqa o'qitishning multimediali vositalaridan oqilona foydalana olish zarur bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ergashev Sh., Kolantarov A. *"Xalq ta'limi tizimida axborot-kommunikatsion muhitni yaratish: asosiy maqsad va vazifalar"*, 2016-yil, *"Xalq ta'limi" jurnali*, 3-son.
2. Калиновская М. А. *Использование электронных образовательных ресурсов на уроках географии - одно из условий достижения качества образования*// Школьная педагогика. 2015. №2. – С. 25-27.
3. Кузнецова А.С., Корякина С.В. *Использование мультимедийных средств обучения в школьном курсе биологии.*
4. Д.В.Игнатович, Е.И.Сушко, Г.М.Раковцы. *Роль электронных образовательных ресурсов в учебном процессе на примере мультимедийного обучающего комплекса. Барановичский государственный университет. Барановичи, Беларусь.*

Kamoliddin MAMADALIYEV,

Oliy va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limini rivojlantirish markazi
mustaqil tadqiqotchisi

Manzura XOSHIMXODJAYEVA,

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti o'qituvchisi

YANGI O'QUV ADABIYOTLARINI YARATISHDA O'QUV JARAYONI LOYIHALARINI TUZISH

Annotatsiya

Maqolada yangi ochilgan ta'lim yo'nalishlari – yangi avlod o'quv adabiyotlarini yaratishda o'quv jarayoni loyihalarini tuzish, loyiha tuzishda qo'yiladigan talab va vazifalar, ularni ta'lim sifat-samaradorligini oshirishdagi o'rni ko'rsatib berilgan. Shuningdek, "O'quv jarayonini loyihalash" turkumidagi fanlar dasturi va o'quv adabiyotlarini yaratishda metodologik asos sifatleri ochib berilgan.

Kalit so'zlar. Yangi avlod o'quv adabiyotlari, yangi ochilgan ta'lim yo'nalishlari, fan dasturi, loyihalash, matematika o'qitish metodikasi, modul, pedagogik texnologiya, ierarxik pog'ona.

В данной статье раскрываются вопросы создания литературы нового поколения в новых направлениях образования. Также поставлены цели и задачи проектирования образовательного процесса, определены методологические основы создания программ и учебной литературы по направлению "Проектирование учебного процесса".

Ключевые слова. Литература нового поколения, новые образовательные направления, учебная программа, проектирование, методика преподавания математики, модуль, педагогическая технология, иерархическая структура.

Article describes the issues of creating a new generation of literature education in new directions. Also, were set goals and objectives of the design of the educational process, defined the methodological bases of creation in areas of scientific disciplines and educational literature programs.

Key words. Literature of new generation, new educational trends, the curriculum, designing, methods of teaching mathematics, module, pedagogical technology, hierarchical structure.

O'zbekistonda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturida Davlat ta'lim standarti talablarini har bir o'quv faniga alohida-alohida belgilab berilganligi tufayli o'quv mashg'ulotini loyihalash jarayonida bu metodologik asosga dasturilamal sifatida tayanildi.

"Matematika o'qitish jarayonini loyihalash" o'quv fani nazariy va amaliy mashg'ulotlari loyihasi muayyan yoki boshqa istalgan o'quv predmetining nazariy va amaliy mashg'ulotlar loyihalarini tuzish uchun mazkur uslubiy tavsiyanomada ko'rsatilgan algoritm bo'yicha uch turdagi vazifalar bajarilishi shart bo'lib, bu vazifalarni quyidagicha amalga oshirish mumkin:

Birinchi vazifa. “Matematika o'qitish jarayonini loyihalash” o'quv fanining umumiy jadvallarini tuzish. Buning uchun:

Birinchi navbatda, “Matematika o'qitish jarayonini loyihalash” o'quv fanini o'zaro uzviy bog'liq qismlardan tashkil topgan yaxlitlik sifatida tasavvur etib, uni “Eng katta” modul (eng yuqori ierarxik pog'ona) deb qabul qilindi va shu o'quv predmetining umumiy maqsadi belgilandi.

“Matematika o'qitish jarayonini loyihalash” o'quv fani – eng katta modulning umumiy maqsadi

Matematika o'qitish metodikasi bo'yicha pedagogik faoliyatni o'ziga kasb qilganlarni uzluksiz ta'lim tizimidagi o'quv predmetlarining nazariy va amaliy mashg'ulotlarini olib borish usulining zamonaviysi bo'lgan pedagogik texnologiyaning hududimizga mos milliy modeli bilimlari bilan qurollantirib, uning mazmun va mohiyatini “Matematika o'qitish jarayonini loyihalash” o'quv predmetini o'qitish jarayoniga tatbiq qilishni, shu asosda o'quv mashg'ulotlari loyihalarini tuzish va uni matematika turkumiga kiruvchi fanlar o'quv mashg'ulotlari loyihalarini tuzishga qo'llash bo'yicha bilimlarni ularning ko'nikmasiga aylantirish va shular asosida talabalarda matematika turkumiga kiruvchi fanlar o'quv mashg'ulotlari loyihalarini tuzish ko'nikma va malakalarini shakllantirish.

Ikkinchi navbatda, o'quv fani ichidagi bilimlarning mantiqiy bog'liqligi va fikrning tugallanganligini inobatga olib, uning ichidagi o'quv materialini bir necha “Katta” modullar (yuqori ierarxik pog'ona)ga ajratildi va ularning ham maqsadlari aniqlandi (1-jadval).

1-jadval

“Matematika o'qitish jarayonini loyihalash” o'quv fani ichidagi katta modullar va ularning yakunida erishiladigan maqsadlar

Katta modullar nomi	Katta modullar yakunida erishiladigan maqsadlar
Matematika turkumiga kiruvchi fanlar o'quv jarayonini loyihalashda pedagogik texnologiyaning o'rni, pedagogik texnologiyaning ilmiy asoslangan ta'rifi	“Matematika o'qitish metodikasi” ta'lim yo'nalishining yangilangan klassifikatorga kiritilishining zarurligini, matematika turkumiga kiruvchi fanlar o'quv jarayonini loyihalashda pedagogik texnologiyaning o'rni va ahamiyatini, matematika o'quv jarayonini texnologiyalashtirishning ijtimoiy zaruriyati va matematika o'quv jarayonini loyihalash asosi bo'lgan pedagogik texnologiyani ta'lim amaliyotiga joriy etishning dolzarbligi hamda unga yuklatilgan vazifalarni talabalarga tushuntirish. Shuningdek, yer yuzida mavjud yetakchi didaktik tizimlar tahlili asosida pedagogik texnologiya usulining yaratilishi ijtimoiy zaruriyat ekanligini ularning ongiga yetkazish va ular tafakkurida pedagogik texnologiyaning shakllanish tarixi hamda ilmiy asoslangan ta'rifi to'g'risidagi bilimlarni shakllantirish va “Matematika o'qitish jarayonini loyihalash” o'quv faniga tatbiqini ularning ko'nikmalariga aylantirish.

Pedagogik texnologiya uning tarkibiy qismi bo'lgan matematika o'qitish jarayonini loyihalashning metodologik asoslari	Talabalarda matematika ta'limini modernizatsiya qilish masalasining dolzarbligini, atrof olamdagi har qanday narsa va hodisalarni bir butunlik – sistema (majmua)lar sifatida ko'rib, ularni tashkil qiluvchi va o'zaro uzviy bog'liq bo'lgan unsurlarini ham, o'zidan bir pog'ona pastda bo'lgan "Sistema"lar deb, idrok qilish, ko'nikmasini hosil qildirish va ta'lim-tarbiya sohasida "Sistemali yondashuv" tamoyilini qo'llashga o'rgatish va matematika ta'lim-tarbiya sohasida sistemali yondashuv tamoyili asosida o'qitish jarayonini loyihalashni ularning ko'nikmasiga aylantirish.
Pedagogik texnologiya va uning tamoyillari asosida matematika o'quv jarayonini loyihalashning nazariy asoslari	Talabalarda pedagogika ilmining tadqiqod obyekti, predmeti, maqsadi va yechilishi shart bo'lgan masalalari, matematika sohasida faoliyat ko'rsatayotgan pedagogikaning faoliyat turlari, "Matematika o'quv jarayonini loyihalash" fani obyekti, predmeti, maqsad va vazifalarini, matematika turkumiga kiruvchi fanlar o'quv mashg'ulotlari loyihalarini tuzishda pedagog-o'qituvchilarning vazifalarni tushuntirish, ularda matematika turkumiga kiruvchi fanlarning nazariy va amaliy mashg'ulotlarining loyihasini tuzishga, o'quv mashg'ulotini ssenariysini yozish bo'yicha ko'nikma va malakalarini shakllantirish.
"Matematika o'qitish jarayonini loyihalash" fanini o'qitishda pedagogik texnologiyaning o'rni va ahamiyati	Pedagogik texnologiya tamoyillari asosida "Matematika o'qitish jarayonini loyihalash" fanini o'qitish mazmun va mohiyati bo'yicha bilimlarni talabalarning ko'nikma va malakasiga aylantirish, shu asosda matematika turkumiga kiruvchi fanlar o'quv mashg'ulotlari loyihalarini tuzishdagi o'rnini ko'rsatib berish.
Pedagogik texnologiya tamoyillari asosida "Matematika o'qitish jarayonini loyihalash" fanining o'quv mashg'ulotlar loyihasini tuzish	Talabalarga, o'quv predmetining materialini ierarxik pog'onali modullarga ajratib, maqsadlarini belgilashga va har bir kichik modul ichidagi tayanch tushunchalarni aniqlashga hamda nazorat savollarini tuzishga, shuningdek, har bir kichik modulda qo'llaniladigan dars turi, tipi, pedagogik usullar, axborot texnologiya va didaktik materiallarning qo'llanishini o'rgatish hamda pedagogik texnologiya tamoyillari asosida "Matematika o'qitish jarayonini loyihalash" fanini o'quv mashg'ulotlar loyihasini tuzish ko'nikmalarini shakllantirish.
Matematika turkumiga kiruvchi fanlar o'quv mashg'ulotlari loyihalarini tuzish modelini ishlab chiqish	"Matematika o'qitish jarayonini loyihalash" fanini o'quv mashg'ulotlar loyihalarini andoza sifatida ko'rib, pedagogik texnologiya tamoyillari asosida matematika turkumiga kiruvchi fanlar o'quv mashg'ulotlari loyihalarini tuzish modelini ishlab chiqishni o'rgatish va uni ta'lim jarayoniga qo'llash bo'yicha ko'nikma va malakalarini shakllantirish.

Uchinchi navbatda, har bir "Katta" modul ichidan mantiqan bog'langan, shu bilan birgalikda bir juft soatda talabalarga yetkazilishi lozim bo'lgan bilimlar majmularini "O'rta" (o'rta ierarxik pog'ona) modullarini ajratib, ularning ham maqsadlari belgilandi (2-jadval).

“Matematika o‘qitish jarayonini loyihalash” o‘quv fani birinchi katta modullari va ularning tarkibidagi o‘rta modullar hamda ularning yakunida erishiladigan maqsadlar

Birinchi katta modulning nomi	O‘rta modullar, ularning tartib raqamlari bilan mashg‘ulot turi va mavzuning nomi	O‘rta modullar yakunida erishiladigan maqsadlar
M a t e m a t i k a turkumiga kiruvchi fanlar o‘quv jarayonini loyihalashda pedagogik texnologiyaning o‘rni, pedagogik texnologiyaning ilmiy asoslangan ta‘rifi	1.1. Nazariy mashg‘ulot Matematika o‘quv jarayonini texnologiyalashtirishning zarurligi va pedagogik texnologiyaning ilmiy asoslangan ta‘rifi	Matematika turkumiga kiruvchi fanlar o‘quv jarayonini loyihalashda pedagogik texnologiyaning o‘rni va ahamiyatini, matematika o‘quv jarayonini texnologiyalashtirishning ijtimoiy zaruriyati va matematika o‘quv jarayonini loyihalash asosi bo‘lgan pedagogik texnologiyani ta‘lim amaliyotiga joriy etishning dolzarbligi hamda unga yuklatilgan vazifalarni, yer yuzidagi asosiy didaktik tizimlarni tahlil qilib berib, pedagogik texnologiya usulini paydo bo‘lishi, shart-sharoitlari va uni yaratilishining qonuniy tarzda zarur ekanligini talabalar tafakkurlariga yetkazish va uning o‘qitish jarayonini loyihalashdagi o‘rnini ularga tushuntirib berish.
	1.2. Amaliy mashg‘ulot Yer yuzidagi asosiy didaktik tizimlar va pedagogik texnologiyaning yaratilish shart-sharoitlari	Talabalarning avvalgi nazariy mashg‘ulot davomida olgan bilimlarini o‘zlari-ga aytirish yo‘li bilan bu bilimlarga nisbatan ularda ko‘nikma hosil qildirish.
	1.3. Nazariy mashg‘ulot Pedagogik texnologiyaning yuzaga kelish tarixi va ilmiy asoslangan ta‘rifi, ularning “Matematika o‘qitish jarayonini loyihalash” o‘quv faniga tatbiqi	Pedagogik texnologiya paydo bo‘lishidan avvalgi an‘anaviy usullar va yangi usullarni yaratish yo‘lidagi urinishlar hamda ularning natijasida pedagogik texnologiya paydo bo‘lganligi to‘g‘risidagi bilimlarni va pedagogik texnologiyaning ilmiy asoslangan ta‘rifini, talim oluvchilar ongiga yetkazish va “Matematika o‘qitish jarayonini loyihalash” o‘quv faniga tatbiqini ularga o‘rgatish.
	1.4. Amaliy mashg‘ulot Pedagogik texnologiyaning yaratilish tarixi va ilmiy asoslangan ta‘rifi va ularning “Matematika o‘qitish jarayonini loyihalash” o‘quv predmetiga tatbiqi	Avvalgi nazariy mashg‘ulot davomida egallangan bilimlarni ta‘lim oluvchilardan takroran so‘rab, bu bilimlarni ularning ko‘nikmalariga aylanirish va “Matematika o‘qitish jarayonini loyihalash” o‘quv faniga tatbiqi bo‘yicha bilimlarni ularga o‘rgatish va malakalarini shakllantirish.

Izoh. *Hisobot sahifalarini ixchamlashtirish maqsadida faqat birinchi katta modul va uning tarkibiga kiruvchi o'rta modullar va uning kichik modullarini keltirdik.*

Shuningdek, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi hamda Prezidentimizning yosh avlod oldiga qo'yayotgan talablarini inobatga olib, buyuk mutafakkirlarning inson ijtimoiy sifatlariga qo'ygan mezonlar tizimidan "O'quv jarayoni-ni loyihalash" turkumidagi fanlar dasturi va o'quv adabiyotlarini yaratishda metodologik asos sifatida foydalaniladi.

Ular quyidagilar:

Aqlli va bilimli. Mustaqil fikr yurituvchi inson aqlli deyiladi. Aqllining lug'aviy ma'nosi – mustaqil fikr yuritmoq, bilmoq degani. Shunday ekan, kishi qanchalik ko'p mustaqil fikr yuritib, ko'p bilimga ega bo'lsa, shuncha aqlli hisoblanadi.

Biroq inson mustaqil fikr yuritmay, boshqalardan eshitganlarini, kitoblardan o'qiganlarini hamda ustoz muallimlar aytganlarini esda saqlab qolib, shu yo'llar bilan olingan bilimlarga amal qilib yurib yutuqlarga erishishi mumkin. Bu holda aql yordamchi vazifani bajarib, inson ko'p ham intellektual kuchini sarflamaydi. Bunday kishilarni aqlli deb bo'lmaydi.

Mustaqil fikr yuritib, bilim egallab, bu bilimlarni ma'lum bir tartibda o'zida jamlab yurganlar ko'pgina bilimga ega bo'ladi. Ular bilimli inson deyiladi. Chin bilimli deb, narsa va hodisalarning tom ma'no va mazmuniga tushunib yetib, ularni tashkil qiluvchi qonuniyatlarini (bilimlarini) bilib olib, o'z tafakkuridan o'tkazib, bu bilimlarni hayotida bir necha bor sinab ko'rib, so'ng ma'lum bir tartibda xotirasida saqlab, ulardan amalda foydalana oladigan kishiga nisbatan aytiladi.

Jamiyatda munosib o'rin egallash uchun, har bir inson mustaqil fikr yuritib, bu bilimlarni tartibi bilan o'zida jamlab, ko'p bilimga ega bo'lishi va bu bilimlarni amalda qo'llay olishi lozim.

Imon va e'tiqodli. Imon, bu kishining biron-bir narsaga astoydil ishonishi. Bu ishonch biron-bir shaxsgami yoxud qandaydir voqelikkami, inson shu narsa yoki hodisaga astoydil ishonrsa, u o'zida shunga nisbatan imon hosil qilgan bo'ladi.

"E'tiqod" tushunchasi lug'atlardagi "Ishonch", ya'ni "Imon" tushunchasi bilan ma'nodosh sifatida ko'rsatilgani bilan, bu sinonim so'zlarning orasida farq bor. Imon ishonish bo'lsa, e'tiqod shu narsaga ishongan holda unga to'liq amal qilishlikni bildiradi. Imonsiz e'tiqod bo'lmaydi, imondan maqsad, ishongan narsasiga doimo amal qilishlikdir. Bunda kishi ishonayotgan narsasiga rostdan ishonishini amaliy harakatlar bilan tasdiqlaydi, natijada unda shu narsaga imon barobarida e'tiqod ham hosil bo'ladi.

O'z yurtining munosib farzandi, zamon talabiga to'liq javob beruvchi inson bo'lishlik uchun, albatta, mustaqil fikr yuritib bilimli, imonli va e'tiqodli bo'lishlik talab etiladi.

Mehr va muhabbatli. Mehr va muhabbat deganda, insonni tabiatda mavjud bo'lib, uni zavqlantirgan narsasiga mayl qo'yishidir. Insonning mehri dunyodagi har qanday narsa yoki hodisaga tushishi mumkin. Kishining nazari tushib, uni zavqlantirgan biron-bir narsa yoki hodisani beixtiyor yana ko'rgisi, uni his qilgisi kelib, unga intilsa, demak, uning shu narsa yoki hodisaga mehri tushgan hisoblanadi. Mehrning yuqori darajasi muhabbatdir.

Axloq va odobli. "Axloq" va "Odob" tushunchalari mazmunan bir-biriga yaqin bo'lib, jamiyatda e'tirof etilgan xulq me'yoriga imon keltirib, ularga e'tiqod qilishlikni bildiradi. Axloq va odob – kishining jamiyat orasida o'zini qanday tutishi, odamlar bilan qay yo'sinda muomala qilishi, o'z turmushi, bo'sh vaqtini qanday tashkil

etishi, tashqi qiyofasi qanday bo'lishi lozimligiga tegishli qoidalarini o'z ichiga oladi. Axloq va odob qoidalariga to'g'ri so'zlik, sharm-hayo, dilbarlik, kamtarlik, xushmuomalalik, ozoda va saranjomlik hamda boshqa ko'pgina ijobiy ijtimoiy sifatlarni kiradi. Axloq va odob ta'lim-tarbiya va amaliy tajriba jarayonida shakllanadi hamda rivoj topadi.

Axloq va odob muayyan jamiyat va davr talabidan kelib chiqib o'zgarishlarga uch-rashi, taraqqiy etishi yoki so'nishi mumkin. Har bir xalqning yoki millatning o'ziga xos axloqi bilan birga, umumbashariy odob me'yorlari ham bor. Bunday odob me'yorlari jamiyatning umumiy rivojiga samarali ta'sir ko'rsatadi.

Mulkiy munosabatga ega. Yosh avlodda mulkka bo'lgan to'g'ri munosabat-ni shakllantirish uchun bu ishni amalga oshirmoqchi bo'lgan kishilar, avvalo, "Mulk", "Mulk shakllari" va ulardan kelib chiqadigan "Mulkiy munosabatlar", "Mulkni xususiy-lashtirish", "Mulkdor", "Mulkiy jinoyatlar", "Mulkiy zarar", "Mulkni xatlash" kabi tushun-chalar to'g'risidagi bilimlarga ega bo'lib, bu bilimlarni yosh avlodga yetkazishlari lozim.

Mulk – moddiy va ma'naviy ne'matlarning alohida olingan kishilar yoki yuridik shaxslar egaligida bo'lishidir. Mulk obyekti yer, suv, yer osti boyliklari, korxona, bino, inshootlar, mashina va uskunalar, tayyor mahsulot, pul, qimmatli qog'ozlar, san'at va adabiyot asarlari, ilmiy va texnikaviy ishlanmalar va boshqalar bo'lishi mumkin.

Moddiy va ma'naviy ne'matlarni amalda o'zlashtiruvchilar, uning egalari, ya'ni mulk subyektlari hisoblanadi. Bularga ayrim kishilar, oilalar, jamoalar kiradi.

Mulkdan amalda foydalanib, undan naf ko'rish mulkni tasarruf qilish hisoblanadi. Bunday tushunchalarni bilib olib, ulardan hayotda to'g'ri foydalanadigan inson mulkiy munosabatga ega kishi deyiladi.

Yosh avlodda mulkiy munosabatni to'g'ri shakllantirish, jamiyatda tinchlik va oso-yishtalikni saqlashlikka, kishilar orasidagi iqtisodiy munosabatlarni to'g'ri olib borishlikka, jamiyatda obod va farovon hayotni barpo bo'lishligiga xizmat qiladi.

Mehnatsevar va shijoatli. Insonning o'ziga va jamiyatga foyda keltiruvchi maq-sadga muvofiq harakati, mehnat deyilishini hamma biladi. Mehnat kishilik hayotining asosiy sharti, chunki u tufayli insoniyatning yashashi uchun zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy ne'matlar yaratiladi. Mehnat orqali inson tabiatdagi narsalarni o'ziga mos-lashtirib o'zgartiribgina qolmay, balki o'zi ham barkamollashib boradi, uning aqliy va jismoniy qobiliyatlari o'sadi. Shuning uchun yoshlarda mehnatsevarlik fazilatini shakl-lantirish muhim vazifa sanaladi.

Mehnat tarbiyasi kishidan ijtimoiy foydali mehnatga ichki ehtiyoj, intizom, tashki-lotchilik, tashabbuskorlik, ishchanlik, shijoatlilik singari ijtimoiy sifatlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Mehnat tarbiyasi falsafiy-pedagogik tushuncha bo'lib, "Mehnat ta'limi", "Kasbga yo'naltirish", "Politexnik ta'lim" singari tushunchalarni o'z ichiga oladi. Bolalarga meh-nat tarbiyasini berishda bog'cha, maktab, kollej, akademik litsey hamda oliy ta'lim mu-assisasi kabi ijtimoiy pedagogik muassasalar katta o'rin tutadi.

Huquqiy va ekologik madaniyat. Hozirgi davrda o'sib kelayotgan avlodning huquqiy va ekologik madaniyati jamiyatimiz taraqqiyotida muhim. Shuning uchun ham O'zbekistonda "Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi" qabul qilin-gan.

Ushbu dasturda ta'kidlanganidek, yuksak huquqiy madaniyat demokratik jami-yat poydevori hamda davlat huquqiy tizimi yetukligining ifodasidir. U jamiyatdagi tur-li hayotiy jarayonlarga faol ta'sir ko'rsatuvchi fuqarolar, barcha ijtimoiy guruhlarining

jipslashuviga ko'maklashuvchi, jamiyatning yaxlitligi hamda tartibligini ta'minlovchi va mustahkamlovchi omildir. Qonunni hurmat qilish huquqiy demokratik jamiyatning siyosiy va huquqiy tizimlarining samarali faoliyat ko'rsatishining asosiy talablaridan biri hisoblanadi.

Ekomajmualar hayotiga insonning haddan ziyod aralashuvi, bu sistemadagi muvozanatning buzulishiga va ekologik muammolarning kelib chiqishiga olib keladi. Tabiiy ekomajmualar buzilish jarayonida shu majmuaning unsuri va biosferaning tarkibiy qismi bo'lgan inson ham jabr ko'radi.

Yoshlarimiz tarbiyasida biz uchun birinchi bo'lgan masala, bu yosh avlodning ekologik madaniyatini shakllantirish va ekologik faol kishilarga aylantirishdir. Ekologik faol kishilar deganda, ekologiya va tabiatni muhofaza qilish masalalari bo'yicha qabul qilingan qonunlarni bilib olib, ularga doimo amal qilib yurishlik hamda bu qonunlar buzulgan joyda, bu hodisaga murosasiz bo'lishlik tushuniladi.

Sog'lom va ezgu niyatli. Sog'liq inson ijtimoiy mohiyatining ajralmas qismi bo'lib, uning ijobiy ijtimoiy sifatlaridan, ya'ni fazilatlaridan biridir. Mutlaqo sog' kishi deb, ham jismonan, ham ruhiy, ham aqliy jihatdan salomat bo'lgan kishiga nisbatan aytiladi. Demakki, chin salomat odamning ruhi baqquvat, aqli raso, tanasi esa yaxshi rivojlangan bo'lishi shart.

Jismoniy salomat odam o'z tanasining egasi bo'ladi. Ya'ni u barcha a'zolarini o'ziga bo'ysundirib, istagan jismoniy ish va mashqlarni bajara oladi.

Aql tarbiyasi bilim egallash orqali amalga oshirilishi munosabati bilan inson doimo bilim olish jarayonida bo'lmog'i lozim. Bu ishda hal qiluvchi rolni inson o'ynaydi. Hech qanday ota-ona, yoru birodar hamda o'qituvchi va murabbiylar, kishi miyasini "yorib", aqlini charhlab, ichiga bilim solib qo'ymaydi. Bu ishni faqat inson o'zi bajaradi, qolgan barcha odamlar unga yo'l ko'rsatishi va bilim egallashi uchun yordam berishi mumkin, xolos. Aqlni rivojlantirib borish, yuksak bilim va malakalarga ega bo'lish faqat kishining o'ziga, sa'y-harakatiga bog'liq.

Ruhiy salomatlik kishining hayotida yetakchi o'rin egallaydi. Ruhiy salomat deganda, kishining qilgan niyatlari va oldiga qo'ygan maqsadlari tushuniladi. Ruhiy salomat bo'lishlik uchun har bir ishni boshlashdan oldin to'g'ri niyat qilish talab etiladi. To'g'ri niyat qildi deganda, faqat ezgu niyat tushuniladi. Ezgu niyatning zaminida ta'ma yotmaydi.

Milliy g'ururga ega va vatanparvar. Yosh avlodda milliy g'ururni shakllantirish uchun, avvalom bor, ularda insoniy g'ururni rivojlantirish zarur. Chunki milliy g'urur faqat insoniy g'urur zaminida shakllanadi va rivojlanadi.

Insoniy g'urur kishida yoshligidan o'z-o'zidan shakllana boshlaydi, faqat uni so'ndirmaslik kerak. Bolani mustaqil fikr yuritib, mustaqil ravishda biron bir ishni bajarishga o'rgatish, undagi insoniy g'ururni rivojlantiradi. Bolalardagi insoniy g'ururni susaytirmasdan, ularga ko'proq mustaqil fikr yuritishga va mustaqil ravishda ishlarni bajarishga imkon yaratish orqali bu g'ururni ozuqlantirib turish lozim. Ma'lum bir vaqt o'tganidan keyin bu insoniy g'urur kishining ma'naviyati (hayot tarzi)ga aylanib, unda milliy g'ururni paydo bo'lishiga zamin tayyorlaydi.

Milliy g'urur fazilati odamga tabiatan berilgan insoniy g'urur va millat to'g'risidagi bilimlar negizida shakllansa, o'ta murakkab ijtimoiy hodisa bo'lgan vatanparvarlik tuyg'usini insonning ongiga singdirish va shu ruhda tarbiyalash talab etiladi.

Bugungi kunda vatanparvarlik alohida ta'limiy qadriyat sifatida namoyon bo'lmoqda. Vatanparvarlik tarbiyasini ta'limning turli bosqichlarida amalga oshirishda o'qituv-

chi va murabbiylar bilan bir qatorda, ota-ona, ommaviy axborot vositalari, badiiy adabiyotlar muhim vosita bo'lib xizmat qilishi ilmiy asoslangan.

Tolerant va insonparvar. Tolerantlikning lug'aviy ma'nosi sabr-toqat degan tushunchani bildiradi. Mazmunan uni bag'rikenglik desa ham bo'ladi. Tolerantlik – bag'rikenglik: o'zgalarning turmush tarzi, xulq-atvori, odatlari, his-tuyg'ulari, fikr-mulohazalari, g'oyalari va e'tiqodlariga toqatli bo'lish. Hozirgi dunyoda tolerantlik o'ta muhim ahamiyat kasb etmoqda. Iqtisodiyotning globallashuvi va yanada integrallashuvi, mobilashuvi, kommunikatsiyalarning tez rivojlanishi, keng miqyosli aholini ko'chib yurishi, millatlararo nikohlar jamiyatda tolerantlik tamoyili ahamiyatini kuchaytiradi.

Insonparvarlik – insonning qadri, erkinligi, baxt-saodati, teng huquqligi to'g'risida, insoniylikning barcha tamoyillarini yuzaga chiqarish uchun shart-sharoitlar yaratib berish haqida g'amho'rlik qilishni ifodlaydi. Insonparvarlik, odamlarga mehr-muhabbat bilan munosabatda bo'lish, ularni hurmat qilish, insonning moddiy farovonligini yuksaltirish va kishilarda yuksak ma'naviy fazilatlarni rivojlantirishga g'amho'rlik qilish demakdir.

Demak, yosh avlod tarbiyasida bu kabi insoniy fazilatlar ularning ko'nikma va malakalarini shakllantirish va rivojlantirishda muhim vosita bo'lib, mamlakatimiz kelajak avlod oldiga qo'ygan asl maqsadlarning asosi sanaladi, desak maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tojiyev M., Mamadaliyev K. *Matematika o'qitish jarayonini loyihalash. O'quv qo'llanma.* – T.: Fan va texnologiya markazining bosmaxonasi, 2013. 160-b.
2. Ziyomuhammadov B. *Barkamol avlodni voyaga yetkazish sirlari.* – T.: Lider Press, 2009.
3. Ziyomuhammadov B., Tojiyev M. *Pedagogik texnologiya – zamonaviy o'zbek milliy modeli.* – T.: Lider Press, 2009.

Nilufar MARUPOVA,

O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi markazi
axborot metodik xizmati yetakchi uslubchisi

O'SMIRLARDA KUZATILADIGAN SUITSIDNING PSIXOLOGIK SABABLARI

Annotatsiya

Maqolada suitsidning bosqichlari, turlari va ularning psixologik sabablari ko'rsatilgan. Shuningdek, suitsidning oldini olish imkoniyatlari borligi tahlil qilinib, ota-onalarga, tarbiyachi-o'qituvchilarga suitsid motivlarini aniqlash va oldini olishga doir muhim tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar. Suitsid, suitsident, suitsidal xulq-atvor, affektiv suitsid, parasuitsid, namoyish-korona suitsid, muammo.

В статье раскрываются понятия суицида, этапы суицида, типы суицида: особенности появления суицида в определенных возрастных периодах, определены их психологические причины. Анализируются возможности его предотвращения. Даны рекомендации для родителей, воспитателей-учителей по определению мотивов суицида и его предотвращению.

Ключевые слова. Суицид, суицидент, суицидное поведение, аффективный суицид, парасуицид, симптомы суицида, проблема.

Article describes the concept of suicide, the suicide stages, and types of suicide: especially the appearance of suicide in certain age periods and defined their psychological causes. Analysed the possibilities of its prevention. In article also given recommendations for parents, teachers, educators to determine the motives of suicide and its prevention.

Key words. Suicide, suicidal behavior, affective suicide, parasuicide, suicide symptoms, a problem..

Suitsid – o'z joniga qasd qilish ko'p qirrali muammo bo'lib, u nafaqat psixolog, suitsidologlar, balki tibbiyot xodimlari, pedagog, psixiatr, sotsiolog, iqtisodchilarni ham birday o'ylantirib kelmoqda. Sodir etilgan suitsidning haqiqiy sabablarini aniqlash juda qiyin, faqatgina soha mutaxassislarining ishtirokida sinchiklab tekshirilgandagina uning sabablarini aniqlash mumkin bo'ladi.

Suitsid tushunchasini 1635-yilda birinchi marta Thomas Brown qo'llab, o'zining qo'l yozmalarida ushbu atamadan foydalandi. XVIII asr o'rtalarida "suitsid" atamasi Oksford universitetining lug'atlarida shakllanib ulgurgan. **"Suitsid"** so'zi lotin tilidan olingan bo'lib, "sui" o'zini, "caedere"- o'ldirmoq, ya'ni o'z joniga qasd qilmoq demakdir.

Suitsid sodir etishga moyil shaxslar **"suitsidentlar"** bo'lib, ular aniq va mavhum sabablarga ko'ra suitsidni sodir etadi. Suitsid holati quyidagi turlarga bo'linadi:

– **Affektiv suitsid** – jazava holatida sodir etilgan suitsid;

– **Parasuitsid** (o'limga olib kelmaydigan. O'z-o'ziga jarohat yetkazish holatini amalda bajarish);

– **Namoyishkorona suitsid** – tashqi olamdan yordam kutish, atrofdagilarning e'tiborini o'ziga qaratish uchun qilingan suitsidal harakatlar;

– **Suitsid** (o'lim bilan tugaydigan harakatni amalda bajarish);

– **Haqiqiy suitsid** – tugallangan suitsid (o'lim).

Suitsidal xulq-atvor – bu jamiyatda o'z o'rnini topa olmaslikdan boshlanadi, bunga ota-onalar, tarbiyachi-o'qituvchilar, o'rtoqlari va tevarak-atrofdagi insonlar sababchi bo'lganlari uchun uni atrofdagi kishilar tan olmaganliklaridan kelib chiqadi. Bunda suitsidni sodir etishga moyil harakatlarning ortishi, o'z-o'zini o'ldirish haqidagi fikr-xayollar ichida qolish, atrofdagilarni "o'zimni o'ldiraman" kabi iboralar bilan qo'rqitish, suiqaqd qilish va o'zini o'ldirishga urinish kabi xulq-atvor namoyon bo'ladi.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, sodir etilgan suitsidlar quyidagicha uch turda namoyon bo'ladi:

– affektiv suitsid;

– namoyishkorona suitsid;

– haqiqiy suitsid (tugallangan suitsid).

Bilamizki, har bir yosh davrining o'ziga xos xarakter xususiyatlari mavjud. Masalan, go'daklik davri endi dunyoni tanish, bolalik davrida dunyoni bilishga intilish, o'smirlilik davrida jinsiy yetilish – gormonal o'zgarishlar davri, o'spirinlik davri bolalikdan kattalikka o'tish davri, o'rta yoshda donolik, oqillilik, keksalik nuroniylik va yana bolalikka qaytish davri ekanligi bilan har bir yoshning o'ziga xos xarakter xususiyatlarida kuzatiladi.

Suitsidentlarni yosh davrlariga ko'ra o'rganib chiqilganda, keksalik davrida haqiqiy suitsid (endi yashab nima qilaman, hayotning mazmuni qolmadi qabilida), o'rta yoshlilarda namoyishkorona suitsid (tushkun kayfiyatdagi kuchli depressiv holatda atrofdagilarni yordamga chorlash), yoshlar va o'smirlarda esa affektiv suitsid (jazava holatidagi suitsid) hamda namoyishkorona suitsidlar nisbatan ko'proq kuzatiladi. Chunki bu davrda o'smir yigit-qizlar hali his-tuyg'ularini boshqarib olmaganidan affektiv suitsid holatlari kelib chiqadi.

O'smirlilik davridagi kechinmalarning murakkabligi (gormonal o'zgarishlar hisobidan), ularni bartaraf etish imkoniyatlarning yetarli emasligi (o'smir suitsidentlar tomonidan shunday idrok qilinadi) yoki yo'qligi o'z joniga qasd qilish niyati (maqsadi)ni vujudga kelishiga zamin yaratadi. Suitsidentlarning xarakterli xususiyatlari shundan iboratki, shaxs psixologik o'z isyonini atrofdagilarga bildirish, qasos olishga harakat qilish, o'zgalarni yordamga chorlashga bo'lgan xatti-harakatlaridir.

O'z joniga qasd qilish, ya'ni o'z-o'zini o'ldirish usulini tanlash ko'pincha insonlarda o'zini namoyishkorona ko'rsatish moyilligi mavjud hollarda uchraydi. Shuning uchun ham ular bu usulni tanlashadi. Suitsidentlarda kuzatiladigan suitsidal xulq-atvor ichki va tashqi suitsidal xulq-atvor sifatida namoyon bo'ladi. Ichki suitsidal xulq-atvor bu suitsidga oid fikrlar, niyatlar, qarorlar, tashqi suitsidga urinish, tugallangan suitsiddir.

Suitsidentlarda o'z joniga qasd qilishning quyidagi belgilari kuzatiladi:

– ko'z yosh va affektiv holat (jazavaga tushish);

– mungli musiqalarni takror-takror eshitish;

– hayotga bo'lgan qiziqishining so'nishi va passivlik;

– uyquning buzilishi;

– ishtahaning yo'qolishi;

– kelajak rejalarining mavhumligi, noaniqligi;

– jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lmaslik yoki hayotda o'z o'rnini topa olmaslik.

Suitsid – bu o'lim oldidagi dovyuraklik va hayot oldidagi qo'rqqoqlikdir. Binobarin, diniy ta'limotda ham o'z-o'zini o'ldirish katta gunoh sanaladi.

Bugungi yoshlarimizning sog'lom, aqlli, bilimli bo'lib ulg'ayishlari uchun barcha shart-sharoitlar va imkoniyatlar davlatimiz tomonidan yaratib berilgan. Prezidentimiz Islom Karimov aytganlaridek, "... mana shu 24 yilda tug'ilib voyaga yetganlar eski zamonni bilmaydi. Ularning hammasi, aytaylik, hozirgi kunda kompyuterda ishlash bo'ladimi, ingliz tilini o'rganish bo'ladimi, chet mamlakatlardagi o'z tengdoshlari bilan bellashish bo'ladimi, sport, ilm-fan, madaniyat sohalarida o'zini shunday ko'rsatyaptiki, bularning barchasini ko'rganda, odam beixtiyor g'ururlanib ketadi".

Shunday ekan, o'quvchi-yoshlar o'rtasida nega suitsidga qo'l urish hollari uchramoqda?! O'smir nega o'z joniga suiqasd qiladi?! Bu savollar har bir yurtdoshimizni chuqur o'yga toldirishi, shubhasiz.

Ma'lumki, o'smirlik payti "og'ir davr", "o'tish davri", "pubertat" (gormonal o'zgarishlar) davri bo'lib, bu o'smir o'zining atrofdagilarga, oilasiga, o'z tengdoshlariga o'zini tan oldirishga urinadigan bolalikdan katta yoshga o'tish davri hisoblanadi. O'smirlar uchun oilaviy nizolar, omadsiz sevgi-muhabbat, tengdoshlari bilan bo'lgan nizolar suitsidning sababi bo'lishi mumkin. O'smirlik davridagi ideallashtirilgan sevgi hislari, yuqori axloq asoslari va an'analari bilan, ayniqsa, qiz bolalarda suitsid xavfi yuqori hisoblanadi. Oiladagi tarbiyaning o'ziga xosligi, hayotiy tajribaning yetishmasligi, real to'siqqa kelganda atrof-voqelikni "kitobiy" idrok qilish, o'zini ayblash hissi affektiv suitsid yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

O'smir suitsidentlarning aksariyati uchun bir qarorga kelishga, birmuncha vaqtga uzaytirishga monelik qiluvchi impulsivlik, amalga oshirilayotgan xatti-harakatlarning oqibatlarini oldindan ko'ra (tasavvur qila bilmaslik) bilmaslik, emotsional labillik (qat'iylikning yo'qligi) hamda o'zgalar ta'siriga tez beriluvchanlik o'z joniga qasd qiluvchi o'smirlarga xos xususiyatdir.

Oilada ota-onalarning, ta'lim muassasalaridagi ayrim pedagog xodimlarning psixologik bilimlari yetarlicha emasligi oqibatida o'quvchi yoshlarni o'z tengdoshlari orasida ularni urishish, kamsitish yoki ularning xatti-harakatlarini nomaqbul deb haqoratlash kabi munosabatlar o'smirlarga o'ta og'ir ruhiy ta'sir qilib, affektiv holatdagi suitsidal xulq-atvor shakllanishiga turtki bo'ladi. Oilada ona o'z qizi bilan, ota o'g'li bilan his-tuyg'ularni (o'smirlik davrida sevgi hislari kuchaygan davr bo'lib, ular ongli ravishda o'zlarini boshqara olmaydilar) ongli boshqarishni, jinsiy rivojlanish davridagi o'zgarishlarni ongli boshqarishni o'rgatishlari kerak, tarbiyachi-ustozlar o'smirlarga o'z hissiyotlarini jilovlashni o'rgatishlari, turli badiiy adabiyotlar topib berishi, his-tuyg'ularni boshqarishni o'rgatib borishi zarur.

Oila a'zolarining hamda pedagog xodimlarning kommunikativ saviyasining pastligi (muloqot madaniyatining yetishmasligi), qo'pol muomalada bo'lish, oila a'zolarining hatto ba'zida jismoniy tazyiq o'tkazishlari suitsidal xavfni kuchaytiruvchi omillar hisoblanadi. Ota-onada va tarbiyachi ustoz-murabbiylarda eshitish madaniyatining yuqori bo'lishi muhim, ular o'quvchi-yoshlarni eshita bilish kerak, ko'pincha bolani gapirgani bermaydigan ota-onalar, ustozlar oramizda yo'q emas, albatta.

Ilmiy izlanishlarimiz shuni ko'rsatadiki, o'smirlar orasida sodir etilgan suitsidning motivlari o'g'il bolalarda – oilaviy nizolar, jinoiy, maishiy, ijtimoiy, qiz bolalarda esa – maishiy va oilaviy nizolar ekanligidan dalolat beradi.

Suitsidal xulq-atvorning oldini olish uchun o'smir shaxsiga ilmiy, dunyoviy, diniy bilimlarni berish bilan bir qatorda ota-onalar, tevarak-atrofdagilar o'smir bilan samimiy

do'stona muloqot va munosabatni yo'lga qo'yish, hayotiy to'siqlarga duch kelish mumkinligini oldindan ko'ra bilish, har qanday muammoning yechimi borligiga ishonirish, o'z-o'ziga to'g'ri baho berishni o'rgatish, tanqidiy tafakkurni shakllantirish, ichki himoya mexanizmlarini mustahkamlash, irodaviy immunitetini oshirishga ko'maklashish kerak. Shunda suitsidal xavf-xatarning oldini olish imkoniga ega bo'lamiz.

Agarda o'smir farzandingiz yoki o'quvchingizda emotsional labillik (tez- tez ko'z yoshi qilish, jahldorlik, kam gapirish, atrofdagilardan o'zini uzoqlashtirishga urinish), qayg'uli musiqa va adabiyotlarga qiziqishi, uyqusining buzilishi, ishtahasining yo'qligi, ijtimoiy nafaollik, qat'i'yatsizlik, lanjlik, muloqotining pasayish holatlariga befarq bo'l-mang, bunday xatti-harakatlar suitsidal xavfdan darak beradi. Farzandingizda shunday holatlar kuzatilsa, uning oiladagi va shaxsiy muammolari bilan qiziqing, u bilan individual ochiq gaplashing. O'z oldiga qo'ygan maqsadlari bilan qiziqing, ezgu maqsadlari sari intilishiga yordam bering.

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash mumkinki, farzandingizni har qanday muammo-ni yechimi borligiga ishonirish va hayotiy muammolari yechimini topishlari uchun yordam bering, umidsizlanishiga yo'l qo'ymang. Turli sharoitda ham farzandingizni tushuning va uni qanday bo'lsa, shundayligicha qabul qiling, e'tiborli va hayotning har qadamida unga g'amxo'r bo'lishga harakat qiling.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. *Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir.* – T.: O'zbekiston, 2015.
2. Otajonov M. *Psixozanaliz asoslari.* – T., 2004.
3. Ефремов В.С. *Основы суицидологии.* – Е92 СПб.: Издательство Диалект, 2004.
4. Маркова А., Бондаренко М.Ю. *Методические рекомендации.* – Санкт-Петербург, 2013.
5. Трегубов Л.З., Вагин Ю.Р. *Эстетика самоубийства.* – Пермь, КАПИК. 1993.
6. Эмиль Дрюкгейм. *Самоубийства.* Издательство Диалект, 2004.

Farida ABDURAHIMOVA,

Toshkent shahar xotin-qizlar qo'mitasi raisi,
pedagogika fanlari nomzodi

QIZLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING BA'ZI XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Maqolada qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash masalasi davlat ahamiyatiga molik vazifalardan bo'lib, uni amalga oshirishda oilaning o'zidan tashqari davlat va nodavlat tashkilotlar, milliy ta'lim tizimi faoliyat olib borishi haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, muallif qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashning ba'zi xususiyatlarini tahlil qilib bergan.

Kalit so'zlar. Oila, qizlar, oilaviy hayot, davlat, nodavlat tashkilotlar, pedagogika, ta'lim va tarbiya.

Подготовка девочек к семейной жизни является одной из актуальных тем в социальной политики. В данный педагогический процесс, кроме института семьи вовлечены государственные и негосударственные общественные организации, национальная система образования. Но именно семья, является ключевым звеном в осуществлении данной задачи. В статье анализируются некоторые вопросы процесса подготовки девочек к семейной жизни.

Ключевые слова. Семья, девочки, семейная жизнь, государство, педагогика, образование и воспитание.

Preparing girls to family life is one of the urgent tasks of national importance. At the present pedagogical process in addition to the family institution also involved governmental and non-governmental organizations, the national education system. But the family is a key element in the implementation of this task. The article examines some of the issues girls preparatory process for the family life.

Key words. Family, girls, family life, government, pedagogics, education.

Qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash ijtimoiy-pedagogik, ma'naviy-axloqiy jihatdan e'tiborga molik, serqirra, bosqichma-bosqich, uzviylik va uzluksizlikda tarbiya qilinadigan murakkab pedagogik jarayon bo'lib, uning shakllanishida milliy urf-odatlar, milliy qadriyatlarining o'zni bosh bo'g'inlardan birini tashkil qiladi. Chunki oilaviy hayotga tayyorlash milliy-mental xarakterga ega bo'lgan ta'lim-tarbiya kategoriyasidir.

Qizlarni oilaga tayyorlashda so'nggi manzil ular istiqbolda mustaqil yashaydigan oilalar sanaladi. Mazkur oilalar qadriyatlari, urf-odatlari, axloqi, qarashlari, baholari, ijtimoiy tafakkuri, yashash tarzi, maqsadlari, intilishlari qizlarning baxtli bo'lishi imkoniyatlarini, bir tomondan, ta'minlab beruvchi omil bo'lsa, ikkinchi tomondan, ular baxtini batamom sindiruvchi omilga ham teng keladi.

Mana shunday oilaviy qadriyatlarining qandayligi va xususiyatlari turmushga chiqqan qizlar istiqbolini belgilovchi omillardan biri bo'lib xizmat qiladi. Binobarin, bugungi kunda qizlarni oilaga tayyorlash jarayonini umumbashariy mezonlar tomoniga burish emas, balki mazkur pedagogik maqsadni eng avvalo, milliy-mental asoslarda tashkil qilish taqozo etiladi hamda har ikki tarkibiy qismlarning mushtarakligini ta'minlash dolzarblik kasb etadi.

Milliy oilaviy qadriyatlar tarixiy voqelikdir. U o'z mazmuniga uzoq asrlar davomida o'zbek xalqi asrab avaylab qadriyat darajasiga ko'targan barcha axloqiy me'yor, yetuk shaxs xususiyatlari va insoniylik me'yorlarini qamrab oladi. Qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashning quyidagi tarixiy shakllanish bosqichlari mavjud:

- ilk sivilizatsiyalar davri hamda shaxs komilligi, xususan, qizlar mavqeyi va jamiyatda tutgan o'rniga nisbatan bo'lgan milliy ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlar tizimi;

- "Avesto", "So'g'd yozuvlari", "O'rxun-Enasoy" bitiklarida komil shaxsga doir qarashlar, xususan, ayol kishi va uning ijtimoiy va oilaviy mavqeyiga doir qarash va qadriyatlar tizimi;

- islom dini va Movarounnahr ulamolari tomonidan islom madaniyati tarkibida shakllantirilgan ayol kishi ijtimoiy mavqeyi, uning oilaviy vazifalari va majburiyatlariga qo'yilgan talablar tizimi;

- O'rta Osiyoda tasavvuf taraqqiyoti, uning tarkibida "komil inson" g'oyasi va uning ayollar taqdiridagi inikosi;

- temuriylar davri madaniyatida ayol o'rnini hamda qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash tajribasi;

- ma'rifatparvarlik harakatida xotin-qizlar o'rnini, ayol kishi mavqeyidagi o'zgarishlar mohiyati, ayol va oila muammosining hal etilish yo'llari;

- jadidlar harakatida ayollar ishtiroki va jadid adabiyotida ayol obrazi. Ayolning oilaviy majburiyatlari va huquqlari masalasini qayta ko'rib chiqishga intilish va uning natijalari;

- milliy ozodlik harakatlari davrida ayollarning oilaviy hayoti va uning an'analari;

- totalitar tuzum hukmronligi davrida shaxs rivojiga doir shakllantirilgan g'oya va uning inqirozi, ayollarning oiladagi o'rnini masalasidagi mavjud inqiroz mazmuni;

- mustaqillik davrida an'anaviy "komil shaxs" g'oyasidan yangi zamonaviy "barkamol shaxs" g'oyasiga o'tilishi hamda uning tarkibida milliy o'zlikni anglash tamoyillari asosida ayol va oila masalasining yangi mazmunda isloh qilinishi.

Oilaviy hayotni milliy-mental mazmundan tashqarida ko'rib va baholab bo'lmaydi, biroq bugungi kunda oilaviy hayotni faqat milliy-mental qadriyatlar asosidagina shakllantirish ham yetarli emas. Binobarin, bu masalada har ikki qadriyatlar, ya'ni milliy-mental qadriyatlar tizimi hamda umumbashariy qarashlar tizimini tanqidiy baholagan holda ularning har biridan qizlar kamolotini, ular huquqlarini ta'minlaydigan va ayol erkini yerga urmaydigan qadriyatlarni o'zaro umumlashtirib, ularni uzviylik va uzluksizlik asosida yaxlit tarbiya qilish tizimiga aylantirish taqozo etiladi.

Xo'sh, mana shu milliy-mental asos bizning holatimizda, ya'ni o'zbek oilasi misolida qanday qadriyatlar tizimidan iborat bo'ladi? Bizning nazarimizda, uning nazariy va amaliy jihatlar mavjud. Uning nazariy aspekti axloq me'yorlari va kriteriyalari, madaniyatlilik belgilari, ya'ni o'zini uyda va jamoada tutish qoidalari, muomala qilish qoidalari, o'z haq-huquqlarini o'zgalar haq-huquqlaridan ustun qo'ymaslik omillari, o'z so'zi ustida turish, mas'uliyat, jonbozlik, oila manfaatlariga sodiqlik, mehnatsevarlik, kompromissga bora olish qobiliyati kabi yuzlab zarur xususiyatlar majmuasidan ibo-

rat bo'ladi. Shu jumladan, qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashda ularning nafaqat uy yumushlarini uddalashi, balki eng avvalo chin insoniy fazilatlarini muhim ahamiyat kasb etadi. Qizlar tarbiyasida chidamlilik, chayirlilik, kuchli iroda, mustahkam xarakter, qiyinchiliklarni yengishga nisbatan qat'iyat, bag'rikenglik, muloyimlik, adolatpeshalik, odillik, farzand tarbiyasini amalga oshirishga hozirlik, davr talablariga hozirjavoblik, mehribonlik, muruvvat, milliy g'urur va fahr, kamtarlik hamda yetakchilik xususiyatlarini ham shakllantirish taqozo etiladi. Chunki biz bugungi kunda qizlarni mavhum holatga emas, balki aynan raqobatbardoshlik vaziyatida yashashga majbur bo'lgan oila holatiga tayyorlaymiz. Bugunda jamiyatlardagi va dunyodagi barcha ijtimoiy, iqtisodiy, moliyaviy, ma'naviy inqirozlar oila mavqeyi, uning holatiga o'z ijobiy va salbiy, ba'zan esa o'ta salbiy ta'sirini o'tkazadi. O'zbek oilasining ijtimoiy, iqtisodiy, moliyaviy, ma'naviy mavqeyi va uning darajasini hisoblamasdan turib, qizlarni mana shu oilada yashashga to'laqonli tayyorlab bo'lmaydi. Mazkur vaziyatda esa ko'pchilik hollarda milliy-mental tafakkur bilan zamonaviy talab o'rtasida juda chuqur qarama-qarshilik mavjudligi ayon bo'ladi. Ba'zan milliy-mental xususiyatlar umumbashariylikni tubdan inkor etsa, ba'zan umumbashariy qadriyatlar milliy-mental qadriyatlar tizimini umuman inkor etadi.

Aslida mana shu xususiyatlar xarakteri ham umumbashariy, ham milliylikni o'zida mujassam etadi. Biroq umumbashariylikning bugungi kunga tegishli bo'lgan o'ziga xos tomonlari mavjud. Ammo bizning "o'zimizga xos" milliy tafakkurimiz g'arbona tafakkurga mos tolerantlikning barcha xususiyatlarini so'zsiz qabul qilinishiga yo'l bermaydi. Tolerantlikni G'arb olami tushungan tarzda tushuna olmaymiz. Bunga aynan milliy-mental xususiyatlarimiz yo'l qo'ymaydi. Masalan, ota-ona so'zini bo'lish, ular bilan bahsga kirishish, ularning qarorlarini ijro etmaslik o'zbeklar aqidasiiga ko'ra be-tarbiyalilik alomati hisoblanadi. Shu bilan birga, mana shunday xatti-harakat farzand manfaatlari inobatga olinmasligini anglatmaydi. Bu o'rinda o'zbeklar "yumshoq siyosat olib borish" metodidan ustamonlik bilan foydalanishadi. Bir qadam oldinga ketish uchun, avval ikki qadam orqaga chekiniladi. Qizlarni milliy qadriyatlar asosida oilaga tayyorlash tizimi "toza" holda emas, balki umumbashariy aqidalar va ular xususiyatlariga tanqidiy nazar solgan holda amalga oshirilishi taqozo etiladi.

Qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashning pedagogik jarayoni quyidagi pedagogik xususiyatlar birligi, ular majmuasini nazarda tutadi hamda ularning yaxlitlikda, uzviylik va uzluksizlikda, bosqichma-bosqich amalga oshirilishini taqozo etadi. Ular:

- mazkur pedagogik jarayonning pedagogik tamoyillari;
- pedagogik jarayonning o'ziga xos xususiyatlari;
- oila va ta'lim tizimida qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash jarayonini tashkillashtirish xususiyatlari;
- qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashni tashkil etish metodlari, usullari va vositalari;
- oilaviy tarbiya tizimi mezonlari, me'yorlari, monitoringni amalga oshirish talablari;
- qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash bilan shug'ullanuvchi hamda tarbiya jarayonida tarbiyani amalga oshiruvchi mas'ul shaxsga qo'yiladigan talablar majmuasi;
- tarbiyalanuvchining tarbiyalanganlik darajasi va uni baholash mezonlari kabi xususiyatlarni o'z mazmuniga qamrab oladi.

Qizlarni oilaviy hayotga milliy qadriyatlar asosida tayyorlashning pedagogik mazmuni – oilada hamjihatlikda bir necha avlod vakillarining hayot kechirish qonuniyatlari va amaliyoti haqidagi barcha bilim, ko'nikma va malakalarni qizlarning hayotiy pozitsiyasiga aylantirish jarayonidan iboratdir. Mazkur jarayonning maqsadi – qizlarni oilaga tayyorlash borasidagi barcha nazariy va amaliy bilim, malaka va ko'nikmalar majmuini,

sohaga oid ilmiy, tarixiy, amaliy tajribalarning oila tizimi hamda ta'lim tizimlari orqali qizlarga maqsadli yetkazilishiga teng keladi.

Qizlarni oilaviy hayotga milliy qadriyatlar asosida tayyorlashda quyidagi vazifalarni amalga oshirish ko'zda tutiladi:

- qizlarga oilaviy hayot haqida oddiydan murakkabga tomon bosqichma-bosqichlilik, uzviylik va uzluksizlik asosida ilmiy-nazariy bilim berish, ularning amaliy ko'nikma va malakalarni rivojlantirish;

- qizlarda oila tutish va oilani boshqarish bo'yicha milliy an'analarga e'tiqod va sog'lom oilaviy hayot kechirishga intilishni tarbiya qilish, sog'lom oilaviy hayotni ular hayotiy maqsadiga aylantirish, oilaviy hayotni insonlar birligi va hamjihatligi sifatida anglashni kuchaytirish, oilaviy hayotni tomonlar qarama-qarshiligi va musobaqasi sifatida anglash holatlariga qat'iy zarba berish;

- qizlarni oilaga tayyorlashda xalq pedagogikasi va uning vosita, usul, yo'llari, metodlaridan unumli foydalanish, xususan, xalq pedagogikasi, xalq hunarmandchiligi, milliy o'yinlar, amaliy san'at, musiqa va teatr san'atidan foydalanishga erishish, tarbiya tizimini shaxsiy ibrat asosiga qurish, qizlarning yoshligidanoq qanday ayol bo'lishlari lozimligini aniq xotin-qizlar obrazi orqali namoyish qilib berish;

- xalqning turmush tarzi tarixi, oilada yashash tartib-qoidalari, oilaviy kelajak orzulari haqida ma'lumot beruvchi dastlabki manbalar va bitiklarni o'rganish, ularning oilaviy hayotga qizlarni tayyorlashga oid tegishli o'rinlarini maqsadli o'rganish va mavjud oilaviy tarbiya tizimini rivojlantirishdagi ahamiyatini aniqlash;

- qizlarni oilaga tayyorlashda din omilidan samarali foydalanish, diniy manbalarda oilaviy qadriyatlar talqin etilgan o'rinlarni maqsadli o'rganish, mazkur jarayonga bobo va buvilarni, ularning hayotiy tajribasi, diniy qadriyatlari va axloqiy nasihatlari majmuini keng jalb etish;

- Sharq va G'arb xalqlarining uzoq tarixga ega turmush tarzi, oilaviy an'analari, urf-odatlar, ularning bugungi hayotda tutgan o'rnini o'rganish va ular asosida qizlarni oilaga tayyorlashning yaxlit majmuini yaratish;

- qizlarni oilaga tayyorlashda bugungi zamon uchun javob bera oladigan samarali shakl, metod va vositalarini aniqlash hamda ular bilan oilaviy tarbiya bilan bevosita shug'ullanadigan barcha pedagogik subyektlarni qurollantirish, ularni malakali va maqsadga ega bo'lgan pedagogik kadrlar sifatida shakllanishi uchun imkon yaratish va ko'mak berish;

- qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash jarayonini yigitlarni oilaviy hayotga tayyorlash ishidan ayri qilgan holda, alohida ahamiyatga molik bo'lgan maqsadga aylantirmaslik, balki mazkur masalaga yaxlit pedagogik maqsad sifatida qarash, shunga ko'ra yigitlar tarbiyasida zamonaviy jihatlarning barchasini nazarga olish;

- qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash tizimini tashkil qilishda bosh bo'g'in sifatida oilaviy ta'lim-tarbiyani tanlash, aynan oilaviy tarbiyani oilaviy hayotga tayyorlashning asosiy negizi sifatida belgilash, shunday ekan oilaviy tarbiyani olib boruvchi va uni tashkil qiluvchi subyektlar, ya'ni ota-onalar, bobo-buvilarni qizlarni zamonaviy davrning barcha murakkab xususiyatlari va talablari, jumladan, o'sib borayotgan ijtimoiy raqobat, globalizatsiya shart-sharoitlari davriga mos ravishda tarbiya qilish.

Qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashda ularga zarur bo'lgan bilimlar me'yori quyidagi an'anaviy masalalarni ham o'z mazmuniga qamrab oladi: sog'lom turmush tarzi tushunchasi, to'g'ri ovqatlanish, oziq-ovqatlar tarkibidagi inson organizmi uchun zarur bo'lgan moddalar, ayollarning homiladorlik davrida ovqatlanish tartibi va ona sutining

ahamiyati, kasallikning oldini olish, nikoh yoshining tibbiy, biologik xususiyatlari, homiladorlikdan saqlanishning zamonaviy usullari, ruhiy osoyishtalik yoki asab muvozanatini ta'minlash, muammolarga nisbatan neytral bo'la olish, ichkilikbozlik, kashandalik va giyohvandlik kabi zararli odatlardan o'zini tiyish, ozodalikka, orastalikka rioya qilish, atrof-muhitga oqilona munosabatda bo'lish kabilardan iborat.

Ma'lumki, o'zbek oilasida an'anaviy tarzda so'nggi yillarda tibbiy madaniyatni oshirish, ayollarning sog'ligini mustahkamlash, sog'lom avlod tug'ilishi va uni tarbiyalashning ustuvor yo'nalishlarini amalga oshirish chora-tadbirlarga urg'u berilgan bo'lib, bundan bosh maqsad zamonaviy tibbiy, ijtimoiy va iqtisodiy tahdidlarga ularni tayyorlashdir. Mana shunday talablar majmuasi quyidagilardan iborat, ular:

- qizlarni ona bo'lishlarini inobatga olgan holda sog'lom avlodni kamol toptirish muammolari bo'yicha ularning bilimlari va savodxonligini oshirish;
- giyohvandlik va giyohvand moddalarning turli zamonaviy xillariga qarshi uyg'oq qilib tarbiya qilish;
- giyohvandlik va taksikomaniya diagnostikasi va uning oldini olish chora-tadbirlarini ko'rish;
- OITS kasalligining kelib chiqish sabablari, uning klinik belgilari, tashxisi, epidemiologiyasi bo'yicha savodxon qilish;
- OITS bilan zararlaniшни oldini olishning huquqiy asoslarini o'rgatish;
- teri-tanosil kasalliklari va uning oldini olish chora-tadbirlarini ko'rish;
- oilada tibbiy madaniyatni oshirish, reproduktiv salomatlik asoslarini o'rgatish;
- sil kasalligi va undan saqlanishning asosiy shartlarini o'rgatish;
- inson genofondiga tahdid solayotgan barcha holatlar, ekologik tahdidlar va kasalliklar borasida qizlarni savodxon qilish.

Ma'lumki, oilaviy ta'lim va tarbiya jarayonining o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Ular o'rgatuvchi va ta'lim jarayonini tashkil qiluvchi shaxs sifatida ota-onalarning rol o'ynashi bilan belgilanadi. Tabiiyki, o'qitish obyekti sifatida qizlarda o'z ota-onasiga juda kuchli ishonch mavjud bo'ladi. Bu pedagogik shart-sharoitning ijobiy tomonidir. Biroq ota-ona qizlarni oilaviy hayotga to'laqonli tayyorlash bo'yicha tegishli bilim, malaka va ko'nikmalarni bilmasligi, yoki ular bo'yicha ma'lum bilimlarni egallagan bo'lsa ham, qaysi pedagogik amallar, xususan, vosita, usul va yo'llarni qo'llagan holda oilaviy tarbiyani samarali qilish imkoniyatlarini bilmasligi mumkin. Bu tabiiy ravishda pedagogik shart-sharoitning salbiy tomonini namoyon etadi. Binobarin, qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashda bir xil me'yorlarni o'rnatishga eng qiynaladigan tomonimiz ham mana shunda namoyon bo'ladi. Ya'ni ta'lim beruvchi shaxsini, uning mahorati va kompetensiyasi masalalarini bir xil darajaga keltira olish mumkin. Shu bois ham qizlarni oilaviy hayotga bir xilda, samarali tarzda tayyorlash jarayoni qiyin kechadi. Qizlarni oilaviy hayotga belgilangan talab darajasida tayyorlash uchun eng avvalo, ota-onalarning o'zini bir xil kompetensiyasi masalasini hal etish darkor bo'ladi.

Qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashda shuningdek, ularga siyosiy, huquqiy bilim va madaniyat, mafkuraviy immunitet va ogohlik, dinlar tarixi va diniy bag'rikenglik, ekologik bilim va madaniyat, kasbiy mahorat, iqtisodiy bilim va malakalar, pedagogik-psixologik bilim va malakalar, shaxsning ma'naviy barkamollik kabi yo'nalishlarda chuqur bilimlarni shakllantirish taqozo etiladi.

Masalan, qizlarni oilaviy hayotga salomatlik mezonlari asosida maqsadli shakllantirish natijasida ularda quyidagi xususiyatlar, axloqiy me'yorlar va shaxs belgilari vujudga keltiriladi: inson shaxsining hayoti va salomatligi uchun salbiy ta'sir ko'rsatuv-

chi omillar to'g'risidagi nazariy ma'lumotlarga ega bo'lish; shaxs hayoti va salomatligi uchun salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarni bartaraf etish borasidagi nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirishga erishish; salbiy odatlardan o'zini saqlash malakasini egallash (tamaki mahsulotlarini chekish, narkotik va spirtli ichimliklar iste'mol qilishga qarshi); kun tartibiga amal qilish; muntazam ravishda jismoniy harakatda bo'lish, sport bilan shug'ullanishga erishish; to'g'ri ovqatlanish qoidalarini mohiyati va ahamiyati to'g'risida puxta ma'lumotlarni o'zlashtirish; shaxsiy salomatlikni saqlash va muhofaza qilishga nisbatan mas'uliyatni qaror toptirish; salomatlikni saqlash va muhofaza qilish; turli xildagi jarohatlanishlarning oldini olish layoqatiga ega bo'lish; jins sifatida to'g'ri tarbiyalanish, shaxsiy gigiyena qoidalaridan xabardor bo'lish va ularga og'ishmay amal qilish; o'zida yuksak axloqiy sifatlar, kuchli iroda, mustahkam xarakter namoyish qilish, milliy istiqlol g'oyasi va mafkura tamoyillariga zid bo'lgan aqidalarga qarshi immunitet hosil qilish va ularga qarshi kurashish qobiliyatini yuzaga keltirish.

Ma'lumki, yuksak ma'naviyat xalqimizga xos xislat. Ta'lim-tarbiya inson kamoloti va millat ravnaqining asosiy sharti va garovidir. Oilaviy tarbiyaning to'g'ri va maqsadli, samarali tashkil qilinishi esa jamiyat tinchligi va orastaligi asosidir. O'zbek xalqi o'zining qadimiy va boy madaniyati, o'ziga xos sivilizatsiyasi va tarixiy merosi tarkibida har vaqt oilani asrash, oilani muqaddas deb bilish, oilaviy qadriyatlarni targ'ib etib kelgan, o'z yashash tarzida, milliy qadriyatlari tizimida oilani mustahkamlash tamoyillariga suyangan holda o'z farzandlarini tarbiyalagan.

Oilani asrash g'oyalari o'zbek xalqining azaliy urf odatlari, kundalik turmush tarzi va axloq-odobidan juda keng o'rin olgan. Oilani mustahkamlashga yo'naltirilgan tamoyil va qadriyatlar avloddan-avlodga axloq va odob me'yorlari sifatida meros qoldirilib, maxsus ravishda tarbiyalangan. Qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash ham o'zbek xalqining an'anaviy qadriyatlarining bir bo'g'ini, uning bosh yo'nalishlaridan biri sifatida har doim ustuvor vazifa bo'lib qolaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Anvarova D.M. O'smirlar ma'naviyati shakllanishi va rivojlanishining psixologik xususiyatlari. Avtoref. ...psix.f.n. –T., 2011. 26-b.
2. Inamova M.O. Oilada bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlardan foydalanishning pedagogik asoslari: Dis. ...ped. fan. d-ri. –T., 1998. 316-b.
3. Ismoilova M.E. Xalq qo'shiqlari vositasida o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini rivojlantirish. Dis. ...p.f.n. – Qarshi. 2006. 217-b.
4. Yo'ldosheva S.M. O'zbekistonda sog'lom avlodni ma'naviy tarbiyalashning ijtimoiy-pedagogik asoslari: Dis....ped.fan. nomz. –T., 2001. 119-b.
5. Karimova V.M. Yoshlarda o'zbek oilasi to'g'risidagi ijtimoiy tasavvurlar. Dis. ...psix.f.d-ri. – Farg'ona: 1994. 310-b.
6. Lutfullayeva N.X. Turmush qurgan o'quvchi-talabalarning oilaviy munosabatlarga tayyorlashning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari: Avtoref. dis. ...psix. fan. nomz.. – T.: O'zMU, 2006. 22-b.
7. Maxmudova M. Xalq pedagogikasi mazmuni asosida talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash tizimi. Dis. ...ped. fan. dokt. – T., 2007. 282-b.

Shaxnoza TAYLAQOVA,
A.Avloniy nomidagi XTXQTMOMI
katta o'qituvchisi

GLOBALLASHGAN AXBOROT SHAROITIDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING O'QUVCHI-YOSHLAR MA'NAVIYATIGA IJTIMOY TA'SIRI

Annotatsiya

Maqolada globallashgan axborot sharoitida ommaviy axborot vositalarining ijtimoiy hayotdagi ahamiyati to'g'risida fikr yuritilgan. Shuningdek, muallif ta'lim-tarbiya jarayonlariga, xususan, o'quvchi-yoshlar ma'naviyatiga OAV larning ijtimoiy ta'sirini bayon qilgan.

Kalit so'zlar. Globallashuv, informatsiya, ma'naviyat, ta'lim-tarbiya, ommaviy axborot vositalari, televideniye, radioeshittirishlar, matbuot, internet, ommaviy madaniyat, o'quvchi, maktab, oila.

В статье рассматривается значение средств массовой информации в жизни общества. Автором раскрыто влияние СМИ на духовность учащейся-молодёжи в процессе воспитания и обучения в условиях глобализации информационных процессов.

Ключевые слова. Глобализация, информация, духовность, образование, средства массовой информации, телевидение, радио, пресса, Интернет, массовая культура, ученик, школа, семья.

Article discusses the social impact of mass media to spirituality of youth in the process of education and training, as well as features of social life in the conditions of informational globalization.

Key words. Globalization, information, spirituality, education, mass media, television, radio, press, internet, mass culture, pupil, school, family.

Milliy istiqlool mafkurasi mamlakatimizda ommaviy axborot vositalari (OAV)ning xalq manfaatlariga xizmat qilishiga, komil shaxsning rivojlanishiga, shaxsning jamiyat bilan informatsion aloqasini ta'minlashga, jamiyatning har bir a'zosini yoshi va ijtimoiy maqomidan qat'i nazar ehtiyojlarini qondirishga qaratilgandir. Xalqaro miqyosda OAVning davlatlardagi faoliyati tinchlikni, o'zaro hamjihatlikni mustahkamlashga, ilmiy va madaniy qadriyatlarni ayirboshlashga qaratilgandir.

Mamlakatimizda ommaviy axborot vositalari tizimi ma'naviy-ma'rifiy tarbiyaning ajralmas va zarur qismiga aylangan. Ommaviy axborot vositalari tizimi deyarli barcha aholini qamrab oladi. Har bir oila u yoki bu radiovositaga, telesignallar qabul qilish imkoniyatiga ega. Bolalar hali o'qishni o'rganmasdan katta hajmdagi turli xil ma'lumotlarni OAV tizimi orqali oladilar. Zamonaviy smartfonlar, qo'l telefonlaridan erkin foydalanish, uni ichki funksiyalari orqali turli o'yinlarga kirish, musiqa eshitish ko'nikmasi bugungi kun bolasi uchun yangilik bo'lmay qoldi. Ammo shu o'rinda aytib o'tish joizki, bolalar, o'quv-

chi-yoshlar turli axborot vositalaridan olayotgan ma'lumotlari qanchalik ularning yoshiga mos hamda qanchalik to'g'ri?

O'quvchi-yoshlar uchun radio, televideniye va matbuotdan olayotgan axborotlar hajmi va xilma-xilligi bo'yicha boshqa manbalardan olishayotgan ma'lumotlardan nafaqat ustun turishini, balki eng ishonchli ekanligini ularga ta'kidlash joiz. Bu holat o'quvchi-yoshlarda ishonchni shakllantiradi va shu bilan birga tushunarli, hammabop, muntazam bo'lgani uchun qat'iy qabul qilinadi. Bundan ular axborotni ishonchli tarzda bevosita siyosiy yangiliklardan, mahoratli sharhlovchilardan, ma'naviyat va iqtisodiyotning turli sohalarida faoliyat olib borayotgan ma'rifatli mutaxassislardan oladilar.

Televideniya boshqa ommaviy axborot vositalari orasida ta'sir doirasi keng hisoblanadi. Teleaxborotning ishon tiruvchanlik samarasi turli xil texnik, badiiy ta'sirchan vositalar va usullar bilan (montaj, janr, musiqali – shovqinli bezak) kuchaytiriladi. Ta'sir doirasi kuchaytirilgan ovoz va video inson e'tiborini o'ziga jalb etishi muqarrar. “Ma'lumotlarga ko'ra, zamonaviy shaharlarda insonning media vositalari bilan muloqoti kuniga 11 soatdan oshmoqda, uylar va xonadonlarda televizor o'rtacha 7 soatu 38 daqiqa yoniq tura-di, 2 yoshdan 12 yoshgacha bo'lgan bolalar esa haftasiga 25 soat televizor ko'rmoqda.

Oilaviy Uyushmalarning Milliy Ittifoqi (UNAF – Union National des Associations familiaones) ma'lumotlariga ko'ra, voyaga yetmagan bolalar yil davomida o'rtacha 154 soat vaqtini ota-onalar bilan va 850 soatini o'qituvchilar bilan o'tkazmoqda. Oynai jahon-dagi turli media mahsulotlar esa, bolalarning 1400 soat vaqtini olmoqda.

Globallashgan axborot sharoitida bolalarning elektron OAVlarga – televideniyaga, formatli radioga, internetga, kompyuter o'yinlariga kirishiga bo'lgan nazorati ularning ota-onalari tomonidan birmuncha susayib borayotganligi sabablimi, so'nggi vaqtda dunyoda media tadqiqotchilar va pedagoglar media ta'limning ayniqsa, axloqiy-ma'naviy sifatlariga alohida ahamiyat qaratmoqdalar”.

Umumta'lim maktablarida 500 dan ortiq o'quvchi-yoshlar bilan o'tkazilgan so'rov-noma shuni ko'rsatdiki, yoshlar ichki va tashqi ijtimoiy-siyosiy hayot to'g'risidagi asosiy tushunchalarga teleko'rsatuvlar, internet materiallari orqali ega bo'ladilar (71%), undan so'ng radio, matbuot va nihoyat gazeta, jurnallar turadi.

Bizning kuzatishimizcha, g'oyaviy bo'shliq yoshlarda turli sabablarga ko'ra paydo bo'ladi. Shulardan biri, oilaviy muhit, ayrim ota-onalarning o'zida siyosiy-huquqiy ong qoloqligi natijasida farzand ma'naviy tarbiyasida yo'l qo'yilayotgan kamchiliklar bo'lsa, boshqa bir tomondan esa, nashr organlari, bolalar, yoshlar teleradio kanallari tayyorlayotgan materiallarda “pedagogik holat”ni hisobga olmaslikdir. Bunga ayrim kattalar uchun mos bo'lgan radio va ayniqsa teleko'rsatuvlar dasturini tuzishdagi kamchiliklar, xususan, bolalar va kattalar vaqtini hisobga olmaslik holatlarini aytish mumkin. Zero, kattalar va bolalar dasturlari o'z yoshi va auditoriyasiga ko'ra, o'z vaqtiga ham ega bo'lishi maqsadga muvofiqdir. G'oyaviy g'o'rlikning yana boshqa bir sababi, maktab ham, oila ham ommaviy axborot vositalari ahamiyatini kam tushunib yetayotganidir. Bu yangi pedagogik omil bo'lib, ahamiyatli ravishda nafaqat bilim olish xususiyatini, balki an'analar, milliy taraqqiyotga munosabat va qarashni ham o'zgartiradi. Agar inson tarbiyasida ommaviy axborot vositalarining ahamiyatini ota-onalar, o'qituvchilar yaxshi anglasa, bolalarning ijtimoiy-siyosiy va madaniy saviyasi yosh avlodni tarbiyalashning ijtimoiy-pedagogik shartlariga muvofiq ravishda o'zgara boradi.

Ayni globallashgan axborot sharoitida mafkuraviy tarbiya haqida fikr yuritar ekan-miz, bu yo'nalishda nashriyot, radio va televideniya organlarining xalq ta'limi tizimi, jamoatchilik institutlari va ilmiy-pedagogik muassasalar bilan o'zaro hamkorligini yo'lga qo'yishni yanada takomillashtirish lozim. G'oyaviy-siyosiy tarbiyani yo'lga qo'yishda

ommaviy axborot vositalari o'zlarining kuchlarini ilmiy muassasalar va xalq ta'limi organlari bilan birlashtirishlari kerak. Bu ayniqsa ommaviy axborot vositalari faoliyati tarbiyaviy imkoniyatlaridan foydalanishni va rejalashtirishda, shuningdek, aniq natijalarga erishishda muhim rol o'ynaydi.

Ba'zi hollarda ommaviy axborot vositalarining ko'pchilik ijodiy xodimlari o'z faoliyatida pedagogika, psixologiya, jamiyatshunoslik sohalaridan tasodifiy ma'lumotlarga tayanadilar. Shu tufayli ba'zi OAV materiallarida hissiy tushunish yetarli darajada ishlatilmaydi yoki yuzaki foydalaniladi. Vaholanki, insoniy tuyg'ularga qurilgan munosabat, tuyg'u o'quvchi-yoshlarga biror bir hodisa, voqeaga, qahramonga yakka tartibda yondashish jarayonini shakllantiradi. Bu holat o'quvchi-yoshlarda aynan his-tuyg'ular mohiyatini shakllantirishga yordam beradi va uning bilim, malakalaridan kundalik hayotda foydalanishga undaydi.

Ommaviy axborot vositalarida o'quvchi-yoshlar uchun materiallar tarkibini tayyorlashda qator ruhiy-pedagogik talablarni hisobga olmaslik, janr, mavzu rang-barangligi talablariga rioya qilmaslik shunga olib keladiki, mafkuraviy mavzudagi ko'pgina materiallar yosh tomoshabinlar va tinglovchilarning qiziqishlarini har tomonlama qondira olmaydi. Keng o'quvchilar ommasini qiziqtiradigan masalalar ko'pchilik bolalar va o'smirlar gazetalarida o'z vaqtida jiddiy yoritilmaydi, mahalliy televideniya va radio studiyalarda muammoli va dolzarb eshittirishlar yetarli darajada olib borilmaydi. Mazkur sabablarga ko'ra, yuqori sinf o'quvchilarining ko'pchiligi "kattalar uchun" mo'ljallangan ommaviy axborot vositalari materiallariga murojat qilmoqda. Ayrımlari chet el axborot manbalariga, ijtimoiy tarmoq sahifalariga ham murojaat qiladilar. Ular esa yoshlar auditoriyasining psixologiyasidan va bizning ommaviy axborot vositalarining ayrim kamchiliklaridan unumli foydalanadilar. Biz ana shu kamchilikning o'rnini to'ldirish maqsadida ommaviy axborot vositalarida beriladigan mafkuraviy materiallarga, albatta, pedagogik nuqtayi nazar orqali qarash, ishlov berish va shundan keyingina tatbiq etish lozim deb hisoblaymiz.

Yoshlar rasmiylikdan, til va uslubiy qoliplardan yiroq bo'lgan jonli muloqotga intiladilar. Ushbu talablarga "O'zbekiston" telekanalida beriladigan "Munosabat" ko'rsatuvi, "Madaniyat va ma'rifat" telekanalida "Oyna" ko'rsatuvi, "Yoshlar" telekanalida "Nuqtayi nazar" ko'rsatuvlarining materiallari yaqindir. Ularda yoshlarning bilim saviyalari, dolzarb, keskin muammolarga va ularga tezkor munosabat bildirishga qiziqishlari hisobga olinadi.

So'nggi yillarda "O'zbekiston", "Yoshlar", "Madaniyat va ma'rifat", "Bolajon" telekanallarida ijobiy tajriba to'plandi. Bu yerda o'quvchi-yoshlar uchun muammoli tarzda, dolzarb ahamiyatga ega bo'lgan ko'rsatuvlarni yaratish ustida muntazam ishlar olib borilmoqda. Yoshlar uchun ko'rsatuvlarga katta mahorat bilan hujjatli videomateriallar kiritiladi. Yoshlar muloqot uchun taniqli sharhlovchilar va yot mafkuralar targ'ibotining vayronkor mohiyatini tushunarli va ishonarli qilib fosh etuvchi respublikaning mashhur olimlari, jamoat arboblari jalb qilinadi. Bu ko'rsatuvlar mafkuraviy raqiblar targ'ibot qilayotgan qadriyatlarga tanqidiy ko'z bilan qarashga undaydi. Yoshlarda bo'hton, uydirmalarga qarshi dalillar paydo bo'ladi. Ularda yot mafkuralar targ'ibotiga qarshi immunitet shakllanadi.

Aytib o'tganimizdek, oila va maktab, ommaviy axborot vositalarida va keyingi o'n yil ichida O'zbekiston xalqining g'oyaviy-siyosiy saviyasida, ijtimoiy hayotida, siyosiy faolligida, ma'naviyati, ruhiy kayfiyatida pedagogik madaniyati darajasida va h.k.larda chuqur o'zgarishlar yuz berdi.

Ommaviy axborot vositalari tezkor har bir uyga, oilaga har kuni, xalqning katta madaniy boyligini yetkazib berish imkoniyatini yaratadi. U o'zi bilan ilmiy asoslangan va

milliy taraqqiyot tajribasida ishlab chiqilgan, sayqal topayotgan ijtimoiy mafkurani olib keladi. Shu bilan birga texnik yutuqlar yot mafkuralar axborot vositalariga ochiq efir va chet el matbuoti yoki internet sahifalari yordamida o'z g'oyalarini tarqatish imkonini ham bermoqda. Odatda, bu insonlarning, ayniqsa, yoshlarning ongiga ta'sir o'tkazadi va bu bilan tarbiya jarayonini murakkablashtiradi. Lekin oila ham, maktab ham mafkuraviy jarayonlarda OAV orqali tarqalayotgan informatsiyalar vaziyatni turli tomonlarga o'zgartirib yuborishi mumkinligini yetarlicha hisobga olmayaptilar. Tajribalarimiz shuni ko'rsatadiki, ta'lim muassasalarida hozirgacha ham ommaviy axborot vositalarini faqat o'quv jarayonini rang-barang o'tkazishga va qo'shimcha axborot olish uchun yordam beruvchi vosita sifatida qarashlarini ko'rsatmoqda. Afsuski, ayrim hollarda pedagoglar ham, ota-onalar ham OAV va OAV materiallariga nisbatan o'ziga xos, muhim ijtimoiy-pedagogik omil sifatida qaray olmaydilar. Buni kundalik pedagogik jarayonda o'sib kelayotgan yosh avlodning g'oyaviy tarbiyasida tan olmaslikni jiddiy pedagogik kamchilik sifatida e'tirof etish kerak.

O'tkazilgan so'rovnomalar shuni ko'rsatadiki, yuqori sinflardagi o'quvchilarning 11 foizi muntazam bo'lmasa-da, lekin baribir inson ma'naviyatiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi turli xil OAV materiallarini (qo'poruvchilik, zo'ravonlik, terroristik lavhalar, axloqiy tubanlik, pornografiya) onlayn tarzda ko'rishar ekan. Bu yoki ongli ravishda, yoki tasodifan (do'stlarinikida) yuz beradi. Misol uchun ikki maktabning 5-9 sinf o'quvchilarining javoblarini olaylik. “Internet, radio, televideniye va matbuotdan bolalarning siyosiy madaniyatini shakllantirishda oilangizda qanday foydalanishadi?” – degan savolga: “Uyimizda kuni bo'yi televizor yoniq turadi, kechqurun hammamiz birgalikda “Axborot”, “Davr”ni ko'ramiz, gazeta, kitoblar o'qiyimiz va muhokama qilamiz” degan javoblar olindi. Biroq oila davrasida eshittirishlar tinglash, televideniya berilgan biron bir ko'rsatuvni muhokama qilishga ketgan vaqtni hisobga olganda, gazetalar o'qish uchun kam vaqt sarflanishi, informatsiyalarning ko'p foizini asosan texnik OAVlardan, xususan, TV va internetdan olinishi ma'lum bo'ldi.

